

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT
ISHLARI VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 331.84

Karabayev rahmatilla abdosattarovich

“Sharq va g‘arb hordiq madaniyati tahlili”

5A610402 – “Ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etish”

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

s.f.d.professor, M.B.Bekmurodov

TOSHKENT-2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. SHARQ VA G‘ARBDA HORDIQ MADANIYATINING SHAKLLANISH TARIXI	
1.1. Sharq hordiq madaniyatining shakllanishi va uning mazmun mohiyati	11
1.2. G‘arbda kichik shakldagi ommaviy tomoshalar hordiq chiqarishning bir turi sifatida	25
I bob bo‘yicha xulosa	38
II BOB. SHARQ VA G‘ARB HORDIQ MADANIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ULARNING TAHLILI	
2.1. G‘arb yoshlarining bo‘sh vaqtlari “Ommaviy madaniyat” ta’siri bilan to‘liq qamrab olinayotganligi	39
2.2. Sharq hordiq madaniyatining o‘ziga xosligi	53
II bob bo‘yicha xulosa	62
III BOB. MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARINING AHOLI HORDIG‘INI TASHKIL ETISH BO‘YICHA FAOLIYATLARI	
3.1. Madaniy-ma'rifiy muassasalarining shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari	63
3.2. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlarning madaniy-hordiqiy tadbirlarini uyishtirish masalalari	72
III bob bo‘yicha xulosa	82
XULOSA	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	86
ILOVALAR	90

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi: Insonlar borki qaysi sohada, qay yusinda va qanday mentalitetda hamda qaysi zamonda yashamasin ular fikrlash qobiliyatlari, o‘y hayollari va orzu umidlar bilan yashab faoliyat yuritib kelganlar. Shunday faoliyatlari bilan birga o‘zlarining turmush-tarzini yaxshilashlari va ma’naviy oziqa olishlari shart hisoblanadi. Ko‘rinib turganidik insonlar hordiq chiqarishni, ma’naviy va estetik zavq olishni xohlashadilar. Mana shunday vaziyatda madaniyat muassasalarining faoliyatlari insonlar hordiqiga bevosita xizmat qilish uchun qo‘l keladigan muassasa hisoblanadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning barchasida yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar katta rol o‘ynaydi. Mustaqil O‘zbekistonimizda o‘z milliy madaniyatimizni yanada yuksaltirish madaniy boyliklarimizni asrab-avaylash maqsadida samarali ishlar olib borilmoqda va bu borada bir qator O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, prezident famonlari va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qator qarorlari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilib o‘zining ta’sir kuchini kursatmoqda, madaniyatimizning yanada gullab yashnashiga o‘z hissasini qo‘shmoqdalar.

Masalan: O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi”¹ to‘g‘risidagi, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish”² to‘g‘risidagi kabi bir qator qonunlar qabul qilgan. Shu jumladan “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish”³ to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmoni ham O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2013-2018 yillarda zamonaviy “Madaniyat va aholi dam olish markazlari”⁴ni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori aholining, ayniqsa, bolalar va yoshlarning intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi qonuni –T.: 1998 yil. 29 avgust.

² O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. –T.: 2001 yil. 30 avgust.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining. “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoni. – T.: 1998 yil 26 mart.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining. “Madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 2013 yil 25 iyun

to'laroq qondirish uchun zarur zamonaviy, ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-ma'rifiy muassasalar yaratish maqsadida qabul qilindi.

Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari o'z faoliyatini milliy madaniyatimiz an'analarini o'rganish va saqlab qolishda jamoatchilik ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda badiiy ijod hamda havaskorlikning ijodiy tashabbuslarini va aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash, mazmunli dam olishni ta'minlashga yo'naltiradi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy muassasalarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Bu muassasalar ommaning ijtimoiy-siyosiy badiiy havaskorlik ijodiyotini har tomonlama rivojlantirish, ularning madaniy dam olishini tashkil etish omillardan biridir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar mehnatkashlarining madaniy dam olishi, hordiq chiqarishi, bir-birlari bilan munosabatda bo'lishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, har kishini o'z qiziqqan sohasi bilan shug'ullanishi markazi hisoblangan madaniy-ma'rifiy muassasalar asosan quyidagi turlarga bo'linadi: kutubxonalar, madaniyat maskanlari, madaniyat va aholi dam olish markazlari, teatrlar, shular jumlasidan demakdir. Madaniy va ma'rifiy markazlariga respublika, shahar, tuman, viloyat, mahalla guzarlari, madaniyat va aholi dam olish markazlari va madaniyat saroylari kiradi.

Turli millatlarning mehnatkashlari o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni uyushtirishda eng avvalo ularning tilini, o'ziga xos xususiyatlari, ruhiyatini, turmush tarzini, an'analarini, urf-odatlarini, marosimlarini hisobga olish juda ham muhimdir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar oldiga qo'yilgan vazifalar va talablar tarixiy jarayonning rivojlanishi natijasida vujudga keldi va mustaqil mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti, xalq xo'jaligi, fan, texnika, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, san'atning guruhlab rivojlanishi natijasida yanada takomillashib bormoqda.

Madaniy-ma'rifiy xodim oldiga omma o'rtasida bilim taraqqatish, odamlarni ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, qobiliyati va iste'dodlarini o'stirishda ularga

yordam berish, mehnatsevarlarni moddiy hordiq chiqarishini uyushtirish kabi vazifalar qo'yilgan.

Madaniyatga faoliyat sifatida yondashish quyidagi qoidalarda o'z ifodasini topadi: «Madaniyat inson tomonidan o'z-o'zini va borliqni qayta qurishdan iborat faoliyat demakdir». «Madaniyat insonning mohiyatini ifodalovchi faoliyat».

Texnologik yondashish quyidagi qoidalarda ifoda etiladi: «Madaniyat kishilik tajribalarini saqlovchi, rivojlantiruvchi va avlodlarga yetkazuvchi vositadir», «Madaniy faoliyatni amalga oshirish uslubidir»¹.

Madaniyat tushunchasini gumanistik va mazmun jihatdan ta'riflovchi qoidalar quyidagilardir «Madaniyat insonning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari rivojlanishi qonuniyatlari ifodasidir». «Madaniyat insonning tabiat va jamiyat bilan o'ziga xos uyg'unlashuvidir»².

Madaniyat tushunchasi turli mintaqalarda turlicha negizlarda tarkib topganligini ham ta'kidlash joiz. G'arb mamlakatlari uchun madaniyat tushunchasi «Kultura» atamasidan kelib chiqqan va ma'no xususiyatiga ko'ra «yer haydash», «yerni ishlash» ma'nosini ifoda etadi³. Bu esa madaniyat («kultura») tushunchasi doirasiga yerni ishlash mohiyatidan kelib chiquvchi «shakllantirish», «rivojlantirish», «tarbiyalash» ma'nolarini ham kiritishni taqozo etadi. Shu yo'nalishda G'arb xalqlari mutafakkirlari «madaniyat-kultura» tushunchasi mazmunidan kelib chiqqan holda unga ko'proq inson ongi, intilishlari mahsulining ko'rinishlari sifatida tavsif berib kelganlar. Huddi shu negizda madaniyatning «ommaviy madaniyat», «ishlab chiqarish madaniyati», normativlar (xulq-atvor) madaniyati, «Siyosiy madaniyat», «Huquqiy madaniyat», «Mehnat madaniyati» va hokazo ko'rinishlari maxsus o'rganilib kelinadi.

G'arb talqinidan farq qilib, Sharq xalqlarida, xususan, islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarda madaniyat so'zi madina atamasidan hosil bo'lgan bo'lib, «shaharlik», «shaharga xos» ma'nolarini anglatgan. Madaniyat atamasinig mazkur shakli yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlikka davatdan ko'ra insonni muayyan

¹ Falsafa qisqacha izohli lug'at. -T.: "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2004 yil. -B. 193.

² O'sha joyda

³ M. Bekmurodov. "O'zbek mentaliteti". -T.: "Into Capital Group" nashriyoti. 2011- y., -B. 8.

tartibotlar, turmush tarzini qabul qilishga undashni ifoda etadi. Tabiiyki, atamalar o'rtasidagi mazmuniy farqlar xalqlarning taraqqiyot darajalariga ta'sir qilmay qolmagan.

Hozirgi paytda yoshlarning bo'sh vaqtini samarali, ijtimoiy foydali qilib uyushtirish maxsus tadqiqotlarga molik muammolardan biri bo'lib, u olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan jiddiy e'tiborni kutib turibdi desak adashmagan bo'lamiz. Bu boradagi madaniy-ma'rifiy muassasalar tajribasi maxsus o'rganishni, umumlashtirishni, tahlil va targ'ib qilishni talab qilmoqda.

«Bo'sh vaqt - ijtimoiy boylik» deyishadi. U insonning qobiliyatlarini takomillashtirishi, bilim olishi, ma'naviy kamol topishi, jismoniy rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Bo'sh vaqtdan samarali foydalanish bu birinchidan, mehnat unumdorligini oshirish, ikkinchidan, kishilarning ishda sarf bo'lgan kuchini tiklash, uchinchidan, sog'liqni mustahkamlash, ruhiyatni tetiklashtirish demakdir. Shunday ekan madaniy hordiq chiqarish har bir davrda ham ahamiyatga ega bo'lgan va bugungi kunda ham dolzarblik kasb etmoqda. Sharq va G'arb hordiq madaniyatining tahlili jarayonida ularning o'z qadriyatlariga bo'lgan fikrlarini ham o'rganishga harakat qildik.

G'arb xalqlari uchun har qanday muammoning yechimini manfaatlar hal etishi umumiy qonuniyat hisoblanadi. Manfaatlar silsilasida iqtisodiy manfaat ayniqsa ustuvor ahamiyatga ega. Ingliz mentalitetini yaxshi bilgan mashhur davlat arbobi U. Cherchill «Angliya taqdirini uning doimiy do'stlari emas, balki doimo o'zgarib turuvchi manfaatlar belgilab kelgan» degan edi¹.

G'arbdagi moddiy, real manfaatlar ustuvorligi qadriyatidan farq qilib, Sharq xalqlari uchun bosh qadriyat ma'naviy omillar, ayniqsa, inson sha'ni, obru-e'tibori, nafsoniyati, oriyati, vijdoni hisoblanib kelgan. Ma'naviy talablar esa o'z-o'zidan qadriyatlar qatorini mutanosiblashtirishni, birining ketidan mantiqiy ravishda ikkinchisini qo'yishni taqozo etgan. Xususan, otaga ehtirom, ona e'zosi, aka va uka hurmati, qavmu qarindoshlar totuvligi, qo'ni-qo'shnilar ahilligi qadriyatlar sifatida

¹ M. Bekmurodov. "O'zbek mentaliteti". -T.: "Into Capital Group" nashriyoti. 2011- y., -B. 10.

muayyan ketma-ketlikda, qadrlanish darajasiga ko'ra iyerarxik shaklda hayotdan o'rin olib kelgan.

Bugungi kunda G'arb madaniyatidan andoza olaman deb urinayotgan yoshlarimiz ham yo'q emas, yoshlarni bu yo'llarga adashib kirib qolmasliklari uchun har bir katta avlod vakillari ma'suldirlar. Madaniyat muassasalarining ham eng birinchi maqsadi yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish va ular orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, ularning madaniy hordiq chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Respublikamizda ta'lim sohasidagi o'zgarishlar ya'ni "Ta'lim to'g'risidagi qonun"¹ va "Kadrlar tayorlash milliy dasturi"²ga asoslangan holda malakali kadrlarni tayorlash va ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish borasida hukmatimiz tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga katta turtki hisoblanadi. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish"³ to'g'risidagi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari"⁴ to'g'risida qaroriga muvofiq "Sharq va G'arb hordiq madaniyati tahlili" magistrlik dissertatsiyasi darajasida ilmiy tadqiqotga mavzu qilib olindi. Bu mavzu bugungi kunda madaniyat sohasidagi muammolardan biri hisoblanganligi bois mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarimizni quyida batafsil to'xtalib yortishga harakat qilamiz.

Tadqiqot obyektini va predmetining belgilanishi: Sharq va g'arb hordiq madaniyati tahlilini yurtimizdagi mavjud madaniyat muassasalari va madaniyat va aholi dam olish markazlari orqali o'rganishdan iboratdir. Predmeti madaniyat

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. –T.: 1997-yil. 29 avgust

² O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayorlash milliy dasturi". –T.: 1997-yil. 29 avgust

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi farmoni. –T.: 2012 yil 24 iyul.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. –T.: 2007-yil 10 sentyabr.

muassasalari faoliyatida madaniy hordiq olish masalalari yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri, hordiq madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, uslubi va shakllari belgilangan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Sharq va g'arb hordiq madaniyatini tahlil etish bilan birga madaniyat muassaslarida yoshlarning madaniy-hordiqiy tadbirlarining samaradorligini yanada oshirish va yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish va uni amaliyotda joriy qilish hamda ularning faoliyatlarini takomillashtirishga erishish maqsadi ko'zda tutilgan va bularni bajarish uchun bir necha vazifalar belgilangan.

- Milliy mentalitet hamda turmush tarzi o'ziga xosliklarining madaniyat va san'at rivojiga ta'sirini o'rganib chiqish;

- Sharq hordiq madaniyatining mavjud ahvolini o'rganish va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga ko'maklashadigan tavsiyalar ishlab chiqish;

- Yoshlarni o'zi qiziqqan to'garaklarga jalb etish hamda to'garaklarning shaxsni shakillantirishga ta'sirini o'rganish;

- Sharq va g'arb hordiq madaniyatini tahlil qilish, madaniyat va san'at rivojiga ta'sirini hamda hayot va faoliyatimizga qanchalik bog'liqligini aniqlash;

- Vazifalarning bajarilishini nazorat qilish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

- Insonlarning madaniy hordiq olishlari va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda madaniyat muassasalarining o'rni va rolini tahlil qilish, hammabob ommaviy tadbirlarni uyishtirish, yoshlarning bo'sh vaqtlari bilan bog'liq istiqbolli rejalar tuzish uchun ilmiy asos izlash;

- Shu ta'lim yo'nalishi bo'yicha taxsil olayotgan yoshlarga hamda Sharq va G'arb hordiq madaniyati bilan qiziquvchi ilim ahliga sohaning rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda yoritish;

- Sharq va G'arb hordiq madaniyatining yosh avlod tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta'sirlari haqida, hordiq chiqarish madaniyatining o'ziga xosligi va madaniyat muassasalaridan keng ko'lamda foydalana olishga bog'liq vositalarni ilmiy asosda o'rganish;

- Sharq va G'arb hordiq madaniyati tahlilining muhimlik darajasini hamda dolzarb muammolarini ochib berish;

- Hordiq madaniyatining kelajak istiqboli yuzasidan aniq mulohazalar va sohani rivojlantirishga oid aniq takliflar kiritishdan iborat.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili: Aynan mana shu mavzu yuzasidan yetarlicha ilmiy ishlar qilinmaganligi va bu mavzu yuzasidan aniq va maqsadli ishlarning yuzaga chiqishi fanga o'zgacha bir qo'shimcha sifatida hissa bo'lib qo'shilishiga amin bo'ldik. Tadqiqot mavzumiz borasida bizdan oldin hech kim ilmiy izlanish olib bormagan bo'lsada mavzumizning ayrim masalalarini qamrab oluvchi ma'lumotlar mutafakkir olimlarimiz va bugungi kun professorlari tomonidan Sharq va G'arb madaniyati masalalari, Sharq va G'arb madaniyati, bo'yicha o'quv uslubiy adabiyotlar yaratilgan, hamda bir qancha maqolalar, to'plamlar, nashrdan chiqqan. Biz tanlagan mavzu esa ilm fanga kichik yangilik sifatida kiritilish ham mumkin.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi:

-Sharq va G'arb hordiq madaniyatiga oid ma'lumotlarni jamlash va tahlil qilish.

- Sharq va g'arb hordiq madaniyatini tahlil qilishda davra suhbatlari uyishtirish.

- Ijtimoiy so'rovnoma va testlardan olingan ma'lumotlarni umumlashtirish.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Tadqiqotning nazariy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligidan kelib chiqadi. Tadqiqot dasturini yaratish statistik tahlil hordiq madaniyatining o'ziga xosliklari bunda madaniyat muassaslarining o'rni va xususiyatlarining o'rganilishi madaniyat va san'atshunoslik sohasiga nazariy hissa bo'lib qo'shildi.

Uning nazariy ahamiyati o'tkazilgan ilmiy tahlillar va olingan xulosalar "madaniya tadbirlarni tashkil etish", "madaniyat va san'at menijmenti", "shaxslar aro munosabatlar psixologiyasi", "madaniyatshunoslik" kabi sohalarini yanada boyitishga xizmat qilishida ham namoyon bo'ladi. Amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan Respublikadagi san'at va madaniyat kasb-hunar kolleji akademik

litsey o'quvchilariga va oliy o'quv yurti talabalariga o'quv-tarbiya jarayonida hordiq madaniyatiga oid tushunchalarni takomillashtirishda qo'l keladi. Tadqiqot natijasida chiqarilgan nazariy xulosalar va sohaning rivojlanish tamoyillari xususidagi taklif-mulohazalar madaniyat muassaslari faoliyatini o'rganish bo'yicha bundan keyin olib boriladigan ilmiy izlanishlarda manba vazifasini o'tashi, shuningdek, madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish sohasida o'qiyotgan talabalar uchun o'zlarining madaniyat borasidagi bilimni yanada oshirishlari uchun nazariy-amaliy qo'llanma vazifasini o'tashi ko'zda tutilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Sharq hordiq madaniyatining o'ziga xosligining madaniyat va san'at rivojiga ta'siri etish mexanizmlarini aniqlash, g'arbdan kirib kelayotgan ayrim qo'shtirnoq ichidagi madaniyatlardan yoshlarni himoya qilish uchun ularning bo'sh vaqtlarini foydali mashg'ulotlar bilan samarali tashkil etishda ko'rinadi. Shuningdek ilmiy to'plamlarda, ilmiy maqolalar chop ettirishga erishildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi: kirish, asosiy qism (3-bob va 6 punkt), xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. SHARQ VA G'ARBDA HORDIQ MADANIYATINING SHAKLLANISH TARIXI

1.1. Sharq hordiq madaniyatining shakllanishi va uning mazmun mohiyati

Insoniyat borki o'zini anglay boshlagani sari yetuklikga va madaniyatga intila boshlaydi. Bu esa o'z-o'zidan kishilarning madaniylashishiga va jamoada o'zini tutishga va turmush-tarzini yaxshilashga harakat qilishdan boshlanadi. Madaniyat so'zining asl lug'aviy ma'nosi qanday va u nima ma'noni anglatadi? Degan savol tug'ilishi tabiiy albatta. Madaniyat atamasiga turli kitoblarda turlicha izohlar berilganligining guvohi bo'ldik va eng ko'p takrorlanadigan asl mohiyatini anglatadigan izohni qisman bo'lsada yoritib o'tishga harakat qildik.

Madaniyat ("*cultura*") atamasidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi, mumtoz lotin tilida madaniyat yerga parvarish qilish, ishlov berish ma'nosida ishlatilib kelingan. Shuningdek, miloddan avvalgi 45-yili Rim notig'i, mashhur faylasuf Ssiserin madaniyat atamasini aqlga ishlov berish ma'nosida ishlatgan¹. Uning fikricha, dehqon yerga ishlov bergani kabi inson ham so'z, aqliga ishlov berib turishi zarur.

Keyinchalik madaniyat tushunchasi bilimdon, ma'rifatli, yuksak tarbiyali insonlarni ta'riflashda ham ishlatila boshlandi. Madaniyatning yuksalish mezonlari xilma-xil bo'lib, quydagilarni o'z ichiga oladi: jamiyat taraqqiyotida yaratilgan ma'naviy qadriyatlar ko'lami va soni, ularning tarqatilish darajasi, insonlar tomonidan o'zlashtirilishi; ma'naviy madaniyatni barcha turlarining bir tekis taraqqiy etishi; madaniy qadriyatlardan bahramand bo'lishda barcha kishilarning ishtirok etishi; madaniyat mahsulotlarini yaratishda aholining barcha qatlamlari keng va ongli ravshda ishtirok etishi; kishilarning madaniy yuksalishiga o'z hissalarini qo'shishlari uchun jamiyatda barcha imkoniyatlarning mavjudligi.

¹ Falsafa qisqacha izohli lug'at. -T.: "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2004 yil. –B. 193.

O‘zbek xalqi jahon madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan o‘zining ko‘p asrlik boy va rang-barang madaniyatiga ega. Mustaqilligimizning dastlabki kunlardan oq, ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma‘naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu bois aholiga madaniyatini yuksaltirish va ularning ko‘ngilli dam olishlari uchun shart-sharoitlar yaratildi. Biz o‘rganayotgan muammo Sharq va G‘arb hordiq madaniyati tahlili bo‘lganligi bois, madaniyatlarning o‘zaro uyg‘unligi va bir biriga o‘xshash va bir biriga aslo o‘xshamaydigan jihatlarini ochib berishga harakat qilamiz. Quyida ko‘rib chiqadigan masalamiz sharq hordiq madaniyati tarixiga nazar solishdan oldin Sharq so‘zining lug‘aviy ma‘nosini e‘tiboringizga havola etmoqchimiz. Sharq nuqtasi - ufq (dunyo tomonlari)ning to‘rt asosiy nuqtasidan biri, shimolga qarab turgan kuzatuvchining o‘ng tomonida. O‘zbek tilidagi xaritalarda Sharq, nemischa. O (Ost) yoki inglizcha. E (East) harfi bilan belgilanadi. Tengkunlik paytida Quyosh Sharq nuqtasiga yaqin yerdan chiqadi. Osmon sferasida Sharq nuqtasi haqiqiy ufq (gorizont) bilan osmon ekvatori kesishadigan ikkita nuqtaning biridir¹, deb ta‘rif keltirilgan.

Sharqdagi tomosha turlari va aholi dam olishi va mazmunli hordiq chiqarishlari uchun xizmat qilganlar. Sharqda aholining hordiq chiqarishi uchun uyishtirilgan tomoshalar g‘arb tomoshalaridan butunlay farq qiladi masalan bularda sahnalar - ulug‘vor g‘oyalar, teran falsafiy tomoshalar, hazil - mutoyiba va zavq-shavqni, umumxalq dardining minbari bo‘lib qoldi.

Uyg‘onish davri tomoshalarining bosh qahramoni kamoli yetukligi, o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi shaxs edi. Bunday qahramon har qanday to‘siq va kurashda o‘z ezgu niyatiga bo‘lgan ishonchni yo‘qotmaydi. Bu davr ijodkorlari - ishonchi bor shaxsning kuch-qudrati jamiyat to‘siqlarini yengishga qodir, degan g‘oyani olg‘a surdilar. Ular ijodi hayotbaxshligi bilan qadrli va ulug‘ edi. Bunday g‘oyani ilgari surgan ulug‘lar o‘zlarini insoniyat uchun abadul-abad daxldor idealga murojat qilayotganligini bila turib ijod qilganlar deyish mumkin.

¹ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. - T.: “O‘zbekiston” 10 tom 2002 yil.

Insonni ulug‘lashga bag‘ishlangan Italiya teatri tragediyalari, ayniqsa, komediyalari ilk bor butun Yevropaga namuna bo‘ldi. “Sandiq haqida komediya” nomli intermediyalarga boy tomoshada ishtirok etadigan xizmatkorlar - uch quvnoq yigit, tanafus vaqtida ham sahnani tark etmay ichak uzdi hangomalar aytishgan.

Qadimgi yunon va grek komediyalaridan namunalar olinib Italiya hayotiga moslashtirib qayta yozilish natijasida “G‘alabalar”, “Afsungarlar”, “Qo‘shmachilar” nomli xalqchil tomoshalar yaratildi bu esa xalqning ishdan bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga va kulgili tomoshalar bilan ko‘nglini yozishga hamda charchog‘ini quvushga harakatlar hisoblangan.

Saroy tomoshalari maxsus tayyorgarlik, bezak, jihozlar talab qilgan bo‘lsa, komediyalar bog‘larda, maydonlarda maxsus jihozlangan sahnalarda, ochiq havoda namoyish qilingan. Ayniqsa, bu borada “Komediya del arte” - italiyan “professional komediya teatri” namuna bo‘ldi. Professional aktyorlar badixago‘ylikka - improvizatsiyaga moyil ijodkorlarni to‘plab ijodiy guruhlar tuza boshladilar. Bu tashabbus tomosha san'ati orqali xalqning hordiq madaniyatidagi kichik ko‘rinshilarni yangi rivoj bosqichga olib chiqdi. Tashabbuskor aktyorlar o‘z guruhlari tomoshalarini ochiq sahnada - dekoratsiya, tyuk va effektlarsiz, parda va jihozlarsiz namoyish qilishganda, ular tomosha ko‘rsatish jarayonida yangi - yangi ifoda vositalarini yarata boshladilar. Xalq sevib qolgan so‘zamol - xushchaqchaq xizmatkor yigitlar ishtirok etgan tomoshalar tobora ko‘proq muxlis yig‘a boshladi. Ispaniyada - Lope de Vega, Angliyada - Shekspir insonni ulug‘lash bo‘yicha namunaviy ijod qildilar. Uyg‘onish davri g‘oyalarini bu ulug‘lar cho‘qqiga ko‘tardilar. Bular Aristotel ochgan ijod qonunlariga amal qilib, ustozni avvalni ulug‘lab, o‘zlari esa buyuklik darajasiga ko‘tarilib, keyingi avlodga ustozni mutloq bo‘lib qoldilar.

Simvolizm real borliqni aql - idrok bilan tushuntirishni osonlashtirish uchun - ishora, ramz, belgi, sha'malardan ijodkorlar unimli foydalanishi lozimligini ta'kidlaydi. Insonning ruhiy olamidagi va borliqdagi pinxoniy sirlarni ifodalashda bu uslub qulayligini ta'kidlab, uni nazariy asosini yaratishga harakat qildilar.

Ayniqsa, rivojlanish natijasida ma'naviyatsizlikka mukkasidan ketayotgan insoniyatni qutqarish uchun bu uslub qo'1 kelishini dramaturgiya orqali yorita boshladilar. Meter boshlab bergan bu yo'lni Ibsen, Shou, Gaupman singari tajribali dramaturglar shoirona va obrazli tasvirlarda yorqin ifodalab, bu yo'nalishdan unumli foydalandilar. Bunday obrazli ramzlar - simvollar teatr san'atida rejissyorlarning professional darajaga chiqishiga turtki bo'ldi. Endi dramaturg g'oyasini ochish uchun, dekoratsiyalardagi ramziy ifoda va yechimlarni topish, bu ramzlarni musiqada ifodalash, aktyorning gavdasida namoyon qilish va badiiy yaxlit tomosha yaratish lozim edi. Bu talablar shularni yechimini topish bilan muxum shug'ullanadigan - professeonal rejissyorlar avlodini yaratdi.

Tomosha san'atining bilimdonlari o'z iqtidorlari bilan davr dardini ifodalaydigan va uni achchiq kulgi tig'i bilan davolaydigan - shaklan ommaviy, mazmunan xalqchil bo'lgan "ko'ngil ochar" tadbirlar yarata boshladilar. Ular yirik shaharlarning markaziy ko'chalariga joylashgan kafe, restoran, muzkaxonalarda charchoq chiqaradigan, ko'ngil ochadigan, zeriktirmaydigan tomoshalar tashkil qilishdi. Realizm o'z navbatida qahramonlar ruhiyatini ochishda yangi yo'l-yuriqlar yaratdi. U o'z qarashlarini inson ruhi - uning ma'naviy olami, axloqiy darajasi va ijtimoiy muammolarini ochiq munosabatlar bilan bog'lab ifodalay oldi.

Norveg dramaturgi Ibsen - inson ko'ngilining chuqur qatlariga tubiga yashiringan nozik his - tuyg'ularini, orzularini, falsafiy qarashlarini dramaturgiyaga olib kirdi. Endi chuqur kechinmalar yoqtiradigan yoki "ko'ngil ochar tadbirlarni xush ko'radigan mijoz" tushunchasi - tomoshabin degan yuksak atamaga raqobatdosh bo'lib qoldi.

Musiqqa ijrosi - kichik tomosha shakli

Xalq o'zi ijod qilgan sho'x va o'ynoqi, umidbaxsh kuylar bilan bir qatorda, mehnatkash ommaning og'ir hayotini, ohu - zorini, hukmron sinflarga qarshi qahrg'azabini, ularning orzu-havaslarini aks ettiradigan kuy va ashulalar ham yaratgan edi. Lekin, shu yillar orasida yig'loqi va o'kinchli kuy va ashulalarning ko'payib ketishi zulmni tobora oshib borayotganidan darak berardi.

Shashmaqom bastakorlari asosan xalq ichidan chiqqan san'atkorlar edi. Shashmaqom xalq muzikasi asosida yaratilar, takomillashtirilar, uning ashula bo'limi tekstlariga demokrat shoirlarning she'rlari tanlab olinardi. Shuning uchun ham o'zbek professional muzikasi asosan xalq g'oyalarini ifodalab, o'z navbatida xalq muzika madaniyati taraqqiyotiga ham barakali ta'sir ko'rsatdi.

Ayrim chog'larda yirik san'atkorlar - muzika namoyandalari majburiy ravishda saroyga jalb qilinlar, bunday hollarda ular erkin ijod qilish huquqidan muzika yaratish va uni takomillashtirishdan mahrum bo'lib qolar edilar.

Shuning uchun ham muzikaga munosabat va ishtiyoq turlicha bo'lgan. Hukmron sinflar muzikadan ayshishrat - ermak izlagan. Boylar taniqli san'atkorni uyiga chaqirib o'z shon-shuhratlarini oshirishni o'ylagan. Mehnatkash xalq esa - o'z hasrat, g'am-g'ussalarini muzika va qo'shiqqa ifodalagan. Ijodkorlar esa o'z arz-dodlarini bayon etish va orzu-havaslariga qanoat berish uchun muzikaga murojaat etgan.

XVIII-XIX asrlar mobaynida kichik shakldagi tomosha turlari, qo'shiq, muzikasi va raqs san'ati hamma xonliklarda o'ziga xos uslublarda shakllandi. Bunga o'zbek ellatining mahalliy an'analari, turmush kechirishi, mehnat va jug'rofiy sharoitlari, har bir xonlikning o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayoti va uning tarixiy rivoji asos bo'lgan. Natijada, har bir xonlikda asrlar davomida bir-biridan mazmundor, bir-biridan jozibador, bir-birini to'ldiruvchi va boyituvchi, ammo ayrim belgi va xususiyatlari, o'z shirasi, stil va badiiy formalari, o'sish yo'llari bilan ajralib turuvchi Farg'ona, Buxoro, Xorazm, Samarqand muzikalari, xoreografiyasi, an'anaviy teatrlari maydonga keldi. Shuning uchun ham, XVIII va XIX asrda, har bir xonlikdagi tomosha turlarini, san'atkorlar hayotini alohida-alohida tahlil qilishni taqozo qiladi. Shu muzikalar orqali aholining hordiq chiqarishiga xizmat qilganlar. Shunday tomosha turlaridan yana biri bu teatr hisoblanadi.

VII asrdan boshlab musulmon diniy ideologiyasi - shariatning qonun-qoida va tartiblariga ko'ra kulgi, xursandchilik kayfiyati gunoh hisoblanib, inson ruhiy dunyosiga putur yetkazuvchi pinxoniy, shaytoniy kuch sifatida qaralib, jamiyatdan

quvib chiqarila boshlagan edi. Kulgiga, xursandchilikka, teatrga, tomoshalarga, bayramlarga, bazm va sayllarga qarshi kurashlarning zamiri insonni mute - xo'p deydigan qilib tarbiya siyosatidan kelib chiqar edi. Shuning oqibatida butun o'rta asr davrida hukmron mafkura va xalq o'rtasida keskin kurash davom etdi. Chunki, bu davr tomoshalari - sinkretik, ya'ni san'at turlarini bir tomoshaga sig'dirgan harakterga ega edi. Insonning kulgiga, xursandchilikka, tomoshaga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqini hech qanday diniy, ruhiy qonun va kuch so'ndira olmadi.

Shuning uchun ham rasmiy ma'muriy doiralar va xalq tomonidan yilning turli fasl va mavsumlarida o'tkaziladigan sayl va tomoshalarga, ularning o'yin, kulgi va xursandchiliklariga asta-sekin ruhsat bera boshladi. Bunday sayl va tomoshalarda sozandalar, raqqoslar, aktyorlar, xalq ijodining turli shakllari qatnashdi. XVIII-XIX asrlarda xalq sayllarining soni ancha ortdi. Bu davrda yirik shaharlarning qaryib hammasida «kasabai sozanda» yoki «mextarlik» kasabai va uyushma «sex»lar mavjud edi. Chunonchi, o'tgan asrning yetmishinchi yillarida Qo'qonda bo'lgan chex folkloristi A. F. Eyxgorn - "XIX asrda bu shaharda 4 ta «kasabai sozanda» uyushmasi bo'lib, ularda juda ko'p mashshoqlar, hofizlar, aktyorlar, raqqoslar to'planganini, ular shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib qo'shni davlatlarga ham chiqar edilar"¹ deb yozgan edi.

Qadimgi an'anaviy teatr tushunchasiga - turli sayllar, tomoshalar, marosim va bazmlar, ularda ko'rsatiladigan turli o'yinlar: aktyorlar, sozanda, hofiz, raqqosalarning san'atlari, qo'g'irchoq, sirk o'yinlari va hokazolar kiradi. Chunki qadimiy teatr sinkritik tomoshalar namoyish qilgan.

Turkiston xonliklarining har bir shaharida o'ziga xos saylgoh, tomoshagoh joylari bo'lgan. Chunonchi, Qo'qonning «Katta chorsu»si shaharning markaziy saylgoh joyi hisoblangan. Sathi uch ming kvadrat metrdan ziyod bu keng maydonga o'n-o'n besh ming tomoshabin jo bo'lgan. Shaharning yirik ko'chalari, bozor va rastalarining hammasi shu chorsuga kelib tutashgan. Chorsuning shimol tomonida shahar begining mahkamasi, g'arb tomonida esa madrasa bo'lib, uning quyi tomoniga keng choyxona va turli savdo do'konlari joylashgan edi.

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: "Yangi asr avlodi" 2009 yil. –B. 169.

Chorsuning sharqida ham butun maydonga choʻzilib ketgan katta choyxona boʻlgan.

Choyxonalarda katta qandillar yonib turar, ular shaharga qandaydir fayz bagʻishlardir. Choyxonalarda joylashgan sozandalarning mashqi, tarafma-taraf ashula aytayotgan hofizlarning yoqimli va oʻtkir ovozlari, xalqning zavqli qichqiriqlari bilan qoʻshilib ketar, askiya navbatida qahqahalar hammayoqni tutardi.

Goho-goho bozor maydonining yoki chorsuning bir chekkasida, qoʻqqisdan xalqning baland kulgisi va hayqiriqlari eshitilib qolardi. Demak, u yerda aktyorlar oʻzlarining qiziq oʻyinlari bilan hammani kuldirmoqda yoki qoʻgʻirchoqboz, raqqos va yoki muallaqchi oʻz hunari bilan tomoshabinning olqishiga sazovor boʻlmoqda. Bozor maydonlari, chorsu va rastalarda tez-tez qalandarlar, maddohlar paydo boʻlganlar. Ularning orasida oʻnlab xushovozli xofizlarni, soʻz ustalari va zokirlarni uchratmoq mumkin. Ammo bu toifa «san'atkor» xalqni xursand qilish yoki kuldirish uchun xonish qilishmasdi. Aksincha, ular aytadigan kuylar yoki oʻqiydigan she'rlar diniy ruhda boʻlib, odamni bu dunyo rohatlaridan voz kechishga va oxiratni oʻylashga chaqiradigan pand-nasihatlardan iborat boʻlganlar.

Kechasi tomoshalar «Katta chorsu» maydoniga koʻchardi. Chorsu xaloyiq bilan toʻlib-toshardi. Maydonning bir chekkasida, bordon bilan oʻralgan bir kichik xona paydo boʻlardir. Bu aktyorlarning kiyim-kechak kiyib, grim qiladigan joylari. Sozanda va ashulachi hofizlar, raqqoslar chorsuning har ikki tomonidagi choyxonalarga boʻlinib oʻtirardilar. Tomosha sozandalarning mashqi bilan boshlanardi, oʻyinni korfarmon boshqarardi. Davraga hofizlar chiqardilar, soʻngra bir nafas askiya ketardi. Shundan soʻng raqqoslarga navbat keladi, oxirida bir necha qoʻgʻirchoq yoki an'anaviy teatr tomoshalari koʻrsatiladi va aholining hordiq chiqarishiga unumli hissa qoʻshilgan.

Bunday sayllar Qoʻqonda goho xonning farmoni bilan Oʻrda atrofida ham tashkil qilinardi. Oʻrdaning gʻarb tomonida shunday katta tomosha maydoni bor edi. Maydon atrofida yuzlab chodirlar qad koʻtarar, maydonga minglab fonarlar osilib bezatilar, oʻrtada karusel aylanib turardi. Bu orkestr uchun tayyorlangan

maxsus joy - estrada deyilgan. Bunday tomosha - spektakllarga eng malakali san'atkorlar, aktyorlar, sozandalar, raqqoslar, hofizlar jalb qilinlar, o'yinlar maxsus belgilangan tartibot bo'yicha olib borilar, bunday sayllar hatto besh-olti kunga ham cho'zilib ketganlar.

Bundan tashqari Qo'qon atroflarida «Yangi chorsu», «Muyimarak», «Qaynar buloq», «Ovg'on bog'«, «Erxub-bi», «Qorayuz buvo», «Xo'jaytirab» kabi turli saylgoh va qadamjolar bo'lib, ularda ham turli mavsumlarda xalq sayli va tomoshalari o'tkazilardi¹ deb takidlaydi M. Umarov.

Og'ir mehnatdan tinkasi qurigan mehnatkash omma tomosha maydonlariga to'planib, san'atkorlar hadya etayotgan xursandlikdan bahramand bo'lishga, kulishga, madaniy hordiq olishga, charchoq chiqarishga, yuraklarini bir oz bo'lsa ham yumshatishga imkon qidirganlar. Xalq ruhiyatini o'zida aks ettirgan san'atkorlarning ijodiy faoliyatlari kuchayib, repertuaridagi mavzu doirasi kengayar, fosh qiluvchilik motivlari o'tkirlashar, mazmuniga mazmun qo'shilar edi. Mehnatkash xalq sayl va tomoshalarda ijro etiladigan muzika sadolarida, hofizlarning bu alamli dunyodan faryod chekkan ashulalarida o'z his-tuyg'ularini tasavvur qilar, natijada xalqning yuragi san'atkor bilan qo'shilib ketar, aktyorlarning haqiqiy hayotini bamisoli oyna kabi aks ettiruvchi spektakllarida o'zlarini ezayotgan va xo'rlayotgan shaxslarni keskin masxara qilinishini ko'rib, chin qalbdan qahqaha otib kulib charchoq chiqarganlar.

Ikkinchidan, hukmron mafkura bunday sayl va tomoshalarga ruxsat berganlarida o'z maqsadlarini ham ko'zda tutar edi. Ular xalq qo'zg'olonlaridan nihoyat qo'rqar, shuning orqasida turli sayl va tomoshalarni kuchaytirib, xalqni «yomon niyatdan» qaytarib ushlab turishga, hatto xalq tashkil qilgan sayl va tomoshalarni o'zlari tashkil qilgan «tashabbuskor»lar qilib ko'rsatishga urinar edilar. Natijada xonliklarning poytaxtlarida o'tadigan sayllar ancha tashkiliy tus ola boshlaydi. Bu o'z navbatida teatr hayotining jonlanishiga olib keldi. O'zbek xalqi va uning teatr namoyondalari, qadimgi tomosha an'alarini eng

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: “Yangi asr avlodi” 2009 yil. –B. 171.

qimmatlilarini oltin qidiruvchilar singari topib, tanlab, pardoqlab asrlar osha ko'z qorachig'iday saqlab avloddan avlodga tashib keldilar.

XVIII va XIX asrda Turkiston xonliklaridagi an'anaviy teatr hayotini tasvirlab beradigan sonsiz-sanoqsiz manbalarga egamiz. Chunonchi, 1800 yilda rus elchilaridan Pospelov va Burnashevlar Qo'qonda o'tgan bir saylda ko'rgan aktyor o'yinlari ularda katta taassurot qoldirganini yozadilar. 1813-1814 yillarda Turkistonga kelgan alohida Sibir korpusining tarjimoni Filipp Nazarov Toshkentliklar san'atni nihoyat sevadi, ko'cha maydonlarida, bog'larda aktyorlar, muzikachi va raqqoslar muttasil tomosha ko'rsatadilar, - deb yozadi. F. Nazarov Qo'qonda bo'lgan bir saylda ham qatnashgan. U Qo'qon san'atkorlariga katta baho berib ijrochilik va mahoratda ular Toshkent aktyorlaridan yuqori turganlarini va Qo'qon san'atkorlari bu to'g'rida o'zlarini mag'rur his etganlarini alohida ko'rsatib o'tadi¹.

Qo'qonda xonlik qilgan Muhammad Umarxon o'zi (1809-1822) shoir va san'atkor bo'lganidan poytaxtiga Turkistonning turli shaharlaridan shoirlar, sozandalar, raqqoslar va aktyorlar to'plashga urinadi. Chunonchi u Xivadan mashhur sozanda va bastakor Xudoyberdi ustozni oldirib keladi. Bu kishi asli qashqarlik bo'lib, Qo'qonda o'z maktabini tashkil qildi; uning atrofiga talantli shogirdlar to'plandi. Bu davrda Qo'qonda doimiy truppa ham tashkil topdi. Uning rahbari Muhammad Solih Bidiyorshum bo'lib, truppa tez-tez saroyga ham taklif qilinib turilardi. Shunday qilib, bu davrda shahar madaniy hayoti juda tez o'sdi.

Umarxon davrida saroyda yoki saroy oldidagi maydonlarda, shuningdek shahar atrofidagi saylgohlarda sayllar tashkil qilinardi, ularda o'zbek aktyorlari o'zlarining boy repertuari bilan chiqar edilar. Yuzlab san'atkorlar qatnashadigan tomoshalar Bidiyorshum rahbarligida, u chizib bergan qat'iy plan asosida olib borilgan.

V. Nalivkinning yozishicha, 1821 yilda Umarxonning Zomin maxorabasidan g'alaba bilan qaytganida saroyda va saroy atroflaridagi maydonlarda uzluksiz

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: “Yangi asr avlodi” 2009 yil. –B. 186.

tomoshalar davom etgan¹. Dev qiyofasida o'ynaladigan o'yin, raqqoslar maydondan maydonga o'tar, ayrim chog'larda esa ularni she'r o'quvchi so'z ustalari, shoir va hofizlar, aktyorlarning spektakllari almashtirib turgan.

XVIII asr davomida va XIX asr boshida Qo'qonda ko'p sonli malakali san'atkorlarning to'planib borishi obyektiv ravishda bu yerda an'anaviy teatr hayotining juda tez jonlanishiga olib kelgan bo'lsa kerak.

1830 yilda Qo'qon elchilarini kuzatib kelgan Xorunjev Toshkentdagi sayl va tomoshalar to'g'risida ham ma'lumotlar beradi. Uning yozishicha, Toshkent shahri atrofida bir balandlik maydon bo'lgan. Bu yerga chodirlar o'rnatilib har yili xalq sayli o'tkazilar, sayl bir hafta davom etib, unda uzluksiz muzika, raqs, ashulalar, sirk va sport o'yinlari, an'anaviy tomoshalar o'ynalar ekan.

Qo'qon xonligida Muhammadalixon yoki Madalixon(1822-1842) zamonida ham teatr hayoti bir daraja rivoj topdi. Endi saroyda va shahar atrofidagi maydonlarda har juma kuni tomoshalar qo'yish odat tusiga kirib borgan. Madalixon ham Umarxon singari Turkistonning boshqa xonliklaridan shoirlar, sozandalar, raqqoslar, aktyorlar keltirib Qo'qon san'atchilarining sonini orttira bordi. Chunonchi, Madalixon Xudoyberdi ustozning tavsiyasi bilan Xivaning mashhur sozanda va bastakorlaridan Solihbek va Mo'minbeklarni Qo'qonga oldirib keldi. Bu davrda Xudoyberdi ustoz tarbiyasini topgan Qo'qon sozandalaridan Ashurali mahramning Qo'qon xonligida donggi chiqdi. Bundan tashqari XIX asrning, birinchi yarmida Qo'qon poytaxtida Rustam hofiz, Boymat hofiz, Saidali hofiz, Abdurahmon pari, Muhammad mehtar kabi muzika san'atining namoyandalari ijod qilardilar. XIX asr oxirida samarqandlik mashhur hofiz hoji Abdul Aziz va xo'jandlik hofiz Sadirxonlar mana shu Ashurali mahram tarbiyasidan bahramand bo'lganlar².

Mavlono Nodirning «Haft gulshan» asarida ko'rsatilishicha, bu davrda Nodira begim atrofida juda ko'p so'z ustalari, shoir va shoiralar, sozanda va raqqosalar,

¹ [http:// www.ziyoNet.uz](http://www.ziyoNet.uz) O'zbekiston ta'lim portali.

² Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: “Yangi asr avlodi” 2009 yil. –B. 188.

ayol aktyorlar to'planganini va o'sha davrda Qo'qon saroyida bir san'atkor qizning muzika va ashula san'atida nihoyat katta mahoratga erishganini ta'riflab o'tadi.

Qo'qon tarixchilaridan Mullo Qosim hojining 1840 yilda Madalixon davrida, saroyda Bidiyorshum truppasi tomonidan o'ynalgan «Mudarris» spektakli tafsiloti to'g'risida yozib qoldirgan. Shunday qilib, bu davrda saroy qoshida ko'p kishilik xalq cholg'u asboblari to'dasi (bunga harbiy orkestr kirmaydi), ko'p kishilik raqs ansambli hamda aktyorlar truppasi barpo topdi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki teatr kabi tomoshabin yig'adigan tomoshagoxlar paydo bo'la boshlagan. "Kichik shaklda"gi tomoshalar majmuasi "konsert"- deb ataldi. Konsert - lotinchada "kurashyapman", "aytishayapman" ma'nosini anglatadi. Dramatik teatr opera yoki balet teatri guruhlarining aktyorlari birgalikda ansambil bo'lib o'z spektaklini yaratadi. Ular tomoshabin qalbini badiiy yaxlit "katta shakldagi" tomosha bilan zabt etadi. Asar g'oyasini ochish uchun aktyorlar iqtidoriga qo'shimcha rejissura, sahna xizmatchilari, grim va sahna jihozlari bilan birgalikda yaratilgan atmosfera - muhit ham xizmat qiladi.

Konsertda esa bir aktyor "kichik shaklda" gi tomosha - qo'shiq, raqs, she'r, monolog, yoki sirk nomeri bilan tomoshabin qalbini zabt etadi. Sahnada yolg'iz turish va o'zi o'ylagan rejasini badiiy shakldagi nomer orqali minglab odamlarning qalbiga singdirish qudrati faqat estrda aktyoriga nasib qila boshladi.

Shunday qilib oldindan rejalashtirilgan bir necha yakka chiqishlar to'plami - "konsert" deb nomlana boshlandi. Chunki, tomoshabinni oldiga yakka chiqib keladigan har bir artist, endi o'z nomeri bilan o'zidan oldin sahnaga chiqqan ijrochi uchun chapak chalgan tomoshabin e'tiborini qozonish uchun "kurashadi". Bu kurash - tomoshabinlarda "endi sizlarni yana nima bilan xayratga solaylik" degan izlashni - katta qiziqish uyg'otdi. Bu izlanish xashamatli teatr binolari va uning badiiy yaxlit tomoshalari bilan raqobatdosh bo'la oladigan konsert zallari va uning "kichik shakldagi" tomoshalar to'plami - konsertni paydo qiladi.

Zerikkanlar va charchaganlar uchun bu "kichik shakl"dagi tomoshalar to'plami ham ma'qul bo'ldi. Endi bu yo'nalish faqat bayramlar va sayllarda namoyon qilinadigan kichik shakldagi tomoshalar, sahna san'ati turlari orasida

“estrada san'ati” maqomini oldi. Chunki, teatr san'ati - she'riyat, qo'shiq, raqs, musiqa va sirk nomerlari kabi mustaqil tomosha turlaridan faqat spektakl g'oyasini ochish uchungina foydalanar edi. Shuning uchun teatr o'z aktyoridan seqirra ijodkorlikni - qo'shiq aytish va raqsga tushush mahoratini ham talab qilgan.

Estrada san'ati esa - har bir tomosha turini sof xolda, yuqori saviyada, o'z yo'nalishining eng mohir ustalari ijrosida, san'at darajasi ko'rsatdi va ularni bir konsertda jamlay oldi. Konsert yana huddi shuning aksi bo'lgan - she'riyat, qo'shiq, musiqa, raqs va sirk tomoshalarida “yulduzlikka davogar”larning zaif tomonlarini ochadigan - parodiyalar ham ko'rsata oldi. Shuningdek ular omuxtasidan - aralashib ketishidan paydo bo'lgan orginal - yangi va takrorlanmas tomoshalarni ham faqat konsert jarayoni ko'rsata oldi. Uning aksi bo'lgan - “orginalikka davogar” lar ustidan kula olishi bilan ham konsert o'zining keng - qamrovligini namoyon qildi. Tomosha turlari to'plamini namoyish qiladigan konsertlar - yakka ijrochilar hamda nomerlar ko'rsatdi mardu-maydoni, ya'ni “estrada san'ati” bo'lib insonlarning hordiq chiqarishiga va o'z muxlislariga xizmat qila boshladi.

XVIII asrga kelib konsertlarga bilet sotila boshladi. Konsertda avvalo musiqa ijrochilari: skripka, fortepiano, kamerniy orkestr - kichik shakldagi ijrochilar guruhi va simfonik orkestr - katta shakldagi ijrochilar guruhi muvafaqiyat qozondi. Keyinchalik badiiy o'qish, monologlar, baletdan yoki operadan parchalar va sirk nomerlari ham konsert ishtirokchilariga aylandi.

Shunday qilib, konsertlardagi “kichik shaklda”gi nomerlar bilan muxlislarni hayratga soladigan tomoshalar - estrada san'ati, ya'ni “kichik shakldagi san'at turi” deb e'tirof etila boshladi. Uning ishtirokchilari esa - estrada aktyori, ya'ni 5-10 minutlik nomer ko'rsatib olqish oladigan va o'z nomini tomoshabinlar eslab qolishiga erishadigan qobliyat egasi bo'lib hurmat qozondi. Maydon va bayramlarda, konsertlarda yakka tartibda tomosha ko'rsata oladigan serqirra ijodkor aktyorlar: Fransiyada - janglyorlar; Germaniyada - sipilmanlar; Rossiyada - skomoroxlar; O'rta Osiyoda - dorboz va masxarabozlar deb atalgan¹. Endi konsert

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: “Yangi asr avlodi” 2009 yil. –B. 207.

yoʻnalishidagi yopiq bino ichida namoyish qilinadigan tomosha turlari va uning evolyutsiyasiga bir nazar tashlaymiz.

Vodevil - koʻngil ochar tomosha

Vodevil - fransuzcha kulguli yengil qoʻshiq maʼnosini bildiradi. Vir va Normandiya daryolari oʻrtasidagi “Van de Vir” vodiysida tugʻulgan xalqning sevimli qoʻshiqchi shoiri O. Boslen ilk bor kulguli sheʼrlar yozgan. Uning sheʼrlari xalq orasida barcha kuylay oladigan yengil qoʻshiqlar boʻlib tarqalgan. Shunday qoʻshiqlarga qurilgan vodvel ishtirokchilari dialogi va anekdot - latifalar syujeti kulguli voqealarga boy boʻlgan. Uch burchak sevgi - ikki kishini bir qizga oshiq boʻlib qolishi yoki aksincha ikki qizni bir yigitni yaxshi koʻrib qolishi shoʻx qoʻshiqlarga, kulguli voqealarga oh-vohli “koʻz yoshlariga”, ochiq ehtiroslar izhoriga asos boʻlgan.

Xalq sayllarida sinovdan oʻtgan yengil qoʻshiqlar janri asosida Parijda, 1792 yili maxsus teatr ochildi va unga “Vodevil” deb nom berildi. Bu teatrni muxlislarini koʻpayishi navbatdagi “Trubadirlar teatri” vodvillar asosida qurilgan tomoshagohni paydo qildi. Navbatdagi siyosiy kulguli qoʻshiqlarga va shoʻx raqslarga boy vodevil teatri “Arlekin” - yaʼni afishalar kleylovchi nomi bilan mashhur boʻldi.

Vodevil janrini tez tarqalishiga va uni muhlislarini koʻpayishiga asos - sodir boʻlgan voqea yoki mish-mishlar darhol tomosha mavzusiga aylanishidir. Dramaturg uni 2-3 kunda yozsa, aktyorlar uni 2-3 kun ichida sahnaga olib chiqardi. Vodevilda yangragan shoʻx qoʻshiqlar tezda xalq orasida tarqalib, uni xirgoyi qilib yurishardi. Bunday qoʻshiqlar darhol konferanselar tomonidan ijro qilinishi tomoshabinlarga yoqqan. Bunday tezkorlik bilan teatr repertuarini yangilanib turishi esa hammaga maʼqul boʻlgan.

Vodevil janri - hozir javobligi, siyosatdagi oʻzgarishlarga shamasi quvnoq dialoglari, shoʻx qoʻshiqlari ehtirosli raqslari bilan teatr ijodkorlarini maftun qila olgani uchun XIX asrda butun Yevropa boʻylab keng tarqaldi.

Vodevil aktyorlarga oʻz mahoratini yorqin namoyon qilishga imkon berdi. Qoʻshiq aytib, raqsga tusha oladigan aktyorlardan yana humorni his qilish, yengil

harakatlar bilan o'z ehtirosini tabiiy namoyon qilish ham talab qilindi. Bunday talab bir qator komediya janrida ijod qila oladigan qobiliyatli aktyorlarni estrada konsertlarida elga tanitdi. Bu janr bir spektaklda o'z qiyofasini bir necha bor o'zgartira oladigan - darxol yangi qiyofa yaratishga qodir estrada aktyorlarni yaratdi. Xotinidan jazmani bilan yurishini yashirishga harakat qilgan erni darxol boshqa qiyofaga kirishi tomoshabinlarda samimiy kulgu uyg'otgan.

Noqulay sharoitga tushib qolgan er yoki xotin, undan chiqib ketish uchun tomoshabin bilan muloqatga kirishadigan daqiqalar vodevil janrini yanada xalqqa yaqinlashtirdi. Janrning bu talabi aktyorlarning badihago'ylik qobiliyatini rivojlantirdi. Tomoshabin bilan muloqatga kirishib, uni sharoit talab qilgan kulguli holatda "ushlab turishi" hamda voqea ishtirokchisiga aylantirish jarayoni aktyorlarining yangi ijodiy qirralarini - badihaga boyligini topqirlik mahoratini namoyon qilgan. Qo'shiq aytgan, raqsga tushgan, dialoglarni boplagan aktyor endi tomoshabinni ham spektakil ishtirokchisiga aylantira oldi.

1.2. G'arbda kichik shakldagi ommaviy tomoshalar hordiq chiqarishning bir turi sifatida

Qadimgi Rimdagi tomoshalarning paydo bo'lishi haqida yozgan Goratsiy hosil bayrami ishtirokchilari hazil - mutoibali qo'shiqlarni o'zlari to'qib ijro qilishgani haqida habar beradi. Kim yaxshi va serhazil qo'shiq to'qishi hamda aytishi mumkinligini aniqlanishi va ular orasidagi musobaqa shakli bayramni xushchaqchaqlik bilan o'tkazilishini ta'minlagan. Keyinchalik bayramlarda mavzuga mos ravishda to'qib ijro etiladigan hazil qo'shiqlarda ijtimoiy muhitga ham munosabat bildirilgan. Goratsiy ta'kidlashicha bunday qo'shiqlarda ba'zan zodogonlarni ham ayab o'tirishmagan. Ko'rib turganimizdek qo'shiq-kichik shakldagi tomosha qadimgi Rimliklarning eng yaqin hamrohi bo'lgan.

Rim tarixchisi Tit Liviy yozishicha, eramizdan avvalgi 364 yillarda etruslik aktyorlar fleyta ohanglariga mos gavda harakatlari bilan hammaga ma'qul bo'ladigan raqs - go'zal maqomlar qilishgan. Hayratlanarlisi shunda ediki, ular fleyta ohanglariga mos - so'z va qo'l harakatlari ishlatmasdan, faqat gavda harakati bilan hammani lol qoldirgan. Shunday qilib Rimliklarning o'ziga xos, raqsi barcha bayramlardagi kichik shaklga tomosha turiga, etruslik aktyorlarning gavda harakati bilan ifodalangan raqslariga taqlid qilgan Rim yoshlari fleyta ohanglariga raqs, diolog va qo'l harakatlarini qo'shishgan.

Takomillashgan bunday raqs ijrochilari - gistrion, etruschasiga "ister" aktyor nomini olgan. Endi ular darhol qo'shiq to'qib unga mos harakatlar topib musobaqada qatnashmaydilar. Aksincha, fleyta ohanglariga mos gavda harakati qo'shiq, raqs va qo'l harakatlari topilib, yaxshilab mashq qilingandan keyin sahnada ijro qilingan. Aktyorlar ijro qilgan qo'shiq ham o'z nomiga ega bo'lgan. Bu qo'shiq - saturalar deb nomlanib, u "aralash - quralash" ma'nosini bergan. Chunki, saturalar maishiy va ijtimoiy hazillarni o'z ichiga olgan musiqa, gavda harakati qo'shiq, raqs, mimika, jest va diologlardan iborat aralashma tomosha turi edi. Endi Rimliklar ancha takomillashgan kichik shakldagi tomosha turi - satiraga ega bo'ladilar.

Rimliklar yana bir tomosha turini - kichik shakldagi diologli hazil tomoshani attelan qabilasining to‘rt komik personaji maskasini qabul qildi. Ularning nomi - Makk, Bukkon, Papp va Dossenlar bo‘lib, badihago‘ylik - improvizatsiyaga qurilgan diologli sahnalarda ular - ochofat, mahmadona, xasis boy va firibgar faylasuf qiyofalarini yaratgan¹.

Makk - dovdir bo‘lib, hammadan aldanar va kaltak yer edi. U yeb to‘ymas - mechkay va shu bilan birga ko‘rganini sevib qoladigan oshiqu - beqaror edi. Unikal boshli, qirg‘iy burunli, shalpang quloqli niqob ko‘rsatishgan.

Bukkon - ikki lunji shishib chiqqan, lablari osilgan yigit. U o‘ta sergap va maxmadona bo‘lib, dovdir - Makk yonida o‘zini dono qilib ko‘rsatishga urinadigan shaxs niqob edi.

Papp - boy chol bo‘lib, u o‘ta ziqnaligi bilan hamda yoshlarni ishlariga bemavrid aralashishi bilan ajralib turgan. Yoshiga mos bo‘lmagan harakatlari kulgu qo‘zigan.

Dossen - omi kishilarga o‘zini dono ko‘rsatish uchun ma‘ni - bema‘ni pand - nasixatlar berib, faylasuflikka davogar bo‘lgan firibgar niqob edi. Uni ko‘pincha bukuri qilib ko‘rsatishgan.

Xalq ijodini va to‘rt personaj harakterini yaxshi bilgan Plavt bunday tomoshalarga asoslanib mohirlik bilan dastlabki Rim komediyalarni yoza boshladi va ularni ommani hordiq chiqarishi uchun sevimli tomoshasiga aylantirdi. Ular bayramlarning faol ishtirokchilariga aylandilar.

Eramizdan avvalgi III asr boshlarida Rimliklar janubiy Italiyadagi grek shaharlarini o‘zlariga bo‘ysindirgalaridan keyin Rimda juda ko‘p Greklar paydo bo‘ldi. Ular - qullar, savdogorlar, hunarmandlar, ish qidirib kelgan erkin kishilar edi. Greklar hukmron tabaqali Rimliklarga - grek tilini, adabiyotini fan va falsafsini o‘rgatdi, tushuntirdi hamda izohladi. Bu Rim madaniyatini tomosha san‘atini yangi pog‘onaga ko‘tardi.

Rimdagi ibodatxonalarni jihozlash uchun Grek arxitekturasi va xaykaltoroshligi joriy qilindi. Eramizdan avvalgi birinchi asrga kelib Rim shoiri

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: “Yangi asr avlodi” 2009 yil. –B. 51.

Goratsiy o'z she'rlarida, zabt etilgan Gretsiyaning san'ati, hunari ham bo'ysindirilgani haqida yoza boshladi. Mahalliy aholi san'at turlariga zabt etilgan elat madaniyatini aralashishi bayramlarni nishonlanishini ham yangi bosqichlarga olib chiqdi.

Rimliklarga xos shafqatsiz tomoshalar

Gladiatorlar jangi ampiteatrlarda va sirk binolarida o'tkazilardi. Bu shafqatsiz tomosha muhlislari ko'payishini nima bilan izohlash mumkin. Qorni to'q, tashvishi yo'q zodogonlar zerikkanidan shafqatsiz tomoshalar uyushtirardilar. O'rta Osiyo xalqlariga ma'lum bo'lgan - qo'chqor, it, xo'roz urishtirishni Rim zodogonlari odam urushtirish zerikkanlarni, qorni to'qlarni ermagi darajasidagi tomoshaga aylantirdi. Qizig'i shundaki bu tomoshani ko'rishni istaganlar o'z davrida bo'lgan mavjud teatrlarga sig'may qoldi.

Eramizning 75 yili Rimda gladiatorlar jangi uchun mo'ljallangan maxsus tomoshagoh qurila boshladi. U o'z bag'riga 50 ming tomoshabinni sig'dirishi kerak edi. U monumental arxitektura namunasi bo'lib, tomoshabinlar uchun barcha qulayliklarni yaratishni e'tiborga olgan edi. U 80 yili ishga tushirildi va "Kolizey" - "Eng katta" nomini oldi. Shafqatsizlarni zavq bilan ko'radigan 50 ming tomoshabin uchun endi Kolizey markaz bo'lib qoldi¹.

Eramizning II-V asrlarida Rim madaniyati nihoyatda rivojlangan. Butun imperiya bo'ylab keng miqyosda ibodatxonalar, ma'muriy binolar, sirk binolari, saylgohlar, maydonlar, kutubxonalar qurila boshlagan. Rim imperiyasi davrida aholisi soni bir milliondan oshadigan shaharlar paydo bo'ldi. Aholisi yarim milliondan oshadigan shaharlar ko'paydi. Imperiyaning teatr binolari qurilmagan shaharlari bo'lmagan. Bu Rimliklar tomoshaga naqadar o'chliklarini ko'rsatadi.

Endi o'sha davrda mashhur bo'lgan tomosha turlarini ko'rib chiqaylik. Rim imperiyasi bo'ylab ikki juft ot qo'shilgan aravalarda - "kvadriga" da poygalar uyushtirilgan. Bu Rimliklarning ochiq maydonlarda, bayramlarda o'tkaziladigan musobaqalari edi. Ular yana sirk binolari ichida yirtqich hayvonlarni urishtirib tomosha qilishni ham yoqtirgan. Ampiteatrlarda gladiatorlar jangini o'tkazilishi

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: "Yangi asr avlodi" 2009 yil. –B. 54.

ham rasm bo'lgan. O'limga hukm qilinganlarni qatl qilish jarayonini ampiteatr yoki sirk binolarida tomosha qilish ham shafqatsiz Rim imperiyasi udumlaridan biri edi. Ularning eng shafqatsiz tomoshasi o'limga hukm qilingan mahbusga yirtqich hayvonni qo'yib yuborish edi. U omon qolsa - tomoshabinlar oldida ozod qilingan.

Imperiyada shafqatsiz tomoshalarga qarama-qarshi bo'lgan yaxshi udumlar ham bor edi. Bular yangi qurilgan go'zal maydonlar, saylgohlar edi. Ayniqsa Rim shahri markazidagi maydon o'rtasida 27 metrli ustun o'rnatilishi, uning atrofi bo'rtma haykallar bilan bezatilishi, ustiga imperator haykalini o'rnatilishi va maydon atrofini kutubxona binosi bilan o'ralganligi maqtovga sazovor mantiqli uyg'unlik - yaratuvchanlik edi.

Keyingi maqtovga sazovor narsa, bir necha yuz gladiatorlar ishtirokida teatrlashgan janglar sahnalashtirilgani edi. Endi ular o'lmaydi, o'limni o'ynab beradi. Bunday ommaviy tomoshalarga Rimliklar qatnashgan urushlar va ularning g'alabalari mavzu bo'la boshladi.

Mim va pantomim teatrlari esa maxsus sahnalashtirilgan ov jarayonini ommaviy tomoshaga aylantira oldi. Ular ijrosidagi "aktyor hayvon" bilan aktyor ovchi o'rtasidagi kurash, ov jarayoni zavqli tomoshaga aylanishini sahnalashtiruvchilar yaxshi bilishgan.

Rim imperiyasi sirkklarida qo'l jangi navbatdagi tomosha turiga aylangan. Rimliklar bu tomoshani ham zavq bilan ko'rishgan. Ikki kishini mushtlashishidan tashqari shafqatsiz Rimliklar bu dargohda yana sovuq qurollar bilan qurollangan jangchilarning teatrlashgan to'qnashuvini ham tomosha mavzusiga aylantirgan. Teatrlashgan ommaviy qurolli janglarda tarixiy qurol - aslahalarni va undan jangchilar qanday foydalanganini namoyish qilish imkoniyati mavjud edi. Bunday tomosha turlarini faqat Rimliklarga xos udumlar deb alohida ta'kidlash mumkin

Ommaviy syujetli tomoshalar

Ampiteatrlarda va ba'zi maxsus jihozlangan teatrlarda dengiz janglari sahnalashtirilgan. Juda ko'p ishtirokchilar bilan ommaviy janglarni teatrlashtirilgan tomoshaga aylantirilishi, dramaturgiya asosida faoliyat ko'rsatadigan teatrlarni

insenerovka yoki ssenariylar sahnalashtiradigan hamda ommaviy tadbir o'tkazadigan tashkilotga aylantira boshladi. Teatrlarning aktyorlar mahorati bilan hayratlantirish, larzaga solish orqali - poklashga qaratilgan vazifasi, tashkilotchilar rejasiga binoan ommaviy tadbir o'tkazishdagi tashkilot darajasiga tushirildi.

Dengiz janglarini sahnalashtirish uchun teatlarga maxsus quvurlarda suv oqimi olib kelingan. Orxestrga suv to'ldirilgan. Tomoshabin va sahna tomonlarga suvni sizg'imasligi uchun maxsus moslamalar jihozlangan. Natijada, orxestrni va sahnani shakli o'zgargan. Sahnani 1,5 metr ko'tarilishi - suv to'lg'izilgan orxestrda dengiz jangini sahnalashtirishga qulaylik yaratgan. Tomosha tugagach orxestrda suvni maxsus jihozlar orqali teatrdan tashqariga chiqazish yo'li topilgan. IV-V asrlarga kelib, Rim imperiyasining ijtimoiy inqirozi boshlandi. Qullar qo'zg'oloni, bosib olingan yurtlarni mustaqillik uchun kurashi - teatrlarning, rivojlangan madaniyatiga navbatdagi inqirozini boshlab berdi. Germaniyaliklarning hujumi O'rta yer dengizi atrofida mustaxkam shakllangan quldorlik tuzumiga barham berdi. Insonlarni dunyoqarashi o'zgardi. Ijtimoiy inqiroz davrida ham tomoshalarga katta o'rin ajratildi. Masalan IV asrning o'rtalarida yil davomidagi tomoshalarga 175 kun ajratilgan. Ulardan 10 kuni gladiatorlar jangiga, 64 kuni sirk tomoshalariga, 101 kuni teatr tomoshalariga belgilangan. Nima uchun galdiatorlar va sirk tomoshalariga kam kunlar ajratilgan degan savol tug'ilishi mumkin. Demak, belit narxi qimmat tomoshalarga nisbatan kam kunlar ajratilgan. Ko'rinib turibdiki Italiyada ham teatr tomoshalari arzon bo'lgan. Eramizning IV asriga kelib Rimda xristian dini rasmiy tan olindi. Imperator Feodosil davrida (379 - 395 yillar) xristianlik davlat dini deb e'lon qilindi. Xrestian dini rasmiy tan olingandan boshlab: miflar va diniy mavzularga tayanib ijod qiladiganlar; diniy marosimlarni parodiya - masharanomus tomoshalarga aylantiradigan tomoshogohlar; pantomim va mimlar nazoratga olindi. Cherkovlar mimlar tomoshalarni to'xtatish uchun bir qator qarorlar chiqardilar. Imperiya xududida Teodaraxe hukmronligi paytida, 493-526 yillarda ham mimlar tomosha ko'rsatgan. Cherkovlar kurashiga qaramay 6-7 asrlarda ham nurayotgan Rim imperiyasining chekka o'lkalarida mim tomoshalari davom etgan. Diniy mavzularni ermak qilishni boshlagan mim tomoshalarini

taqiqlash kuchaydi. 691 yili Turul cherkovi mimni - gunoh tarqatuvchi tomosha deb rasmiy ta'qiqlanganligi haqida ma'lumot bor¹.

Qadimiy Rim Greklardan o'zlashtirgan madaniyat natijasida o'zi ham adabiyotda, dramaturgiyada, teatr san'atida falsafada, notiqlik san'atida namuna bo'ladigan asarlar yaratdi. Sahnada ommaviy syujetli janglar ko'rsatish qudratiga ega bo'ldi. Ommaviy tomoshalarni mafkuraviy ta'sir kuchidan unimli foydalandi.

O'rta asrlardagi Yevropada tomosha shakllari va kichik tomosha turlari evolyutsiyasi. Yevropaga tobora yoyilib borayotgan xrestianlik VII asrdan boshlab barcha tomosha turlarini o'z nazoratiga oldi. Shunga qaramay xalq bahor kelishini va kuzdagi hosil bayramlaridagi urf-odat, an'analarini, o'yin-kulgularini davom ettiraverdi. Odamlar ma'budlarga bo'lgan extiromlarini ommaviy sayllarda, bayramlarda raqs, qo'shiq va badixago'ylik musobaqalarida namoyon qildilar. Bunday tadibrlarda Yevropaning barcha mamlakat xalqlarini o'z ijodiy imkoniyatlarida hazil-mutoyibaga mayillik kuchli ekanini ko'rsatdilar.

O'yin kulgular cherkovlar ta'qib va taziylariga qaramay bayramlarda har bir millatning o'ziga xosligini ifodalardi. Masalan: Shveysariyada qishni - po'stin kiygan yigit, bahorni-ko'ylak kiygan qiz; Germaniyada bahor bayramiga bag'ishlab maxsus kiyimlar tikdirilgan va kiyim-kechaklar karnavali o'tkazilgan; Angiliyada bahor sharafiga va xalq qahramoni Robin Gud xotirasiga - ommaviy raqs va qo'shiq musobaqalari o'tkazilgan; Italiyada bahor bayrami bahona xalqning ijodiy kuch-qudratini namoyon qiladigan barcha tadbirlarga sharoit yaratib berilgan.

Qo'shiq, raqs va badiiy ijodning kichik shakldagi turlari qishloqdagilar uchun havas va ko'ngil ochish vositasi edi. Rivojlangan shaharlarda endi qo'shiq, aytish raqsga tushish, she'r yozib nashr qilish, dramalar yozish daromad manbaiga aylandi. Chunki, ular mehnatiga xaq belgilandi. Lekin tomoshaga xaq to'lash va ijodkorni ulug'lash qadimgi Rimda ham, o'rta asrdagi Yevropada ham qadimgi Gretsiya darajasiga ko'tarila olmadi. Endi o'rta asr ijodkorlari oldida hunarlari

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: “Yangi asr avlodi” 2009 yil. –B. 54.

uchun yuqori darajasida haq to‘lash belgilangan ijod yo‘nalishlarini - san'at darajasiga olib chiqish vazifasi turar edi.

Qishloqlardan shaharlarga pul ishlash uchun kelayotgan ijodkorlar kun ko‘rish uchun o‘zlarini serqirra badiiy imkoniyatlarini namoyon qilishga majbur edilar. Shuning uchun bu davrdagi tomosha turlari ijodkorlari serqqira ijodkorlar bo‘lib, ular - soz chalish, qo‘shiq aytish, raqsga tushish, badixago‘ylik va hikoya aytishni eplay olardi. Sharoit taqoza qilganda ular serqirra hunarini ko‘rsata olishi bilan birga yana qiziqchilik borasida ham ilg‘or bo‘lsa, u gistiron ya'ni professional qiziqchi deb yuritilgan. Bu talab o‘rta asr ijodkorlarini va tomosha san'atini yangi badiiy bosqichga olib chiqdi.

Serqirra ijodi bilan turli tomoshalar ko‘rsata olganlarni: Fransiyada - janglyorlar; Germaniyada - shpylmanlar; Polshada - frantalar; Bolgariyada - kukeralar; Rossiyada - skomoroxlar; O‘rta Osiyoda - masxarabozlar deb atashgan¹.

XII asrga kelib ijodkorlar soni ko‘payib ketdi. “Qashshoq ko‘paysa - mashshoq ko‘payadi”² deydi dono xalqimiz. Faylasuflar esa bu jarayonni - son o‘zgarishi sifat o‘zgarishiga olib keladi deyishadi. Shunday bo‘ldi, endi gistironlardan - har xil tomosha turlarini eplashi bilan birga ularni san'at darajasida bajara olishi inobatga olindi. Ijodkorga bunday munosabat tomosha turlarini tabaqalashuviga olib keldi.

Tomosha turlarini tabaqalashuvi endi - sozanda, raqs, qo‘shiq, masxarabozlik, qiziqchilik, sirk yo‘nalishlaridagi eng zo‘r nomerlarni bir joyga- konsertga jamlay boshladi. Bu, tomosha turlarini hunardan - san'at darajasiga ko‘tardi. Konsert - lotincha kurashish, aytishuv, ya'ni tomoshabin oldiga yakka turib tomoshabinni e'tiborini qozonish uchun kurashish ma'nosini bildiradi³. Sodda qilib aytganda konsertdagi boshqa ishtirokchilarga qaraganda ko‘proq chapak - fayz olish uchun kurashdir.

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: “Yangi asr avlodi” 2009 yil. –B. 56.

² To‘ra Mirzayev, Asqar Musaqllov, Bahodir Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari –T.: “Sharq” nashriyoti 2005 yil. –B. 94.

³ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. - T.: “O‘zbekiston” 2002 yil.

Tabaqalashish tomosha turlariga qarab: sirk san'ati yo'nalishidagi masxarabozlar - bufonlar; ertakchilar, qo'shiqchi va sozandalar – janglyorlar, she'r, ballada, raqs va qo'shiq to'qib ijro qiluvchilar - trubadurlarga ajradi. Qishloqlardan kelib shaharlarda ijod qilayotganlar, shu yerik hunarmandlarning isyonkor ruhini tez yuqtirib olardilar. Natijada, ularning ijodlarida ijtimoiy turmushga munosabat paydo bo'lardi. Bundaylar doim ruhoniylar va shahar hokimiyati tomonidan nazoratga olinardi. To'siqlar gistironlarni ijodiy uyushmalarga birlashtirdi. Uyushmalar ijodkorlarni o'z tabaqalariga qarab himoya qilardi. Kasbiga qarata himoyalash keyinchalik profsoyuz kasaba uyushmasi deb nomlandi. Shunday qilib kichik shakldagi tomoshalar ijrochilari serqirra ijodkordan - ya'ni hamma narsani eplashdan - bitta nomerni takrorlanmas darajada - san'atga aylantirish jarayonini boshidan kechirdi.

Mirakl - diniy mavzudagi tomoshalar.

Cherkovlar ommani din ta'siriga ko'proq tortish va nazorat qilish uchun tomoshalarni ibodatxona ichkarisiga oldilar natijada, faqat diniy mavzudagi tomoshalarga keng yo'l ochildi. Diniy aqidalarning xalqni qalbi va ongiga singdirish maqsadidagi "cherkov dramalari" o'rta asrlarda katta shakldagi tomosha turlarining biri bo'lib tarixga kirdi. Badiiy ijodni, ijroni o'z nazoratlariga olgan ruhoniylar, o'zlari dramaturg, ijro shartlarini belgilaydigan rejissyor, rollarni ijro qiluvchi aktyorlarga aylandilar.

Bu qaror natijasida xalq orasidagi ijodkorlar ishsiz qoldi. Dindorlar nazorati ma'lum vaqtgacha juda rivojlangan xalq ijodini bo'g'ib qo'ydi. Ruhoniylar ijrosi lotin tilida bo'lganligi uchun ko'p anglashilmovchiliklarni paydo qildi. Keyinchalik "cherkov dramalari"da cho'ponlar o'z kiyimlarida paydo bo'lishi va shevasida gapirishi, Iso payg'ambarni voqea sodir bo'lgan joy aholisi shevasiga qarab munosabatda bo'lishi - ijro san'atiga bir qator yangiliklarni olib kirdi.

Diniy mo'jizalarni teatr effektlari bilan amalga oshirilishi katta shakldagi tomosha san'atiga yangicha yondoshish mumkinligini asosladi. Cherkovlar teatr tomoshasini rivojlantira olishiga ko'zi yetmadi. Chunki, mavzuni chegaralangan, ilohiy mo'jizalarni namoyon qilish imkoniyatini ham chegaralanayotganligini ular

anglab yetdilar. Natijada, ular ibodatxona ichidagi tomoshalarni tashqariga - maydonlarga olib chiqdilar. Bu ham odamlarni ko‘proq diniy aqidalarga jalb qilish maqsadida amalga oshirilgan reja edi.

Ibodatxonalardan tashqariga chiqqan tomoshalarni shahar ahli quvonch bilan kutib oldi. Endi tomoshalar bayram kunlaridan keyingi ham - dam olish kunlari, bozor maydonlarida, odamlar to‘plangan joylarda ko‘rsatilardi. Maydon tomoshalariga shahar axlining - tomoshabinlarining talabi ko‘proq singib borar edi. Chunki, bu katta shakldagi tomoshalarga endi ruhoniylardan tashqari odatdagiday xalq orasidagi ijodkorlar ham aralashgan edi.

XIII asrga kelib diniy mavzu o‘rniga xalq hayoti va uning ijodkorlik ruhini yoritgan “Shiypondagi o‘yin” nomli pyesa yaratildi. U avval Parijda, so‘ng Italiyada namoyish qilindi. Umuman diniy mavzudan xoli bu asar xalq orasida tezda mashhur bo‘lib ketdi.

Lekin, cherkovlar ham bu kurashda bo‘sh kelmadi. Ular ham o‘z maqsadalarini amalga oshirish uchun diniy mavzudagi ijodini davom ettirdilar. Ularga javoban xalq orasidagi xajviy yo‘sindagi farslar ijodkorlari esa - jarchilar, lo‘ttiboz xakimlar, so‘qir yetaklovchi tamagirlar ifodalangan obrazlarda hayotiy voqealarni namoyon qilib turdi.

Moralite - katta shakldagi axloqiy tomoshalar

Misteriyaning izlanishlari va taqiqlari navbatdagi bosqichiga “maralite” paydo bo‘lishiga sharoit yaratdi. Maralite - lotincha axloqlilik ma'nosini anglatib, inson qalbi uchun kurashadigan dramadir. XVI asrga kelib bu janr Yevropada keng tarqaldi. Marlite xristian dini axloqlarini targ‘ib qilsa ham diniy syujetlardan holi edi. Uning yana bir yutug‘i hayot haqiqatiga moslangan to‘qnashuv-konfliktlar asosida yozilgan dramaturgiyasida edi¹. Lekin, bu to‘qnashuvlar ramziy: yaxshini - yomon bilan; xotomtoyni - xasis bilan; aqllini - axmoq bilan munozarasiga qurilar edi. Natijada, aqllilar to‘g‘ri yo‘lni topib ketadi, axmoqlar esa sharoit qurboni bo‘ladilar.

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: “Yangi asr avlodi” 2009 yil. –B. 60.

Bu janr katta shakldagi tomosha san'atini yana bir yangi bosqichga olib chiqdi. Hamda teatrda ehtirolarni ochiq ishlatmasdan, qarama-qarshi, ziddiyatli voqealarni taqqoslash va tahlil qilish orqali ham insonni qalbini, tuyg'ularini tushunish mumkinligini amalda isbotlab berdi. Shekspirning "Qish ertagi" asarini shu janrda talqin qilish mumkin. Qolganlari esa bu janr o'z davri uchun xizmat qilib bo'lganligini asoslaydi.

Bayramlardagi tomosha turlari.

O'rta asrlarga kelib bayramlarning g'oyaviy yuki va estetik tamoyillari yana o'zgardi. «Rimlik dam oluvchi shaxs» diqqat-e'tibori endi cherkovlarda tashkil qilinadigan 115 ga yaqin diniy bayramlarga qaratildi. Cherkovlarning iqtisodiy darajasi bu bayramlarni tantanali, zebu - ziynatli qilib nishonlash imkonini yaratdi.

Bunday tadbirlar dinning tantanavor ulug'vorligini namoyish qilish vositasiga aylandi.

Diniy g'oyalarni xalq ongiga sindirishga bo'lgan bunday harakat, qonuniy ravishda keng ommada unga qarama-qarshi bo'lgan «ochiq maydon tomoshalari» - xalq sayllarini qayta tiklash zaruriyatini kun tartibiga qo'ydi. Bu harakat esa o'rta asr Yevropa bayramlar tarixiga "Tentaklar tantanasi" nomi bilan kirdi.

"Tentaklar tantanasi" - huquqlari chegaralangan xalqning ozodlik va erkinlik haqidagi orzu-umidlari ro'yo ekanligini bildiradigan, zaharxanda, ijtimoiy - ommaviy tadbirlar sifatida yuzaga keldi. Quvnoq o'yin-kulgulardan iborat maydon-sayl tomoshalari, yillar davomida iskanjada saqlangan ommaviy bayramlarga nisbatan bo'lgan qattiq qo'llikka - misteriyachilarga qarshi bildirilgan ijtimoiy munosabat edi¹.

Xalq sayllari hamda bayramlarining qalbi bo'lgan qiziqchilar, skomoroxlar, masxarabozlar tomosha ko'rsatish uchun odamlar to'plangan joyga yetib keladigan, harakatdagi sahna - pedjent deyilgan. U tomosha ko'rsatadigan, aholi to'plangan joyda teatr paydo bo'lar edi. Ammo, bu teatr kichik shakldagi tomosha - nomerlar ko'rsatilardi. Shunday qilib, ko'chib yuruvchi sahna - bayram tadbirlarining asosiy ishtirokchisiga aylangan.

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: "Yangi asr avlodi" 2009 yil. –B. 110.

Shahar aholisini ko'payishi munosabati bilan pedjentlar ko'chib yuradigan, eng qulay kichik shakldagi tomosha ko'rsatish moslamasi bo'lib qoldi. Shuning uchun, pedjentlar - bayram kunlari eng sermazmun va sermahsul xizmat ko'rsatadigan, bayram dramturgiyasini hamda uning ijro shaklini shaharma-shahar ko'chib yurishiga, ommaviy tadbirlarning g'oyaviy-badiiy takomillashishiga, xalqning estetik tarbiyasiga katta hissa qo'shgan ko'chma teatr bo'lgan deyish mumkin.

Bayramlarning navbatdagi badiiy - estetik rivoji, evolyutsiyasiga, dvoryanlarning to'qlikka - sho'xlik shaklidagi, harbiylashgan, ritsirlar turnirini o'tkazish borasidagi, juda puxta o'ylangan ssenariylari asos bo'ldi. Yuqori saviyada tashkil qilingan bunday tomoshalar shaharliklar uchun eng qiziqarli bayramga, tadbirlarga aylandi. Bu shakldagi teatrlashtirilgan harbiy sport musobaqasi, maxsus kiyim bosh, qurol-aslaha, otlar, maxsus maydon va uning o'ziga xos bezaklari bilan ommaviy tomosha turini yanada boyitdi.

Uyg'onish davri mutafakkirlari - «dvoryanlarning olib jismoniy kuch - tomosha asosini tashkil qiladi» degan g'oyasi o'rniga, «ommaviy bayramlar - insonni ma'naviy boyitishga xizmat qilishi lozim»ligi haqidagi g'oyani olib kirdilar. Bu ilg'or g'oya bayram tomoshalarning takomillashish jarayonidagi navbatdagi bosqich edi.

Endi bayram tomoshalari - jamiyatning namunaviy turmush tarzi ifodasiga aylanib, unda ishtirok etganlar o'zlarining eng go'zal va ulug'vor fazilatlarini namoyon qilishga harakat qila boshladilar. Kishilarning bir-biriga estetik munosabatlarini eng yorqin ko'rinishlarda namoyon qiluvchi bunday bayramlar, jamiyat uchun ideal - namuna shaklini o'zida jamlab, insonlarning ma'naviy boyishiga xizmat qila boshladi. Shuning uchun, uyg'onish davri, bayramga - "inson ongi va tabiatiga hamohang demokratik turmush tarzining yuksak axloqiylik namunasi", deb baho beradi. Bu bayramlarning jamiyat ma'naviy hayotida tutgan g'oyaviy o'rniga to'g'ri tushunish, unga berilgan yuksak estetik baho edi.

Bayramlar evolyutsiyasining navbatdagi bosqichi fransuz revolyutsiyasi bo‘lib, u ommaviy tadbirlarni xalq va davlat g‘oyalari bilan birlashtirib, umumxalq tantanasidagi badiiy-estetik bosqichga ko‘tardi. Bunga, jamiyat siyosiy hayotidagi har bir o‘zgarish, xalqning maqsadi va orzu-umidlarini, yuksak badiiy darajada, puxta o‘yangan bayram tadbirlar vositasida amalga oshirishga intilish asos bo‘lgan. Tantalalarda ular o‘z g‘oyasini xor bo‘lib ijro etishga 2,5 mingga yaqin kishilarni jalb qilingan. G‘oyani ifodalovchi xor maxsus tayyorgarlikdan va nazoratdan o‘tkazilgan. Bu o‘z navbatida yuksak tantanavorlikni vujudga keltirgan. Chunki, jamiyatdagi barcha kuchlarni bir g‘oya atrofida birlashishi, nihoyatda ulug‘vor bo‘lgan “omma qudrati”ni paydo qilar edi.

Bayram g‘oyasining ifodaviy ramzi - badiiy obrazini topilishi va uni ommaviy tadbirlarda qo‘llanilishi, kelgusi tantanalarning g‘oyaviy - badiiy rivojiga asos bo‘ldi. Bunga misol qilib, “Aql-idrok” tantanasiga bag‘ishlangan bayramda: “Hayot”, “Mehnat”, “Fan”, “Ilm nuri” nomli go‘zal va ulug‘vor tushunchalar ifodasini o‘zida jamlagan ramziy figura - jihozlarning tantanali namoyishlarini ko‘rsatish mumkin.

“Aql-idrok” ramzi o‘rnatilgan maydonga, tantana ishtirokchilari bo‘lgan - parijsliklar to‘planishadi. Ramziy figura usti “qora mato” bilan qoplangan. Bayram ishtirokchilari “qora matoni” tortib tushurib “Aql-idrok”ni erkinlikka chiqaradi. “Aql-idrok” yaltirab, nurlar taratib tantana ishtirokchilariga zavqu-shavq bag‘ishlaydi. Ular qafas ramzi bo‘lgan “qora mato”ni yoqib yuboradilar. Bu ramziy xatti-harakat bayram ishtirokchilarining ehtirosli hayqiriqlari ostida sodir bo‘ladi. “Aql-idrok” g‘alabasiga guvoh bo‘lganlar uni atrofida qo‘shiqlar aytib, raqsga tushadilar.

«Aql - idrok» g‘alabasi natijasida paydo bo‘lgan zavqu-shavqni, go‘zallik va ulug‘vorlik tantanasini, badiiy - estetik tuyg‘uning jamiyat hayotini yangilashdagi ahamiyatini anglab yetish mumkin.

Bayramlarni nishonlashda insoniyat orttirayotgan g‘oyaviylik tajribasi va uning badiiy-estetik, ramziy shakli katta shaharlardagi turmush tarzining keskin o‘zgarishlari bilan bog‘liq holda sodir bo‘lmoqda edi. Shunday qilib bayramlar -

kichik shakldagi tomosha turlarini o‘zida saqlab, g‘oyaviy boyitib, yangi bosqichga olib chiqqan tadbirlari bilan insoniyatga xizmat qilishni davom ettirmoqda edi.

Insonlarning hordiq chiqarishlari uchun uyishtirilgan bayram tomoshalari xalqning mehnati samarasini ham ko‘tarishga harakat qilganligining guvohi bo‘ldik.

I bob bo'yicha xulosa

Sharqdagi tomosha turlari va aholi dam olishi va mazmunli hordiq chiqarishlari uchun xizmat qilganlar. Sharqda aholining hordiq chiqarishi uchun uyishtirilgan tomoshalar G'arb tomoshalaridan butunlay farq qiladi masalan bularda sahnalar - ulug'vor g'oyalar, teran falsafiy tomoshalar, hazil - mutoyiba va zavq-shavqni, umumxalq dardining minbari bo'lib qoldi.

Uyg'onish davri tomoshalarining bosh qahramoni kamoli yetukligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi shaxs edi. Bunday qahramon har qanday to'siq va kurashda o'z ezgu niyatiga bo'lgan ishonchni yo'qotmaydi. Bu davr ijodkorlari - ishonchi bor shaxsning kuch-qudrati jamiyat to'siqlarini yengishga qodir, degan g'oyani olg'a surdilar. Ular ijodi hayotbaxshligi bilan qadrli va ulug' edi. Bunday g'oyani ilgari surgan ulug'lar o'zlarini insoniyat uchun abadul-abad daxldor idealga murojat qilayotganligini bila turib ijod qilganlar deyish mumkin.

Uyg'onish davri mutafakkirlari - «dvoryanlarning olib jismoniy kuch - tomosha asosini tashkil qiladi» degan g'oyasi o'rniga, «ommaviy bayramlar - insonni ma'naviy boyitishga xizmat qilishi lozim»ligi haqidagi g'oyani olib kirdilar. Bu ilg'or g'oya bayram tomoshalarining takomillashish jarayonidagi navbatdagi bosqichi edi.

Endi bayram tomoshalari - jamiyatning namunaviy turmush tarzi ifodasiga aylanib, unda ishtirok etganlar o'zlarining eng go'zal va ulug'vor fazilatlarini namoyon qilishga harakat qila boshladilar. Kishilarning bir-biriga estetik munosabatlarini eng yorqin ko'rinishlarda namoyon qiluvchi bunday bayramlar, jamiyat uchun ideal - namuna shaklini o'zida jamlab, insonlarning ma'naviy boyishiga xizmat qila boshladi. Bu esa aholisining ko'ngilli hordiq chiqarishiga ulkan hissa bo'lib qo'shildilar.

II BOB. SHARQ VA G'ARB HORDIQ MADANIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ULARNING TAHLILI

2.1. G'arb yoshlarining bo'sh vaqtlari "Ommaviy madaniyat" ta'siri bilan to'liq qamrab olinayotganligi

G'arb mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy munosabatlarda ma'naviyatni chetga surib qo'yib, faqat foyda ketidan quvish oqibatida aholining keng qatlamlarida iste'molchilik psixologiyasi rivojlanmoqda. Buning uchun hatto «tajovuzkor» reklama orqali odamlar ongiga ta'sir ko'rsatilib, ular dunyoqarashi qisman boshqarilmoqda. Hamma narsa, hatto odamlarning o'zaro tanish-bilishchiligi iste'mol tovariga, ma'lum bir hojatlarni chiqarish vositasiga aylanmoqda. Bu holat, tabiiy ravishda, g'arb jamiyati ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Turli- tuman reklama axboroti odamlarning faol ongidan mumtoz adabiyot, san'at va ilm-fan bergan bilimlarni ongning nafaol qatlamiga siqib chiqarmoqda.

Fransuz sotsiologi A.Mol fikricha «Bugun oddiy ishchi aqlini «to'ldirish»da uning metro afishasida o'qigani, radiodan eshitgani, kino yoki televizorda ko'rgani, ishga borishda yo'lda gazitadan o'qib olgani yoki hamkasblari va qo'ni-qo'shnilaridan eshitgani ko'proq rol o'ynaydi: maktabdan esa faqat yarim munut bo'lgan tushunchalar tuguni qoladi xolos»¹.

Dalil va mulohazalarini jamlagan A. Mol «Madaniyat sotsiodinamikasi» kitobida shunday xulosaga kelgan: «Bizning davrimizda bilimlar asosan ta'lim tizimi orqali emas, balki ommaviy axborot vositalari orqali shakllanadi».

G'arbda aksilmadaniyat deb atalmish hodisaning vujudga kelishida reklama usullari va iste'molchilik psixologiyasining anchagina ta'siri mavjud.

Aksilmadaniyat tushunchasi insonga qarshi turli zo'ravonliklar, fahsh, qotillik, qo'rquv va dahshat, insonning hayvoniy hirslari, tubanlashuvni tarannum etish, jamiyatdagi axloqiy va estetik me'yorlarni inkor qilishni anglatadi. Biz bu o'rinda aksilmadaniyatni ba'zi haqiqiy badiiy asar saviyasida yuksak ishlangan va

¹ Shuhrat G'oyibnazarov. Ommaviy madaniyat. –T.: "O'zbekiston" 2012 yil. –B. 125.

ezgulik tushunchalariga zid bo'lmagan trillerlar- dahshatli, qo'rqinchli filmlar bilan chalkashtirmasligimiz darkor. Aksilmadaniyatni vujudga keltirgan asosiy sabab reklama emas, balki G'arbdagi ma'naviyat inqirozidir. Ammo aksilmadaniyat reklamaning ba'zi bir «nostandart qiliqlaridan», xususan, iste'molchining ehtirosini junbushga keltirib, unga har qanday usul bilan, hatto mavjud me'yorlarni ataylab inkor etib bo'lsada, targ'ib- tashviq etayotgan g'oyani (tovarni, xizmatni) eslatib qolish kabilardan namuna olgan deyishimiz mumkin. Aksilmadaniyat ma'lum bir muammolar tug'dirishiga qaramay, g'arb ijtimoiy hayotida unchalik kuchli ahamiyat kasb etmayapdi.

Undan farqli ravishda dunyo miqyosida, jumladan bizda ham ommaviy madaniyatning ta'siri kuchayib bormoqda. Ommaviy madaniyatning asosiy sifat mezoni hammaga tushunarli va ko'ngilochar bo'lishida, bosh maqsadi bo'lsa ko'proq daromad olishdan iborat. U o'ziga xos janrlar: shou, triller, boyevik, shlyager, komiksni vujudga keltirdi. Ularning umumiy mohiyati- individualizm, jismoniy kuch va zo'ravonlik hamda bazi qo'shtirnoq ichidagi ishlarni targ'ib etish, ayrim hollarda g'oyaviy yo'nalishlarda chiqishlar qilishdan iborat. Ommaviy madaniyat chegarasi «yulduzlar»ni kashf etish bilan tugaydi, bunda sun'iy ravishda yozuvchilar, rassomlar, musiqachilar, aktyorlar, sportchilar ommalashtiriladi. Kommersiya va g'oyabozlik maqsadida o'z o'zidan paydo bo'lgan talantlar «oqimiga solinib», ulardan iqtisodiy jihatdan foydalaniladi. Ommaviy madaniyat o'zini namoyon etishiga ko'ra aksilmadaniyatga aylanib qolmoqda. U ko'ngilochar vosita sifatida yashab qolish huquqiga ega. Ammo xavfli tomoni shundaki, u o'zgarmas iste'mol va didlarga o'zini moslab asl badiiy madaniyatni chetga surib chiqarishi mumkin. Unda u shaxs, insonni yuksaltiruvchi ruhiy olam va ma'naviyat o'rniga ko'ngilxushlik va zo'ravonlikni taklif etadi. Hozirgi davrda ommaviy axborot vositalari, audio-videotexnika, internetning taraqqiyoti ommaviy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Uzoqqa borib o'tirmay, qo'shiqchilik san'atini misol keltirish mumkin.

Ommaviy madaniyat bir qanoti bilan umumiy professional saviyasi orqali mumtoz madaniyatga yaqinlashsa, ikkinchi qanoti bilan ko'pincha avom, olomon

didiga moslashganligi, sayozligi va didning pastligi tufayli aksilmadaniyatga yaqinlashib boradi¹. Hozirgi davrda ommaviy madaniyat hodisalari ko'p jihatlari bilan tovar va xizmatning o'ziga xos turiga aylanmoqda. Ushbu ma'noda reklamaning o'zi ham ommaviy madaniyatning bir turidir.

Biz G'arbga o'z qadriyatlarimizni tiqishtirayotganimiz yo'q. Shunga qaramay, yurtimizdagi haqiqiy vaziyat bilan tanishgach, mahalla va oila singari qadriyatlarimizga havas va hayrat bilan qarayotganlari ham anchagina. Jahon Olimpiya qo'mitasi raisi Jak Roje fikriga e'tibor qaratsak, hamma narsa oydinlashadi: «Ochig'i, sizga havas bilan qaraymiz. Chunki sizning intiladigan porloq kelajagingiz bor. Afsuski, aksariyat G'arb va okean ortidagi mamlakatlarning kelajagi yo'q. U yerlarda aholining 70-80 %ini keksalar tashkil qiladi. Bari ayb o'zimizda... Sizlarda bo'lsa aksincha- tug'ilish, ko'payish ko'p. Sizlar ertangi kun umidi bilan yashaysizlar. Farzandlaringiz sog'ligini o'ylab, uch bosqichli sport musobaqalari tizimini yaratganingiz ham huddi shu kelajak to'g'risidagi orzu o'ylaringiz ifodasi». Germaniyalik professor L.Levitin esa shunday yozadi: «Sizlar o'z ma'naviy madaniyatingiz, turmush tarzingiz G'arb mamlakatlariga nisbatan ustun ekanligini ko'pincha bilmaysizlar. Boshqa yurtdan kelganlar buni darhol sezib, qalbdan xursand bo'lishadi. G'arb odami o'zini yakka-yolg'iz his etadi. O'zbeklardagi o'zaro hamkorlik, hamjihatlik o'zaro yordam ruhi, odamlararo muloqot madaniyati, mahalladagi mehr- oqibatlilik va boshqa shu kabi fazilatlar boshqa xalqlarda yo'q yoki kam uchraydigan hodisa. Agar o'zbek yakka-yolg'izlikni yoqtirganda ham tarixan tarkib topgan an'analar bunga yo'l qo'ymaydi»². Yana bir misol keltirsak, ortiqchalik qilmasa kerak.

Yevropalik tadbirkor O'zbekistonda 3-4 yil muqim yashab, tijorat qilibdi. Safari qarib, ketar vaqti yetganda kamgap, g'amgin bo'lib qolibdi. Boisini so'rashsa, indamay, bosh chayqar emish. Oxiri "ketar chog'i"ga bag'ishlab, osh qilishibdi. Zarbof to'n kiydirishibdi. Ana shunda janob Baydl o'zbek hamkorlariga yorilibdi: "Shu paytgacha yaxshi pul topdim. O'g'limga yordam qilib keldim.

¹ Shuhrat G'oyibnazarov. Ommaviy madaniyat. –T.: "O'zbekiston" 2012 yil. –B. 126.

² O'sh joyda.

Vatanninga qaytib borgach, nafaqaga chiqsam, avvalgidek pul topa olmayman... Hech kimga keraksiz predmetga aylanaman. O'lsam, o'g'lim bilmaydi. Bilganda ham xafa bo'lmaydi.

To'rt yil O'zbekistonda yashadim. Qishloq, mahallalarda bo'ldim. O'zbeklarning turmushi haqiqiy, insoniy turmush ekan. Yevropada keksayganingda bebaxtlik, xorlik boshlanadi. O'zbeklarda esa hayot gashtini surish boshlanar ekan.

Jismim G'arbgaga ketayotir. Ko'nglim O'zbekistonda qolayotir», debdi namlangan ko'zlarini jovdiratib.

Bu ne hol?

Bu- 61 yoshli insonning, odamgarchilik hududidan Vatani- xudbinlik hududiga qaytayotgan odamning vidolashuvi emasmi?

Bu-biz uchun odatiy, ammo G'arbda topilmaydigan asl o'zbek turmushiga bir yevropalikning tazimi emasmi?..

Inson ma'naviyatiga tahdidlar va ulardan o'zini ongli himoya qilish ko'nikmalari ta'lim-tarbiya, bobo-momolar o'giti, ota-onalar ibratini, ezgulik va yovuzlikni ajrata bilish jarayonida shakllana boradi.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo-hayot yo-mamot, yo-najot yo-halokat, yo-saodat yo-falokat masalasidir»¹ degan fikri XXI asr ibtidosida ham o'z dolzarbligini saqlab turibdi. Chunki ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish orqaligina ongni o'zgartirish mumkin. Ta'lim va tarbiya o'zaro uzviy bog'liq sharqona tushunchalardir. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Sho'ro davridagi ta'lim- tarbiya tizimining eng nomaqbul tomoni shundan iborat ediki, o'quvchi va talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga yo'l qo'ymaslik, bitiruvchilarning bilimiga qarab emas, avvalo, ularning kommunistik g'oyalarga sadoqatini hisobga olib baholash tamoyili asosiy o'rinni egallardi. Ko'pchilik haqiqiy bilim yoki malaka orttirish maqsadida emas, amal-taqal qilib diplomli

¹ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. -T.: "Ma'naviyat" 2009 yil. -B. 33.

bo‘lib olish ilinjida texnikum yoki institutlarga kirardi. Bu tuzumdan qolgan meros ichida shunga o‘xshash salbiy asoratlar, afsuski, hozir ham sezilib turibdi.

Hozirgi davrga xos ayrim ijtimoiy jarayonlarni kuzatar ekanmiz, ular Gramshining madaniy gegemoniya haqidagi ta'limotiga uyg'un tarzda, uning ko'rsatmalariga mos ravishda kechayotganini tan olishga majbur bo'lamiz. Ayrim hollarda hattoki "bu jarayonlar Gramshi ta'limotiga tayangan holda maxsus ishlab chiqilgan va moxirona amalga oshirilgan, aniqrog'i, Gramshi nazariyasining qanchalik to'g'ri ekanligini tajribada sinab ko'rish uchun o'tkazilgan operatsiya emasmikan», degan gumonga ham borasan kishi.

E'tibor bering. Gramshining nazariyasiga ko'ra, madaniy gegemoniya o'rnatish uchun sog'lom aqlni zaiflashtirish yoki umuman bartaraf etish talab etiladi. Sog'lom aql o'chirilgach esa, insonni aql bovar qilmas afsona va uydirmalarga ishontirish mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda jahonda keng yoyilayotgan ana shunday cho'pchak-mafkuralardan biri «yevrotsentrizm» deb ataladi. Nomidan ham ko'rinib turganidek, unda G'arbdan andoza olish, unga taqdid qilish taraqqiyotning bosh omili ekanligi o'qtiriladi. Yevrotsentrizm hammaboplikka davo qilayotgan mafkura bo'lib, unga ko'ra, barcha xalqlar bir xil taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi, faqat hozirgi kunda ular taraqqiyotning turli bosqichlarida turganliklari bois, bir-biridan farq qiladi. O'z taraqqiyot yo'lini belgilayotgan jamiyatlarga nisbatan yevrotsentrizm mafkurachilari "G'arb izidan bor - bu eng yaxshi dunyolardan biridir", deya "maslahat" beradi¹.

Aslida esa, yakkarang dunyo ko'rish g'oyasi cho'pchakdan boshqa narsa emas. Zero, dunyoda ko'p sonli rang-barang madaniyatlarning birgalikda mavjud bo'lishi, bir-birini to'ldirib, boyitib turishi insoniyat taraqqiyotining zaruriy sharti hisoblanadi. Va insoniyatning hech bir bo'lagi butun dunyoda o'z hayot tarzini tatbiq etishga haqli emas. Prezident Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, teran milliy qadriyatlarni, odamlarning o'ziga xos xususiyatlarini, an'analarni saqlab qolish yo'lidagi intilishlar millatni saqlab qolishga qaratilgan tabiiy, obyektiv ehtiyoj sanaladi. «Har qanday millat, u naqadar kichik: bo'lmasin - insoniyatning

¹ Alisher Azizxo'jaev. Chin O'zbek ishi. –T.: "O'zbekiston". 2011 yil. 390-391-betlar.

boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo‘q bo‘lib ketishi yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo‘lmog‘i kerak. Va bu maqsad, birinchi navbatda, ushbu etnik guruhlarni o‘z ichiga oluvchi har bir alohida davlatning vazifasidir»¹. Bu fikrlar nafaqat g‘arbdan nusxa ko‘chirish g‘oyasini puchga chiqaradi, balki odamzodni bunday asossiz afsonalarga qarshi kurashga chorlaydi.

Yevrotsentrizm mafkurasining yana bir da'vosiga ko‘ra, kapitalizm qudratli ishlab chiqaruvchi kuchlarni shakllantirgani bois G‘arb o‘z taraqqiyotida boshqalardan uzib ketdi. Taraqqiyotda G‘arbdan orqada qolgan xalqlar esa unga yetib olishlari uchun o‘z mamlakatlarida aynan G‘arb namunasidagi kapitalizmni qaror toptirishlari zarur emish. Vaxolanki, G‘arb kapitalizmi mustamlakalarning resurslari hisobiga shakllantirilgani hech kimga sir emas. Masalan, Fransiyada agrar sohada band bo‘lganlar soni ortib ketgach, XX asrning 20-yillarida bu muammoni hal qilish uchun Jazoir mustamlakaga aylantirildi va yerlarning yarmi fransuz mustamlakachilari ixtiyoriga berildi. Yoki aksincha, AQShda yerga ishlov berish uchun ishchi kuchi taqchilligi yuzaga kelganda, Afrikaning 100 million baquvvat va navqiron yigitlari qul qilib olib ketilgani, biroq ulardan bor-yo‘g‘i 9 millionga yaqini manzilga omon yetib borganini tarix dalillaydi².

G‘arb namunasidagi kapitalizmni qaror toptirish negizida aynan madaniy gegemoniya o‘rnatish maqsadi yashiringanini ham unutmaslik darkor. Moddiyotga berilish, nafsni qondirish, buyumparastlik kabi qadriyatlarining singdirilishi iqtisodiy jarayonlarni jadallashtiradi, chunki barcha narsa sotish va sotib olish mumkin bo‘lgan tovarga aylantiriladi. Fikrlar va buyumlarning, inson tanasi va ruhiyatining, tabiat va madaniyatning tovarga aylantirilishi zamonaviy kapitalizmning asosiy xususiyatiga aylanmoqda. E'tibor berib qaraydigan bo‘lsak, jamiyat hayotining barcha sohalarida savdo-sotiq munosabatlari ustuvor

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: “O‘zbekiston”, 1997, 73-74-betlar.

² Alisher Azizxo‘jaev. Chin O‘zbek ishi. –T.: “O‘zbekiston”. 2011 yil. 392-b.

bo‘lmoqda, “yemak va tomoshalar” shiori ostida insonlarda iste'molchilik ruhiyati avj oldirilyapti, “insonning hamyoni qayerda bo‘lsa, uning qalbi ham o‘sha yerda” degan halokatli g‘oya singdirilmoqda. Molparastlik va xudbinlikning shu tariqa hammabop qadriyat sifatida tiqishtirilishi esa ma'naviyatni qashshoqqlantirib, madaniy gegemoniya o‘rnatish uchun qulay zamin yaratishi tabiiydir.

Yevrosentriзмning navbatdagi uydirmalaridan biri - texnologik afsona sifatida tanilgan. Unga ko‘ra, aynan G‘arbda yaratilgan madaniyat, falsafa, huquq, fan va texnologiyalar dunyoda ustuvorlik qilmoqda va insoniyat taraqqiyotiga belgilovchi ta'sir ko‘rsatmoqda. Demak, boshqa xalqdar tomonidan ilg‘or G‘arb madaniyatining o‘zlashtirilishi ularning ravnaqiga turtki bo‘ladi.

Tan olish kerak, madaniyat u o‘ziga jalb etadigan jozibali kuch sanaladi. Kishilarda G‘arb madaniyatiga, Amerika madaniyatiga taqlid qilishga intilishni ham tan olmay ilojimiz yo‘q. Bu holatni Amerikalik olim Z.Bjezinskiy quyidagicha ta'riflaydi: “Madaniyat sohosida, uning bir oz junligiga qaramay, Amerika, ayniqsa, jahon yoshlari orasida alohida jozibadorligi bilan ajralib turadi. Bu esa Amerika Qo‘shma Shtatlariga dunyoning hech bir davlatiga nasib qilmagan siyosiy ta'sirni ta'minlaydi”¹. Fikrini davom ettirib, Z.Bjezinskiy yana shularni yozadi: “Madaniy ustunlik Amerika global kuch-qudratining muhim jihati sanaladi. Ayrimlar o‘zining estetik qadriyatlari haqida nimalarni o‘ylamasin, Amerika ommaviy madaniyati, ayniqsa, jahon yoshlarini ohonrabo kabi o‘ziga tortadi. Uning jozibadorligi, ehtimol, shu madaniyat orqali targ‘ib qilinayotgan hayotni sevish falsafasi, hayot sifati bilan bog‘liqdir, lekin Amerika madaniyatining jozibadorligi shak-shubhasizdir. Amerikaning televizion dasturlari va filmlari jahon bozorining qariyb to‘rtdan uch qismini egallagan. Amerikaning ommabop musiqasi ham ustuvor mavqega ega, shuningdek, Amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishdagi odatlari va hattoki kiyinishlariga butun dunyoda taqlid qiladilar. Internet - ingliz tilida va kompyuterdagi so‘zlarning aksariyat qismi Amerikadan bo‘lib, global muloqotning mazmuniga kuchli ta'sir o‘tkazadi. Va

¹ Бжезинский З. Великая шахматная доска. Госполство Америки и геостратегические импративы. –М.: 1998, с.36.

nihoyat, Amerika zamonaviy ta'lim olishga intilayotganlar uchun o'ziga xos Makkaga aylangan...»¹.

Darhaqiqat, fan-texnika taraqqiyoti globallashuvning tarkibiy qismi sanaladi. Internetning yaratilishi esa ilmiy-texnik sohada inqilobiy o'zgarishlar yasadi. Internet ingliz tilining globallashuviga kuchli turtki berdi. BMT tomonidan 5 til - ingliz, fransuz, ispan, rus va xitoy tillari xalqaro muloqot tili sifatida tan olingan bo'lsada, ingliz tili oxirgi yillarda keng urf bo'ldi. Axborot sohasidagi ustuvorlikni ta'minlaydigan bu omillar inson ongiga kuchli ta'sir o'tkazish va uni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, jahon mediaxoldinglarining egalari sodir bo'lgan voqea-hodisalarni yoritishda urg'ularni o'zgartirish yo'li bilan ham tomoshabinda bu voqelikka nisbatan o'zlari istagan munosabatni shakllantirish qudratiga ega. Yoshlarga kuchli ta'sir ko'rsatadigan Amerika filmlari vositasida kishilarga istagan fikrni, qadriyatlarni, ko'rsatmalarni singdirish imkoniyati bor. Internet esa virtual voqelikni shakllantirib, undan foydalanuvchilarda madaniyatning yangi ko'rinishi kibermadaniyatni qaror toptirmoqda. Virtual voqelik va kibermadaniyat, o'z navbatida, kishilarning fe'l-atvorini osonlikcha programmallashtirish imkoniyatini beryapti.

Biroq Z.Bjezinskiy tomonidan jozibador deya tasvirlangan G'arb madaniyatida qanday qadriyatlar targ'ib qilinmoqda? Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'sha ko'klarga ko'tarib maqtalayotgan madaniyat egasi bo'lgan yosh Amerikalik 18 yoshga kelib, kompyuter o'yinlaridagi 40 mingga yaqin qotillikning guvohi yoki «muallifi» bo'lishi aniqlangan. Bundan tashqari, shunday navqiron yoshda u kinofilmlar orqali 200 mingga yaqin zo'ravonlik harakatlarining shoxidi bo'lar ekan². Bu jihatdan mutaxassislar G'arb madaniyatiga «o'lim g'oyasini tarqatovchi madaniyat» sifatini bermoqdalar³. Bot-bot ommaviy axborot vositalarida shovshuvga sabab bo'layotgan xodisalar - maktab o'quvchisining o'z tengdoshlari yoki o'qituvchisiga qarata o'q otishi, qurol bilan o'qtalishi ana shu madaniyat ta'sirida yuz berayotgan xodisalar emasmi?

¹ Бжезинский З. Великая шахматная доска. Госполство Америки и геостратегические импративы. –М.: 1998, с.38.

² Азроянц Э. Глобализация: катастрофа или путь к развитию? –М.: «Новый век», 2002, с.40.

³ Alisher Azizxo'jaev. Chin O'zbek ishi. –Т.: "O'zbekiston". 2011 yil. 394-b.

Iste'molchilik ruhiyatini avj oldirish, «rohatlanish sanoati»ni rivojlantirish, "o'lim madaniyati"ni keng yoyish oqibatida G'arbda ma'naviy-axloqiy tanazzul kuzatilmogda. Qadriyatlar tizimi oyog'i osmondan kelib, ilgari fazilat sanalgan narsalar aybga, avvallari gunoh sifatida qoralangan harakatlar fazilatga aylantirilayapti. G'arb mamlakatlarida jinoyatchilik, giyohvandlik, fohishabozlik, besoqolbozlik kabi illatlarning avj olishi, oilalarning buzilishiga, tug'ilishning kamayishi buning yaqqol dalilidir. Ma'lumotlarga ko'ra, AQSHda 12 yoshgacha qizlardan 25 %ining nomusiga tajovuch qilingan. 1998 yil avgustida AQSHda 8 yoshar bola zo'rlashda ayblanib qamalgan. Amerika erkaklarining 25 %iga yaqini besoqolboz ekani aniqlangan. Har yili 200 mingga yaqin besoqolbozlar Los-Anjeles kuchalarida namoyish o'tkazadi¹. Va bu holat axloqning tanazzuli sifatida emas, inson erkinliklarining tantanasi sifatida talqin qilinadi.

Yana bir manbaga ko'ra, Yevropada er, xotin va farzandlarning oilaviy majburiyatlardan «halos etilishi» oqibatida oila instituti barham topa boshladi, natijada 17 mamlakatda o'lim ko'rsatkichlari tug'ilish sur'atlaridan ortib ketdi. Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Italiya, Latviya, Litva, Portugaliya, Rossiya, Ruminiya, Slovakiya. Sloveniya, Xorvatiya, Chexiya va Estoniya kabi davlatlarda belanchaklardan ko'ra tobutlarga bo'lgan ehtiyoj tobora o'sib bormogda².

... Bunday misollar G'arbgaga taqlidchilikni taraqqiyotning birdan-bir sharti sifatida taqdim etayotgan afsonalarning mag'zi puchligini ko'rsatadi. Boz ustiga, bugungi voqelik G'arbda jamiyat ich-ichidan yemirilayotgani, axloq inqirozga yuz tutayotgani, taraqqiyot orqaga ketayotgani haqida guvohlik bermoqda³.

Taassufki, madaniy gegemoniya o'rnatish o'zga xududlarni o'z ta'sir doirasiga olish, inson ongini boshqarishning keng tarqalgan texnologiyasiga aylanyapti. «Ongni boshqarish» («manipulyatsiya soznaniyem») atamasiga olimlar quyidagicha ta'rif beradi: "Manipulyatsiya - insonlarga ta'sir ko'rsatish harakati

¹ *Азроянц Э.* Глобализация: катастрофа или путь к развитию? –М.: «Новый век», 2002, с.58.

² United Nations Secretariat, Department of Economic and Social Affairs, Population Division, World Population Prospects: The 1998 Revision. Vol. 1: Comprehensive Table, November 24, 1998, pp. 100,118

³ Alisher Azizxo'jaev. Chin O'zbek ishi. –T.: "O'zbekiston". 2011 yil. 395-b.

bo‘lib, ularni mohirona boshqarish, xususan, ularga obyekt sifatida qarab, bepisand munosabatda bo‘lish, zimdan boshqaruv yoki ta'sir etishdir”¹.

Manipulyatsiya insonlar fe'l-atvorini boshqarishni, aniqrog‘i, ommaning fikrlari va intilishlarini, ularning kayfiyati va ruhiy holatini programmalashtirishni nazarda tutadi. Ongni boshqarish muammosiga bag‘ishlangan ilk asarlardan biri nemis olimi Gerbert Frankening 1964 yilda chop etilgan “Manipulyatsiya qilinayotgan inson» kitobidir. Bu asarida olim mazkur hodisaga quyidagicha ta'rif beradi: «Ko‘pincha ongni boshqarish deganda yashirin holda amalga oshiriladigan ruhiy ta'sirni tushunish kerak va demak, bu ta'sir kimga yo‘naltirilgan bo‘lsa, o‘sha shaxslarga ziyon yetkazishga xizmat qiladi”². Manipulyatsiya- zo‘ravonlik emas, u insonda biror narsaga havas tug‘diruvni vasvasa, uni yo‘ldan ozdirish usulidir.

XX asr ijtimoiy ongni boshqarish borasida burilish asri bo‘ldi. Millionlab kishilarni bir vaqtning o‘zida jadal targ‘ibot bilan qamrab olish imkonini beradigan yangi texnologik vositalar paydo bo‘ldi. Ilgari tasavvur etib bo‘lmaydigan ko‘lamlarda siyosiy tomoshalar qo‘yishga qodir rejissyor - tashkilotlar bo‘y ko‘rsatdi.

Ba'zan beozordek ko‘ringan reklama ham madaniy o‘zakni qo‘porishning kuchli vositasiga aylanayotganini e'tiborga oladigan bo‘lsak, “g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashish zarurligi” haqidagi fikrning ahamiyatini yanada chuqurroq anglaymiz. Shunday ekan, o‘zligimizdan maxrum qilishga intilishlarning payini qirqishimiz, ongimizni boshqarishga urinishlarga yo‘l bermasligimiz kerak.

Bashariyat taraqqiyoti tufayli inson ongini boshqarish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari cheksiz kengaydi. Bunday texnologiyalarni samarali qo‘llash bo‘yicha qimmatli “maslaxatlar” bitilgan nazariyalar ham ko‘paydi. Mazkur nazariyalarga xos umumiy xususiyat shundan iboratki, uning mualliflari ongni boshqarish uchun, avvalo, insonlarni to‘daga, olomonga aylantirish zarurligini, shundan keyin ularni istalgan kuyga solish mumkinligini ilmiy “asoslab” berishga harakat qiladi.

¹ Кара-Мурза С. Манипуляция сщзнанием. –М.: «Алгоритм», 2006, с. 15.

² O‘sha manba. –М.: «Алгоритм», 2006, с. 16.

Fransuz faylasufi Gi Deborning “Tomosha jamiyati”¹ (1967 y.) asarida insonlarni to‘daga aylantirish maqsadida o‘y-hayoldan foydalanish imkoniyatlari taxlil qilingan. Uning fikricha, ongni boshqarish texnologiyalari shunday qudratga egaki, ular yordamida real hayot, tarixiy tajriba asosida to‘plangan bilim yo‘qqa chiqarilib, uni rejissyorlar tomonidan sun'iy shakllantirilgan bilimga almashtirib qo‘yish mumkin. Shu yo‘l bilan insonda “hayotning o‘zi bir tomosha” degan fikr paydo qilinadi. Uningcha, “tomosha jamiyati”ni shakllantirish uchun madaniyatni tubdan o‘zgartirish, hayot bilan tomosha o‘rtasidagi chegarani ongli ravishda yo‘qotish, tomoshaga xos xususiyatlarni hayotga joriy etish zarur.

Shunda odamlar “maroqli spektakl”dagi qiziqarli o‘zgarishlarni nafasini ichiga yutib kuzatayotgan tomoshabinga aylanib qoladi. Rejissyor esa sahna ortidan turib, ommaviy tomoshani kishi bilmas tizginlar vositasida boshqarib turadi. Natijada odamlar real voqelikni idrok etish xissini yuqotib, haqiqiy hayot qayerdayu, o‘yin qayerda boshlanayotganini tushunolmay, garang bo‘lib qoladi. Haqiqiy hayot bilan uning so‘n'iy in'ikosini bir-biridan ajrata olmay qolgan inson ongi falajlanadi. Eng yomoni, tomosha jamiyatida insonga barcha narsani o‘ylamay-netmay qabul qilaveradigan passiv tomoshabin roli “ravo qiladi”. Shu tariqa, tomosha rejissyorlari inson aql-idroki va orzu-istaklarining mutloq xo‘jayiniga aylanadi.

E'tiborlisi shundaki, inson ongini nishonga olgan bu texnologiyalar siyosiy hayotga ham jadal kirib kelmoqda. “Rangli inqilob”larning rejissyorlari hokimiyatni qo‘lga kiritish maqsadida siyosiy tomoshalar qo‘yishni o‘zlariga hunar qilib olyapti. Bu haqda S.Tambia quyidagicha yozadi: “Teatrlashtirilgan davlat g‘oyasi zamonaviy demokratik davlat sharoitlariga ko‘chirilib, moslashtirildi. Bu davlatlarda saylovlar nafaqat hokimiyat uchun kurash va o‘ziga xos musobaqa, balki maroqli tomoshaga ham aylantirildi. Moxiyatan saylovlar siyosiy tomosha qo‘yish uchun juda qulay jarayon hisoblanadi. Chunki aynan saylovlarda dabdaba, vahima, ziddiyat, musibat va kulminatsiya bo‘lishi kafolatlanadi”¹.

¹ Ги Дебор. Общество спектакля. –М.: «ЛОГОС», 2000 г.

¹ Тамбия С. Национальное государство, демократия и этнонационалистический конфликт// Этничность и власть в полиэтнических государствах. –М.: «Наука», 1994, с. 58.

Siyosiy tomoshalarning rejissyorlari tomonidan tayyorlangan ssenariyga ko‘ra, ular nishonga olgan mamlakatda nosoz saylovlar o‘tkazilayotganligi haqidagi fikr uyg‘otishga zo‘r beriladi, shundagina ularning sohashtirilayotgani haqida insonlarda tasavvur tug‘dirshi osonlashadi. Yuqorida zikr etilganidek, “rangli inqilob”larning asosiy shartlaridan biri fuqarolarni tomoshabin-olomonga aylantirishdan iborat. Shu sababli, “rangli inqiloblar”dagi asosiy tomosha gij-gijlangan, junbushga kelgan olomonning poytaxt ko‘chalaridagi namoyishlari ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Maxsus texnik va badiiy vositalar yordamida qo‘yilgan bu tomosha ommaviy axborot vositalari orqali kursatilgach, “rangli inqiloblar” umumjahon miqyosida tomosha qilinadigan spektaklga aylanadi.

“Rangli inqilob”larning siyosiy tomoshaga aylantirilishining yana bir jihati - shou va kuy-qo‘shiqlar, turli musiqa uning muhim tarkibiy qismi sifatida ishlatilishidir. Masalan, hammamiz guvohi bo‘lganimiz Ukrainadagi “zarg‘aldoq inqilob” davomida musiqa doimiy jur bo‘ldi.

Deyarli barcha mashhur rok-ashulachilar Maydonda tinmay qo‘shiq kuylab, o‘ziga xos “bayram” kayfiyatini yaratib turadi. Ommaviy ongga ta'sir qilishning bunday vositalari samarasi ularoq siyosatdan uzoq it va mushuklarning bo‘yniga zarg‘aldoq lentalar bog‘landi. Siyosiy tomosha karnavalga aylanib ketadi².

Ukrainada qo‘llangan zamonaviy texnik vositalarning ta'sir kuchi haqida V.Osipov shunday yozadi: “Qiziq bir texnik jihat haqida alohida to‘xtalish joiz. Tasavvur qiling: muxolifat vakillaridan biri katta maydonda chiqish qilib, bir shiorni baralla aytadi. Shu laxzadayoq lazer yordamida bu shior uylarning devorlarida nur, lazer grafikasi yordamida yoritiladi. Bunday ta'sir qilishda barcha shiorlar, barcha fikrlar, ularning chin yoki soxta ekanidan qat'i nazar, hech bir e'tirozsiz va muhokamasiz qabul qilinadi. Hissiyotlari junbushga kelgan olomon bunday chaqiriqlarga hech bir mulohaza yuritmasdan, o‘ylab ham ko‘rmasdan “ha” deya javob beradi”¹. Tomosha muhitiga tushib qolgan inson sog‘lom fikrlash, tanqidiy tahlil qobiliyatini yo‘qotadi. Shu nuqtai nazardan, bugungi voqelik har

² Alisher Azizxo‘jaev. Chin O‘zbek ishi. –T.: “O‘zbekiston”. 2011 yil. 399-b.

¹ Кара-Мурза С.Г. Экспорт революции. Ющенко, Саакашвили... -М.: «Алгоритм», 2005, с. 86.

qanday davlat oldida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Axborot havfsizligini ta'minlash masalasining dunyo miqyosida qizg'in muhokama qilinayotgani ham bejiz emas. Bunday muhokamalarda axborotning insoniyat taraqqiyotidagi ijobiy rolini ta'kidlash bilan bir qatorda, undan xalqaro barqarorlik va xavfsizlikka ziyon yetkazish maqsadida foydalanish holatlari keskin qoralanmoqda.

Shuningdek, axborot texnologiyalaridan jinoyatkorona va terroristik maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligi haqida bong urilmoqda. O'z taraqqiyotining murakkab, o'tish bosqichini boshdan kechirayotgan mamlakatlar uchun bu muammo alohida dolzarflik kasb etadi. Chunki mamlakat manfaatlariga zid axborot xurujlari uning uchun ayniqsa havfli va halokatli tus oladi.

“Shuning uchun ham - bu Sharq yoki G'arb mamlakatlari bo'ladimi, olis Afrika yoki Osiyo qit'asi bo'ladimi - jahonning qaysi burchagida bo'lmasin, ma'naviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo'ladigan bo'lsa, o'zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o'ylab yashaydigan har bir ongli inson, har bir xalq tashvishga tushishi tabiiy, albatta. Bu haqida gapirganda, faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr yuritish masalani o'ta tor tushunish bo'lur edi. Ya'ni, bu o'rinda so'z faqat bizning ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan tajovuzlar haqida, azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ana shunday hujumlardan asrash xususidagina borayotgani yo'q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o'rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir” deb takidlaydi². Prezidentimiz I.A. Karimov.

Ana shunday tahlikali dunyoda milliy mafkura davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, milliy o'zlikni himoya qilish, madaniy o'ziga xoslikni asrash va axborot xurujlaridan himoyalanihning ma'naviy-ma'rifiy quroli sifatida namoyon bo'ladi. Odamlar ongini boshqarish harakatida yurgan kuchlarning domiga tushib qolmaslik uchun Prezidentimizning ushbu ko'rsatmalariga qat'iy amal qilish talab etiladi: “Mamlakatimiz va uning atrofida sodir bo'layotgan voqea-xodisalarga

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: “Ma'naviyat”, 2008. -B.11.

doimiy daxldorlik xissi bilan yashashimiz darkor. Toki shu yurtda yashaydigan har qaysi inson ana shu murakkab jarayonlardan har tomonlama habardor bo'lib, ularga nisbatan o'z fikri va munosabatiga ega bo'lsin, nima haqiqatu nima buxtun va uydirma ekanini anglab yeta olsun. Chunki hozirgi davrda, xalqaro maydonda turli siyosiy manfaatlar to'qnashayotgan murakkab bir sharoitda faqat o'z fikri, o'z hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lgan xalq va jamiyat yengilmas kuchga aylanib, o'z kelajagini o'z qo'li va aql-zakovati bilan ko'rishga qodir bo'ladi"¹. Shuning uchun yoshlarning har xil oqimlarga o'ralashib kirib qolmaslik uchun har birimiz ma'sul bo'lmog'imiz va hushyor turmog'imiz lozim. Tadqiqot ishimizda Sharq va G'arb yoshlarining ma'naviy olami haqida ham to'xtalib o'tishimiz zarur hisoblandi. Chunki bugungi kun yoshlarining bilim saviyasi va ularning ta'lim-tarbiyasi har bir mamlakatda o'ziga xos o'rinni egallab bularga chuqur e'tibor bilan qaralmoqda. Globallashuv sharoitida yoshlarni yod ma'navit hurujlar ta'siridan himoya qilish bugungi kunda muhim masalalardan biri bo'lib kun tartibida turibdi. Buning oldini olish uchun esa har xil chora-tadbirlar uylab toppish esa katta avlod vakillarining zimmasidagi yuk hisoblanmog'i shart.

¹ Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. "O'zbekiston ovozi", 2005 yil, 8 dekabr.

2.2. Sharq hordiq madaniyatining o'ziga xosligi

Umummehnatkashlarning madaniy dam olish, o'z ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, iste'dod va qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyatni uyushtiruvchidir. Odamlar bilan ishlashga da'vat etilgan madaniy-ma'rifiy xodimning qiyofasini vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak ahloqiy sifatlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki bu muassasalardagi har bir ommaviy tadbir, yakkama-yakka tartibdagi suhbat, to'garak yoki havaskorlik uyushmasining mashg'uloti odamlarda o'z ona yurtiga, xalqiga chuqur mehr-oqibat, muhabbat tuyg'ularini shakllarini rivojlantirishga, madaniy-ma'rifiy xodimlarning o'zida vatanparvarlik tuyg'ularini qanchalik mustahkam o'rin olganligiga, o'tkaziladigan tadbirlar mazmunini yangi maqsadga yo'naltirish va ularni bir yo'lga sola bilishiga, tadbir qatnashuvchilarida ijtimoiy foydali fazilatlarining shakllanishiga yordam beradigan ish shakllari va usullarini tanlab, ulardan to'g'ri foydalana olishga bog'liq bo'ladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar xodimlari mehnatkashlar o'rtasida g'oyaviy, siyosiy, ommaviy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga, ishlab chiqarish ilg'orlashishining joylarda namunaviy hayot kechirayotgan aholilarning tajribalari ommalashtirishga ommaning madaniy dam olishi va hordiq chiqarishini uyushtirishga, ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazadilar.

Madaniy-ma'rifiy xodimlar xalqqa xizmat qiladi. Xalqning madaniyatini saqlaydi, targ'iboa qiladi, yangi madaniyat va istirohat, san'at asarlarining paydo bo'lishida ularning roli nihoyatda kattadir. Ular xalq havfsizligini havaskorlik san'atini o'rganuvchilar, rivojlantiruvchilar, ommalashtiruvchilar, uning ijodini taraqqiy ettiruvchilar hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha oladigan o'tmish avlodlarining ilmiy, jangavor, mehnat mahorati an'alarining, ilg'or tajribalarini va ilmlarini meros qilib olgan ma'naviy pok, ahloqiy va jismoniy barkamol, mehnatsevar, insonparvarlik g'oyalariga sodiq qobiliyatini, izlanuvchan, bunyodkor, ijodkor shaxsni shakllantirish, mustaqil vatanimizning buyuk kelajagini yaratuvchi komil insonni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu tarbiyaning bosh yo‘li maqsadi yo‘lida komil ishonch bilan harakat qiladigan va qiyinchilikni yangi jamiyat quruvchilari tarbiyasi yo‘lidir, bu vazifalarni xalq etish har bir kishi ma’naviy hayotning barcha asosiy tamoyillarini rivojlantirish demakdir.

Sharqda barkamol avlodni tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy muassasalarning ahamiyati va o‘rni beqiyosdir. Shu o‘rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning tarbiya va ta’lim haqidagi quydagi fikrlariga to‘xtalib o‘tishimizni joiz deb bildik. “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi, bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir”¹ deb ta’kidlaydilar. Bu fikrlar nechog‘lik o‘rinli bildirilganligi biz uchun bir hayot maktabini qurishda qo‘l keladi desak aslo adashmagan bo‘lamiz. Shu o‘rinda madaniy ma’rifiy muassasalar yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadigan maskan bo‘lmog‘i va u yerdan yoshlar o‘zini qiziqtirgan savollarga javob topa oladigan darajadagi tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish muhimdir. Bu muassasalar ommaning ijtimoiy-siyosiy, badiiy havaskorlik ijodiyotini har tomonlama rivojlantirish, ularning madaniy dam olishini tashkil etish omillardan biridir.

Rekreativ sayllarda dam olish va hordiq chiqarish asosiy fo‘nksiyadir. Kalendar bayramlari va marosimlarida dam olish va hordiq chiqarish insonning tabiat bilan munosabatga kirishishidan keyin keladi. Ularda tabiatni o‘z istaklariga bo‘ysundirish, undan biror narsa so‘rash, tilash, xullas, uni o‘z saxovatini ayamaslikka, qilgan mehnatiga yarasha taqdirlashga undash yotadi. Ushbu kompensatsiya funksiyasi kalendar bayramlari va marosimlarida yitakchilik qiladi.

Rekreativ sayllarda esa kishining og‘ir mehnatdan keyingi psixofiziologik, faollikni nafaollik, jismoniy mehnatni aqliy mehnat, aqliy mehnatni xayol, orzu, tilaklar yoki hazil-o‘yinlar bilan almashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Rekreativ sayllarga «Yalpiz sayli», «Gul sayli», «Tog‘ sayli», «Dala sayli» kabi xalqimiz etnik madaniyatidan joy olgan ommaviy-madaniy tadbirlar kiradi. Yalpiz sayli. Bahordan darak beruvchi yalpiz soy bo‘ylarida va ariq

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat” 2008. –B. 19.

lablarida bo‘y cho‘za boshlashi bilanoq yosh qizaloqlar, bo‘y yitgan qizlar va ayollar yalpiz sayliga oshiqadilar. Yalpiz sayliga yo dugonalar yig‘ilishib, yo oilaviy bo‘lib chiqiladi. Ayollar yalpizlardan terib, omonlik-somonlik qilishadi, sof havoda davra qurib o‘tirib, o‘zlari bilan olib kelgan turli yeguliklardan tanovul qiladi, qo‘shiq aytib, raqsga tushadi, tabiat qo‘ynida miriqib dam oladi.

Gul sayli. Gul - yaxshilik, himmat, go‘zallik ramzidir. Gulni hurmat va ehtirom ramzi sifatida yoru-do‘stlarga taqdim etish, o‘zaro bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatini gul bilan izhor qilish an‘anasi kishilarni ezgo‘ niyat, mehr-oqibat, shafqat va diyonat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham xalqimiz etnik madaniyatida gul sayllari «Boychechak sayli», «Binafsha sayli», «Chuchmomo sayli», «Qizil gul sayli», «Lola sayli» keng o‘rin olgan. Bu sayllarning asosiy sub'yektlari - ayollar va qizlardir. Xorazm va Buxoroda «Qizil gul sayli», Farg‘ona vodiysi va Toshkent atroflarida «Lola sayli», tog‘li Denov tumanlarida «Sumbula» sayli, «Boychechak» sayli uyushtirilgan. Lola sayli qadimda «Guli surx» («Qizil gul») deb atalgan.

U ijtimoiy moxiyati va mazmuniga ko‘ra, kishilarning dam olish, ko‘ngil ochish, hordiq chiqarishiga mo‘ljallangan marosimdir. Lola saylida nafaqat lola, shu bilan birga chuchmomolar, qoqigullar, qizg‘aldoqlar terish, ularni bir-birlaridan ajratish, boshqalarga hadya etish an‘ana bo‘lgan. Qizlar va yosh qizaloqlar to‘planib bog‘larda gullar terishgan, sochlariga tolbergak to‘qishgan. Tolbergakni sochlariga taqib, o‘yin-kulgu qilishgan. Bahorlashib kelish. Erta bahorda shahar qizlarini qishloqlardagi qarindoshlari, dugonalari «bahorlashib ketinglar» deb, o‘z qishloqlariga mehmonga taklif qilishgan. Qish bo‘yi zerikkan, bahorni sog‘ingan qizlar aravalarda qishloqqa yo‘l olishgan, yo‘l bo‘yi lapar va qo‘shiqlar aytib, xursandchilik qilib borishgan.

Qishloqda ularni har kech bir xonadon soxibasi mehmonga chaqirgan. Qizlar dutor, doyra chalib, qo‘shiq aytib, raqsga tushishgan, she‘rxonlik, g‘azalxonlik qilishgan. Mehmon qizlar qishloqda bir necha kun hordiq chiqarishgan, qishloqning so‘lim, joylarida sayr qilishgan. Shu bilan birgalikda

shaharlik qizlar qishloq odamlari turmush-tarzi bilan yaqindan tanishishgan, qishloq xotin-qizlari bilan fikr almashishgan. Dugonalarni bir-birlarinikiga mehmonga borishlari bir yoqlama bo'lmay, qishloq qizlarining ham shaharlik dugonalarinikiga mehmonga borish an'analari bo'lgan. Dugonalar o'rtasidagi bordi-keldining ishtirokchilari faqat turmush qurmagan yosh qizlar bo'lmagan, ularga hamrox qilib ba'zan yoshi ulug'roq ayollardan birortasi yuborilgan. Qishloq qizlari ham o'z navbatida shaharda yayrab dam olgan, shahar hayoti bilan tanishgan.

Xalqimiz etnik madaniyatiga xos ushbu mehmonnavozlikning e'tiborga loyiq tomoni shundaki, mehmonga chaqiruvchilar faqat boy xonadon soxiblari bo'lmay, chor-nochor kun ko'rayotgan xonadon sohiblari ham bu an'anadan chetda qolmagan. Dugonalararo mehmonga boradigan qizlar asosan bo'y yitgan qizlar bo'lganligi, balki, ular keyingi bahorgacha turmushga uzatilib ketishi mumkinligi va hech qachon dugonalari davrasida qizlik davridagidek yayrab, o'ynab kulolmasligi uchun ham ota-onalar qo'llaridan kelganicha bu an'anani o'tkazishga harakat qilgan.

Bu an'ana orqali shahar va qishloq qizlari bir-birlaridan pazandalik, to'qish va tikish sirlarini, uy tutishni, o'zaro muomala madaniyatini, mehmon kutish odobini o'rgangan. Bir-birlari bilan fikr almashib, keksa yoshdagi ayollardan turmush saboqlari to'g'risidagi hikoya va rivoyatlarni tinglab, o'z dunyoqarashini oshirgan.

Tog' sayliga:

- a) bahorda tog' lolasi ochilganida;
- b) yozning jazirama kunlarida havo almashtirish niyatida;
- v) kuz faslida «do'lana sayli»ga;
- g) qish faslida «qor sayli»ga chiqishgan.

«Tog' sayli»ga odatda oilaviy yoki tengdoshlar yig'ilishib chiqish an'ana bo'lgan. Yoshlar tog' etagida o'yin-kulgu qilishgan, o'z kuchiga ishonganlar tog' cho'qqisiga ko'tarilgan. Ular tog' cho'qqisida turib dillaridagi niyatlarini

aytgan. O‘zlari bilan olib chiqqan idishlarda tog‘ cho‘qqisidan pastda qolganlarga qor olib tushgan.

«Tog‘ sayli» birinchidan, kishiga zarur ob-havoda bo‘lish, muhitni o‘zgartirish imkonini beradi. Ikkinchidan, kishi uy-ro‘zg‘or, kundalik tashvishlarini unutib, go‘zal tabiat qo‘ynida dam oladi. Uchinchidan, kishi o‘z muhiti tashvishlari bilan o‘ralashib qolmay, balki tog‘li xalqlarning turmush tarzi, yashash sharoiti, urf-odatlari bilan ham yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bu esa unda hayot rang-barangligidan baxra olish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bog‘ sayli o‘zbek etnik madaniyatida juda qadimiy marosimligi bilan ajralib turadi. Ilgari qizaloqlar o‘gil bolalar bilan «Quvlashmashoq», «Bekinmashoq», «Jami-jami», «Oq terakmi-ko‘k terak», «Qizil durracha» kabi ko‘plab sog‘lomlashtirish, «Tez aytish», «Topishmoq aytish», «Maqol aytish», «Ertak aytish» kabi aqliy o‘yinlar o‘ynagan. Shu bilan birgalikda faqat qizlarga xos «Xola-xola», «Qo‘g‘irchoq», «Uy-uy», «Mehmon-mehmon», «Ona-bola» o‘yinlari mavjud edi. U Qarboyevning yozishiga ko‘ra, «Hammabop o‘yinlar bilan bir qatorda o‘gil bolalar va qizlar o‘yinlari, keyinchalik esa erkak va ayollar o‘yinlari bo‘lgan. O‘gil va qiz bolalarga xos instinkt 2-3 yoshdan namoyon bo‘la boshlaydi. Masalan, yosh qizchalarda qo‘g‘irchoq o‘yiniga moyillik sezilsa, o‘gil bolalar esa ish va urush qurollariga o‘xshash o‘yinchoqlar tanlab o‘ynashadi... Qizlar esa: «Durra», «Chori-chanbar», «Tortishmashoq», «Bolkon-bolkon», «Anaqay», «Bakki (Cheqimto‘sh, Tuppa to‘sh)», «Qoz-qoz» kabi o‘yinlar o‘ynashgan»¹.

Qizlarning 9-10 yoshga to‘lganlaridan keyin, o‘gil bolalar bilan birga o‘ynashi uyat hisoblangan. Qizlar begona kishilarning ko‘zi tushmaydigan pana joylarda, bog‘larda to‘planib, o‘yin-kulgu qilishgan, dam olishgan. Misol uchun, qizlardan birining bog‘ida to‘planishib, mevali daraxtning shoxiga arqon osib, arg‘imchoq uchishgan. Odatda arg‘imchoqlar mevasiz daraxtning shoxiga osilmagan, sababi qizlar kelajakda farzandsiz bo‘lib qolmasin, degan irim bo‘lgan.

¹Usmon Qoraboev. O‘zbek xalq o‘yinlari. –T.: “San’at” nashriyoti. 2001 y.

Bir qarashda arziyas tuyuladigan ushbu irim-sirim ham o'zbek xalqi etnik madaniyatida bolajonlik naqadar muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

«Bog' sayli» xalqimiz orasida juda ommalashib ketgan an'analardan biridir. Bugun O'zbekistonning deyarli barcha shahar va tuman markazlarida istirohat bog'lari mavjud.

Ularda nafaqat yashil o'simliklar, gullar va daraxtlar, balki, turli o'yinxonalar, tamaddixonalar, raqsonalar, ko'l, cho'milish joylari va shunga o'xshash dam olish o'choqlari faoliyat ko'rsatadi.

Dala saylida xalqimizning yerga, ona zaminimizga cheksiz mehr-muhabbati namoyon bo'ladi. Undan maqsad dala, daryo bo'ylari, adir va tog'lar, o'rmon joylarga borib sayr qilish, tabiat go'zalligidan, sof havodan, o'simliklarning, gullarning muattar xidlari, chiroyi, zilol suvlarning salqinidan baxramand bo'lishdir. Ayollar dala saylida qo'shiq aytib, dilida yig'ilgan his-tuyg'ularini kuy orqali ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Shuning uchun, u kishiga badiiy-estetik zavq beradi, 62 ko'ngilli dam olishni ta'minlaydi, hamjihatlikni mustaxkamlaydi. Hozirgi kunda ba'zi (ko'proq shaharlik) ayollar o'z «Gap»ini dala saylida o'tkazmoqdalarki, bu marosim ishtirokchilariga maroqli dam olish, roxatlanib cho'milish, gul terish va turli mevalardan baxramand bo'lish imkonini bermoqda. Tabiat bilan bog'lik marosimlarda kishilarimizning borlikka, yon-atrofga, dunyoning ontologik asoslariga bo'lgan munosabatlari o'z aksini topadi. Ularda ajdodlarimizning farovon turmush kechirishi uchun muhim bo'lgan tabiat xodisalariga, suv, yir, havoga bevosita murojaat etish kabi mifologik tasavvurlari ham uyg'unlashib keladi.

Huddi shuningdek, tabiat bilan bog'liq marosimlarda kalendar bayramlari va rekreativ belgilarni ham ko'rish mumkin. Lekin, ulardagi bosh maqsad tabiatni inson iltijolariga muvofiq rahimdil, mehribon, saxiy bo'lishga undashdir. Tabiat bilan bog'liq marosimlarga «Sus xotin», «Suvda cho'milish», «Olov xotin», «Choy momo» kabilarni kiritish mumkin. «Sus xotin» marosimi O'rta Osiyo xalqlarining suvga bo'lgan baland e'tiqodidan kelib chiqqan. «Qadimdan O'rta Osiyo xalqlari ikki xil yo'l bilan sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelganlar. Bular:

soʻnʻiy hamda tabiiy sugʻorishga asoslangan dehqonchilik rayonlaridan iborat. Soʻnʻiy sugʻorishga asoslanmagan territoriyalarda yashovchi aholi bahor oylarida yogʻin boʻlmay qurgʻoqchilik boshlansa, «Sus xotin», «Sut xotin», «Suv xotin», «Chala xotin» kabi bir necha nomlar bilan yuritilovchi yomgʻir chaqirish marosimlarini oʻtkazishgan.»¹

«Sus xotin» zardushtiylik davridan buyon mavjud boʻlgan marosimlardan biri boʻlib, u:

- marosimni tashkil etish;
- marosimni oʻtkazish;
- is chiqarish tartibida oʻtkazilgan.

Bahorda yomgʻir yogʻmay, qurgʻoqchilik boʻlishi chorvaning qirilib ketishiga, ocharchilikka olib kelgan. Qadimda kishilar qurgʻoqchilik sababi gunohdarning koʻpayib ketganligida deb bilishgan. Qishloq oqsoqollari soʻzga chechan, tashkilotchi ayollarni chaqirib, ularga «Sus xotin» marosimini tashkil etish haqida koʻrsatma bergan. Marosimni oʻtkazish vaqtida oʻt-oʻlan, mayda shox-shabbadan ulkan ayol qiyofasidagi «Sus xotin» gavdasi yasalgan. Uni tiklab qoʻyib, atrofidan aylangan holda «Sus xotin» termalari aytilib, marosim ijro etilgan. Har kim chelakda, koʻza-yu kosada, hatto qoʻlida ariqdan suv olib, «Sus xotin»ga sepgan... Albatta, bu odat xaftaning xosiyatli kunlari sanalgan yakshanba, payshanba, juma kunlari oʻtkazilgan. Marosimda quyidagi qoʻshiq kuylangan:

Havolarni yogʻdirgin, sust xotin,

Bugʻdoylarni boʻldirgin, sust xotin.

Osmondan tomchi tashlab, sust xotin,

Elu yurtni toʻydirgin, sust xotin.

«Sust xotin» qoʻshigʻini bir ayol aytib turgan, uning naqorat qismini hamma baravar takrorlagan:

Sust xotin, sulton xotin,

Koʻlankasi maydon xotin,

¹ Ashirov A. Oʻzbek xalqining qadimiy eʼtiqodi va marosimlari. –T.: A.Navoiy nmidagi Oʻzbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. -275 b.

Sust xotinga ne kerak?

Sharros, sharros yomg'ir kerak.

So'nggi bosqichda maxsus joyda butun aholi nomidan is chiqarilgan. Zardushtiylikka xos kuygina marosimlar o'zbek etnik madaniyatidan joy olgan. To'g'ri, ularning barchasi saqlanib qolgan emas, ayrimlari yo transformatsiyaga uchragan yoki unutilgan. Shunday marosimlardan biri «O't ona», «Olov ayol»dir. Bu marosim uchun tajribali, mas'uliyatli, zardushtiylar urf-odatlarini bilgan ayol tanlab olingan va u o'z vazifasini (o'tni asrash) bajarishga maxsus rasm-rusumlar bajarilganidan keyin kirishgan. «Choy momo» marosimi kuchli bo'ron yoki to'fonni og'ir mehnat bilan yitishtirilgan ekinlarni payxon qilmaslikka, meva-chevalarni bevaqt to'kmaslikka chaqirishga qaratilgandir. Marosim qatnashchilari asosan ayollar bo'lib, ular shamol homiysidan tabiatdagi yovo'z kuchlarni jilovlashni so'rashgan.

Albatta, xalqimizning rekreativ - dam olish va hordiq chiqarish an'analari keyingi yillarda keskin transformatsiyaga uchramoqda. Ushbu novatsion va innovatsion o'zgarishlar tabiiy xoldir, ammo xalqimiz etnik madaniyatidagi o'z qimmatini yo'qotmagan dam olish va hordiq chiqarish an'alarini asrash, ulardan samarali foydalanish ham muxdmdir. Sog'lom jamiyat, E. From aytganidek, faqat «shaxs erki va ehtiyojlarini qondirishga munosib shart-sharoitlar» yaratish bilangina emas, shu bilan birga xalq, millat etnik madaniyati, etnopsixologiyasiga va an'alariga tayangan holdagina barpo etiladi. Ana shundagina jamiyatda inqiloblarsiz, ag'dar-to'ntarsiz evolyutsion rivojlanish ta'minlanadi.

Bo'sh vaqt va undan foydalanish ijtimoiy hayotga jalb etishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Vaqtga munosabat - hayotga munosabat, kishining o'z burchiga, hayotiy maqsadlariga munosabatidir. «Vaqtimizning bir qismini tortib oladilar, deb yozgan edi bundan ikki ming yil oldin Seneka,-bir qismini o'g'irlydilar, bir qismi esa bexuda o'tadi. Biroq hammasidan uyatlisi, uni o'zimizning befarqligimiz tufayli yo'qolganidir.»

Vaqtning ijtimoiy ahamiyati oshib borayotgan va shaxsning faol hayot tarzi uchun imkoniyatlar kengaygan hozirgi paytda vaqtning qadriga yetmaslik mumkin emas. Chunki, vaqt borliqni, o'z navbatida insonning ham o'zgarishini belgilovchi me'yordir. Shuning uchun ham madaniyatshunoslar bo'sh vaqtni inson ijodiy faoliyatidagi jarayonlar bilan dialektik bog'liqlikda o'rganadi va insondagi ijodiy kuchlarning ro'yobga chiqishini bo'sh vaqtning hajmi va undan foydalanish ko'nikmalari bilan bog'laydi. Xalqimizning kuniga necha soat bo'sh vaqti borligini aytish qiyin, chunki bu borada rasmiy ham, ilmiy ham kuzatish o'tkazilmagan. Xalqimiz tafakkuri va etnopsixologiyasida o'z xalqiga xos an'analarni saqlab qolish, hatto turmush qiyinchiliklariga chidab bo'lsa-da, ajdodlarimiz tarixiy-madaniy merosini asrash, uni kelgo'si avlodlarga yitkazish xususiyati mavjud.

O'zbek xalqining ushbu etnomadaniy belgilaridan milliy istiqloq nuqtai nazaridan ratsional foydalanish, ularni xalq ijodi va san'atini rivojlantirishga yo'naltirish, eng muhimi ijtimoiy-madaniy hayotimizda ro'y berayotgan novatsion va innovatsion o'zgarishlarga, jamiyati modernizatsiyalash jarayonlariga xalqimizni kengroq va dadil jalb etish zarur. Etnik madaniyatning mavjudlik sharti, uni ijtimoiy-madaniy hayotda tarixiy-madaniy paradigma sifatida barqaror bo'lishi xalqimizning ma'naviy-madaniy qiziqishlariga bevosita bog'liqdir. Ushbu qiziqishlar qanchalik rang-barang va zamonaviy ehtiyojlarga, talablarga javob bersa, bir tomondan, an'anaviy madaniyat (etnik madaniyat)ni avaylab asrash uchun muhim ijodiy muhit yaratilgan, ikkinchi tomondan, etnik madaniyatni modernizatsiyalash orqali uni ijtimoiy hayotning real (ijtimoiy-madaniy) muammolarini hal etish vositasi topilgan bo'ladi.

II bob bo'yicha xulosa

Madaniyat, ijodkorlik va dam olish sohasida Yevropa hamda Amerkaning ko'plab mamlakatlari o'rtasidagi xalqaro aloqalar kengayib borayotgan sharoitda bo'sh vaqt mutaraqiy hayotning bir qismiga aylanmoqda, millatning ma'naviy holatini yaxshilamoqda. Ijtimoiy ochiq madaniy faoliyat g'oyasiga hozirgi oid, har bir kishi bo'sh vaqt sohasida mutlaqo yangicha saviyadagi ehtiyojlarga ega bo'ladi, degan juda oddiy fikr asos qilib olingan.

Hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyatda bo'sh vaqt ijtimoiy anglangan zarurat sifatida namayon bo'ladi. Jamiyat, butun hayotimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ma'naviy yangilash maqsadida kishilarning bo'sh vaqtdan samarali foydalanishdan juda ham manfaatdordir. Bo'sh vaqtni o'zlashtirishga, bo'sh vaqt dasturlarini, markazlarini va zonalarini loyhalashtirishga tashqi ijtimoiy buyurtma shu nuqtai nazardan shakllantiriladi.

Hozirgi paytda bo'sh vaqtning ijtimoiy-madaniy katigoriyasi sifatida jamiyat hayotidagi ahamiyati jiddiy ravishda qayta baholanmoqda. Ko'p yillar davomida ishlab chiqarish sohasining qo'shimcha rolini bajarib kelgan bo'sh vaqt jamiyatning ijodiy va ma'naviy salohiyati namoyon bo'ladigan sohaga tobora kengiroq aylanib bormoqda.

Shunday qilib, bo'sh vaqtni shakllantirishning asosiy kuchi bo'lgan madaniy-ma'rifiy muassasalar orqali madaniy hordiq chiqarishni taminlashda katta imkoniyatlarga egadir. Sharq va G'arb hordiq madaniyatining o'ziga xosligi va ularda yoshlarning bo'sh vaqtlaridan qay yusinda foydalanayotganligining guvohi bo'ldik. Bu ishlarni yanda jadallshtirish ya'ni yoshlarning bo'sh vaqtdan unimli foydalanish uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni va har xil qiziqarli to'garaklarni tashkil qilib, ularning faoliyatlarini nazorat qilib borish yod g'oyalar ta'siridan yoshlarning ongini asrash juda muhim masaladir.

III BOB. MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARINING AHOLI HORDIG'INI TASHKIL ETISH BO'YICHA FAOLIYATLARI

3.1. Madaniy-ma'rifiy muassasalarining shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin tarixan qisqa vaqt ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalarda juda katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Chunonchi, o'z tarixini o'rganish ulug' ajdodlar qoldirgan boy madaniy-ma'naviy merosni o'rganishga ega bo'ldi, o'zlikni anglashi, milliy g'ururi qayta tiklandi. Respublikamizda ilm-fan o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi. Ushbu qo'llanilayotgan ijobiy ishlarning barchasi kelajagimiz tayanchi hisoblangan yoshlarni har tomonlama ham jismonan, ham ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Zero, kelajak ijodkori hisoblangan yoshlar ongida Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, milliy ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni davr taqozo etmoqda. Bugungi kun taraqqiyot, ma'naviy mustaqillik o'zini anglagan, ya'ni o'z ona tili, yozuvi, madaniyat tarixini puxta bilgan, o'z xalqining urf-odatlaridan, odob ahloq normalaridan, an'alaridan habardor bo'lgan kishigina jamiyat hayotida faol ishtirok eta olishini ko'rsatmoqda.

Mustaqil Vatanimiz yangi huquqiy fuqarolik jamiyati qurish yo'lida dadil qadamlar bilan odimlanib borar ekan, jahon sahnasida kelajagi buyuk davlat degan bir orzu intilish bilan namoyon bo'lmoqda. Ma'lumki, har bir davlatning ravnaqi, uning fuqarolarini salohiyati, bilimdonligi, ishonch-e'tiqodi, hamda shunga munosib tarzda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishi bilan chambarchas bog'liq.

Shunday ekan yosh davlat uchun ertangi kunimiz egasi bo'lgan bolalarni tarbiyalash, shubhasiz, birinchi sonli muammo va tadbirlardan hisoblanadi. Bugun biz bolalarni tarbiyalashda halollik, to'g'rilikni, bayroq qilib olishimiz, buzilgan

mafkuramizni tiklashimiz, imon-e'tiqodiga suyangan holda boshlashimiz lozim bo'ladi.

Bolaga ta'lim va tarbiya berish jarayonida asosan bilim va odob-ahloq, ma'naviy oziq berish bilan bir qatorda ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli, biror kasb va hunar mahoratini takomillashtirishga qaratgan holda tashkil etish alohida ahamiyatga ega.

Jamiyat ma'naviy taraqqiyotini belgilaydigan bolalar tarbiyasi bilan nafaqat davlat balki tegishli vazirliklar, har bir idora, korxonalar, madaniy-ma'rifiy muassasalar o'z vatani shanini yuksaltirgan har bir inson shug'allanishi kerak.

Bolalar tarbiyasi hurlik masalasiga har doim kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida qarashimiz lozim. Ularning har bir hatti-harakati o'z vaqtida baholanishi, to'g'ri yo'lga solinishi kerak.

Bolalar bir necha pog'onada tarbiya topadilar. Bunga oila, bog'cha, maktab, mahalla va boshqa muassasalar kiradi. Bugungi kunda maktab va ta'lim dargohlaridan keyin bola qolgan bo'sh vaqtini qanday o'tkazadi? Bu ish bilan oila boshliqlari muntazam shug'ullana olyaptilarmi? Yoshlar hayotida duch kelayotgan shunday muammolarni hal qilish uchun madaniy-ma'rifiy sohani rivojlantirish, madaniy- ma'rifiy xodimga yangicha fikr, mulohaza va g'oyalar berish lozim.

Yoshlarni komil inson bo'lib shakllanishida madaniy- ma'rifiy xodimning o'rni beqiyos. Prezidentimiz I.A. Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka taqdid, barqarorlik shartlar va taraqqiyot kafolatlari" asarida, "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlarning mazmuni va maqsadi O'zbekistonning har bir fuqarosi millati, dini va maslagidan qat'iy nazar shaxs sifatida namoyon etish o'z hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma'naviy boyroq qilish imkoniyatiga ega bo'ladigan shartlarni yaratishdan iborat", - deb takidlaydi¹. Shu maqsadni ko'zlab O'zbekistonda "Ijtimoiy fikr, jamoatchilik markazi tuzildi va o'z ishini boshladi. Mazkur markazni tuzishdan maqsad, O'zbekistonda barcha demokratik islohatlarning chuqurlashtirish, inson huquqlarini ta'minlash, fuqarolar,

¹ I.A. Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka taqdid, barqarorlik shartlar va taraqqiyot kafolatlari".- T.: "O'zbekiston", 1997. 97-99-betlar.

jamiyat va davlat manfaatini tadqiq qilish, ularning o'zaro hamjihatligi mohiyatini o'rganish bilan shug'ullanuvchi hukmatga qarashli bo'lmagan tashkilotdir. Shu bilan birga hokimiyat idoralari bilan jamiyatning o'zaro ta'siri, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilinishi, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy - ma'rifiy, madaniy yangilanishni chuqurlashtirish masalalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar rivojining boshqa dolzarb muammolari bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish, kishilar dunyo qarashini shakllanishidagi jarayon va tamoyillarini siyosiy, iqtisodiy, ahloqiy, huquqiy ongning holati va mazmunini aniqlash, o'rganish, madaniy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Madaniy-ma'rifiy xodimning malakali faoliyati o'z mohiyati bilan tarbiyaviy ishdir. Uning asosiy vazifasi har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishdan iboratdir.

Madaniy-ma'rifiy xodim mustaqil O'zbekistonning milliy siyosatini targ'ibotchisi, mehnat va ahloqiy jihatdan kishilarni tarbiyalash ommaviy havaskorlik ijodiyotini rivojlantirish ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash ishi bilan shug'ullanadi. U mehnatkashlarning madaniy dam olishiga, o'z ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga iste'dod va qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyatini uyushtiruvchidir.

Odamlar bilan va odamlar uchun ishlashga davat etilgan madaniy-ma'rifiy xodimning qiyofasini vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak ahloqiy sifatlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki bu muassasalardagi bir ommaviy tadbir, yakkama-yakka tartibdagi suhbat, to'garak yok havaskorlik uyushmasining mashg'uloti odamlarda o'z ona yurtiga, xalqiga chuqur mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirishga, vatanparvarlik xissini mustahkamlashga yordam berishi kerak. Bu esa madaniy-ma'rifiy xodimning o'zida vatanparvarlik tuyg'ularini qanchalik chuqur va mustahkam o'rin olganligiga, o'tkaziladigan tadbirlar mazmunini yagona madaniy-ma'rifiy maqsadga yo'naltira bilishga, tadbir qatnashchilarida ishtimoiy foydali fazilatlarining shakllanishiga yordam beradigan ish shakllari va usullari tanlab, ulardan to'g'ri foydalana olishiga bog'liq bo'ladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar xodimlari mehnatkashlar o'rtasida g'oyaviy-siyoviy ommaviy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga, ishlab chiqarish ilg'orlarining joylarda namunali hayot kechirayotgan oilalarni tajribalarini ommalashtirishga, ommaning madaniy dam olishi va hordiq chiqarishini uyushtirishga ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazadilar.

Madaniy-ma'rifiy xodimlar xalqqa xizmat qiladi, xalqning madaniyatini saqlaydi, targ'ib qiladi, yangi madaniyat va san'at asarlarining paydo bo'lishida ularning roli nihoyatda kattadir. Ular xalq havaskorlik san'atini o'rganuvchilar, rivojlantirishuvchilar, ommalashtiruvchilar, uning ijodiyotini taraqqiy ettiruvchilar hisoblanadi.

Jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan o'tmish avlodlarning ilmiy jangovar, mehnat shuhrati an'analarini ilg'or tajribalarni va bilimlarni meros qilib olgan. Ma'naviy pok, aqloqiy va jismoniy barkamol, mehnatsevar, insonparvarlik g'oyalariga sodiq qobiliyatli, izlanuvchi bunyodkor shaxsni shakllantirish, mustaqil vatanimizning buyuk kelajagini yaratuvchi komil inson tarbiyasi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu tarbiyaning bosh yo'li madaniy-ma'rifiy maqsad yo'lida komil inson bilan harakat qiladigan va qiyinchiliklarni yengadigan oliyjanob, insonparvar kishini - yangi jamiyat quruvchisini tarbiyalash yo'lidir. Bu vazifani hal etish har bir kishi ma'anviy hayotining barcha asosiy tamonlarini rivojlantirish demakdir.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy muassasalarning ahamiyati va o'рни beqiyos. Bu muassasalardagi tarbiya usuli maktablarda, oliy o'quv yurtlarida qabul qilingan tarbiya usulidan tubdan farq qiladi. Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi milliy mafkuraviy tarbiya ishlari umumiy pedagogikaning ta'lim va tarbiya tamoyillariga asoslanadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda bu dargohga keluvchilarning ko'ngilligiga tayanadi. Chunki bu tashkilotlarga insonlar ixtiyoriy ravishda keladilar. Maktablarga o'quv yurtlariga kishilar o'z hayotiy ehtiyojlari bilim olish, kasb o'rganish, biron bir mutaxassisilikni egallash uchun boradilar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarga aholining turli qatlami o'zining ma'naviy talab va istaklarini bayon etish havaskorlik ijodini rivojlantirish, madaniy dam olish, hordiq chiqarish, xalqaro ahvolda mamlakatning ichki va tashqi siyosatida sodir bo'layotgan voqealar haqida axborotlar olish, do'stlar, o'rtoqlari bilan suhbatlashish kabi hayotiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun tashrif buyuradilar. Shuning uchun ham bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarni olib borish, tarbiyaviy jarayonni boshqarish, kishilarga tarbiyaviy ta'sir etish ishlari ancha murakkabdir.

Bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarni uyushtirish uchun dastavval aholi turli qatlamlarining ma'naviy talab va istaklarini madaniy saviyasini kasbi va mutahassisligini ommaviy axborot vositalari orqali va mustaqil o'qish natijasida yangi bilimlari darajasini hisobga olish zarurdir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda tarbiyaviy ishlar uning qatnashchilari uchun muntazamlik harakteriga ega emas. Chunki, ularning qatnashchilari muntazam ravishda o'zgarib turadi. Bir tadbirda qatnashgan kishi ikkinchi tadbirga qatnashmasligi mumkin. Shuning uchun ular kishiga muntazam tarbiyaviy ta'sir etish imkoniyatidan mahrum. O'quv yurtlarida esa tarbiyaviy ishlar kishilarning ma'lum guruhi uchun qat'iy belgilangan reja va ish shakllari, usullari yordamida rahbarning bevosita muntazam ta'siri ostida olib boriladi.

Bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarni olib borishda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilishi lozim bo'lgan kishilarning ijodiy tashabbusiga, ularning faolligi, tashkilotchiligiga tayaniladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasaning har bir tadbir qatnashchisi ham tarbiyalanuvchi ham tarbiyachi sifatida qatnashish imkoniyatiga egadir. O'quv yurtlarida esa tarbiyaviy ta'sir etish obyektiga o'quvchilar, talabalar hisoblanib, ular faqatgina tarbiyalanuvchi sifatida namoyon bo'ladilar.

Mehnatkashlarning madaniy dam olishi, hordiq chiqarishi, bir-birlari bilan munosabatda bo'lishi bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi, o'zi qiziqqan sohasi bilan shug'ullanishi, bu bevosita madaniy-ma'rifiy markazlar bilan bog'liq.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar asosan quyidagi turlarga bo'linadi: kutubxonalar, madaniyat va ma'rifat markazlari, muzeylar, madaniyat va istirohat bog'laridir. Kutubxonalar - ma'rifat va axborot vositalari, qiroatxonalar demakdir. Madaniyat va ma'rifat Respublika shahar, tuman, mahalla guzarlari, madaniyat va aholi dam olish markazlari madaniyat saroylar kiradi. Madaniy-ma'rifiy ishlarning oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan biri aholi turli guruhlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan g'oyaviy siyosiy, tarbiyaviy ishlarni uyushtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Turli millatning mehnatkashlari o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni uyushtirishda eng avvalo ularning tilini, o'ziga xos xususiyatlarini, ruhiyatini, turmush-tarzini hisobga olish zarurdir. Bu muassasa xodimlari aholining doimo o'sib kelayotgan talabi, ehtiyoji va qiziqishini har tomonlama qondirishga qaratilgan, bo'sh vaqtini oqilona tashkil etishni nazarda tutgan holda g'oyaviy siyosiy, madaniy-tarbiyaviy, ommaviy tadbirlarni uyushtiradilar. Kishilarning o'zaro muloqotini uyushtirish turli tuman hayotiy masalalar va siyosatdagi kundalik dolzarb muammolarni erkin muhokama qilish yo'li bilan madaniy-ma'rifiy muassasalar jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi paytda madaniy-ma'rifiy muassasalarning eng muhim vazifasi-mehnatkashlarning dam olishini uyushtirishdir. Bu muassasalar ommaning ko'ngilli hordiq chiqarishini uyushtirishda turmushimizda mavjud bo'lgan turli an'analar, urf-odatlardan keng foydalaniladi. Ular ommani bo'sh vaqtlarini, dam olish soatlarini mazmunli o'tkazishga, madaniy hordiq chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar oldiga qo'yilgan vazifalar va talablar tarixiy jarayonning rivojlanishi natijasida vujudga keldi va mustaqil mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti, xalq xo'jaligi, fan natijasida gurkirab ya'nada takomillashib bormoqda. Madaniy - ma'rifiy muassasalarning vazifalari va ular oldiga qo'yilgan talablar bir-birini to'ldiradi, tarbiyaviy ishlarni ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Madaniy- ma'rifatchilik kasbi inson faoliyatining barcha sohalari singari o'z xususiyatlariga ega. Uning eng asosiy xususiyati madaniy-ma'rifiy ishlarni hayot

bilan mustaqil vatanning o'ziga xos milliy siyosati bilan mustahkam bog'langanligidadir. Madaniy-ma'rifatchilik kasbining yana bir xususiyati shundan iboratki, u muntazam izlanishlarni, ishga hamma vaqt ijodiy yondashishni talab qiladi.

Madaniy-ma'rifiy ishlar pedagogik faoliyatning boshqa turlaridan o'zining mazmunan murakkabligi, ko'p qirraliligi shaklan nihoyatda xilma-xilligi, ish shakllarining o'ziga xos tarzda bir-biriga chatishib ketganligi bilan farq qiladi. Bundan tashqari madaniy-ma'rifiy muassasalarda ommaviy axborot, san'at vositalari, texnik va ommaning havaskorligini, ijodiy tashabbusini tashkil etishning o'ziga xos usullari ham qo'llaniladi.

Madaniy-ma'rifiy xodim barcha tarbiyachi pedagoglar qatori - tarbiyaning hamma yo'nalishlari, aqliy, mehnat, ahloqiy, estetik masalalar bilan shug'ullanadi. Lekin, u bundan ko'p qirrali tarbiyaviy ishlarni maktab va boshqa o'quv yurtlari o'qituvchilari faoliyatida bo'lganidek, asosan bir xil yoshdagi bir xil tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar yoki talabalar bilan emas, balki yoshi, kasbi, bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlari turlicha bo'lgan kishilar orasida olib boradi. Bu kasb ega oldiga omma o'rtasida bilim tarqatish, odamlarning ma'naviy ehtiyojini qondirish, qobiliyat va istedodlarini o'stirishda ular yordam berish, mehnatkashlarning madaniy hordiq chiqarishini uyushtirish kabi vazifalar qo'yilgan.

Bilimlar targ'ibotchisi, ommaning mustaqil o'qib bilim olishining tashkilotchisi hisoblangan madaniy-ma'rifiy xodim yuksak darajadagi dunyoqarash madaniyatini, ya'ni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va falsafiy bilimlar majmuini egallagan bo'lishi kerak.

Madaniy-ma'rifiy xodim uchun eng ilg'or bo'lgan bilim tarmoqlaridan biri - bu pedagogik bilimlar bo'lib, u olib boriladigan ta'lim hamda g'oyaviy tarbiyaviy ishlarning mazmuni va mohiyatini chuqur tushunib olishda, odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning yo'llari va vositalarini bo'sh vaqt sharoitida odamlar o'rtasida o'zaro muloqat o'rnatishning eng samarali usullarini o'zlashtirib borish, ulardan oqilona foydalanish yo'llarini o'rganishda yordam beradi.

Odamlarda havas uyg'ota olish ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini to'laroq qondira bilish san'atidir. Bu san'at pedagogik odobni egallashni ta'lim - tarbiya ishlarini uddalay bilishni talab qiladi. Bunday bilim va ko'nikmalar asosida madaniy-ma'rifiy xodimning pedagogik mahorati shakllanadi, uning tarbiyachilik iste'dodi va qobiliyatlari o'stiriladi.

Madaniy-ma'rifiy xodim malakaviy madaniyatning yana bir ko'rsatgichi- bu psixologik bilimlardir. Faqat psixik qonuniyatlarning chuqur o'zlashtirishi, ishni uyushtirishda qatnashchilarning individual psixologi xususiyatlarini hisobga olish asosidagina tarbiyaviy jarayonni to'g'ri uyushtirish va uning samarali bo'lishini ta'minlash mumkin.

Bu sohadagi xodim har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish vazifasini bajarishda odamlarning g'oyaviy, ahloqiy va estetik tarbiyalashning kuchli vositalari bo'lgan san'at va adabiyotdan keng foydalaniladi. U har bir kishida uning o'ziga xos qiziqishi bo'lishi kerakligini, busiz hayoti zerikarli bo'lishini tushuntiradi.

Madaniy-ma'rifiy xodim - pedagog, tarbiyachi, odamlarning aql idroki va qalbiga yo'l topish uchun kurashuvchi shaxsdir. U ommani siyosiy, g'oyaviy, iqtisodiy, san'at va adabiyotni targ'ib qilish orqali tarbiyalaydi. Bunday vazifalarni bajarish uchun soha xodimiga mehribonlik va rahimdillik, muloyimlik va xushmuomalalik kabi xislatlar umuman, madaniy-ma'rifiy faoliyatning yuksak darajada samarali bo'lishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Madaniy-ma'rifiy xodim uchun eng zarur karakter xislatlari-bu odamlarga diqqat va hayrihoqona munosabatda bo'lish kamtarlik va o'ziga talabchanlikdir. Bu xislatlar madaniy-ma'rifiy xodimning odamlar bilan yaqinlashishiga ularning qalbiga yo'l topishiga yordam beradigan fazilatlardir. "Kamtarlik kishini bezatadi", - deydi xalqimiz. Agar murabbiy kekkaygan, maqtanchoq, barcha ishlarni o'z xizmati qilib ko'rsatadigan, buning ustiga yana munofiq bo'lsa, undan hamma kasbdoshlari boshqalar ham yuz o'giradi. Shuning uchun ham xalq pedagogikasi o'ziga yuksak darajadagi talabchanlik, haqiqiy oddiylik, tarbiyachilikning ahloqiy tarbiyachining ahloqiy qiyofasini bezaydi deb o'rgatadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligini oshiradigan omillardan biri bu - xodimning odobi. Madaniy-ma'rifiy xodimning pedagogik odobi bu - uning muayyan vaziyatda shaxsga va jamoaga tarbiyaviy ta'sir etishning madaniy-ma'rifiy maqsadga muvofiq usullari va yo'llarini qulay bilishdir. Odoblilikning rivojlanishi madaniy-ma'rifiy xodimning umumiy madaniyati, shaxsiy sifatlariga bog'liq bo'ladi. Pedagoglik odobi avvalo odam bilan muomila qilishda u bilan samimiy rostgo'y bo'lishda namoyon bo'ladi. Odam tug'ilgandan toki keksaygunga qadar rivojlanishda davom etar ekan, bu jarayon asosan muhit va tarbiya ta'siri ostida o'tib boradi. Odam faqat yoshlik davrida emas, balki keyingi butun hayoti davomida ham tarbiyalanadi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar o'z oldiga kutubxona, muzey, madaniyat uylariga xos bo'lgan vositalar usullar yordamida kattalar va yoshlarning bo'sht vaqtlarini oqilona tashkil etish, madaniy dam olishni uyushtirish, ularni yanada ilimli qilish, mustaqillik, milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash kabi vaziflarni qo'yadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarga o'z bilimini oshirish maqsadida keladigan kishilarning asosiy ma'lumotini, ijtimoiy mehnat tajribasini harakterining xilmaxilligini hisobga olib, ularning bilishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shakllantirish, rivojlantirishning eng to'g'ri va samarali yo'llarini ishlab chiqishda bu soha xodimlaridan katta g'ayrat va shijoat talab etiladi.

3.2. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlarning madaniy-hordiqiy tadbirlarini uyishtirish masalalari

Respublikamizdagi mustaqil huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uni o'zligini anglashga imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va ma'naviy intilektual, aqliy-amaliy rivojlanishi uchun yangi shart-sharoitlar yaratib beradi.

Hammamizga yaxshi, ma'lumki, yoshlik intilishlari chegara bilmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ezgu orzu-niyatlar bilan yonib yashayotgan yigit qizlarga ular ko'zlayotgan yuksak ufqlar, buyuk maqsadlar, avvalo, insonning o'zi uchun yurti va xalqi uchun foydali ekanligini ochib berish mumkin¹.

Bu o'z navbatida insoniyat yaratgan an'anaviy ilmiy boyliklarga, insonning o'ziga yangicha munosabat yondoshuvini yuzaga keltirdi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek "Fuqarolar endi ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi bajaruvchisi emas balki bunyodkori va tashkilotchisidir"².

Rivojlangan mamlakatlarning barchasida yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda ekskursiya va sayohatlar katta rol o'ynaydi.

Dunyo iqtisodiyotida xizmat doirasi tez o'sib bormoqda. Xalqaro ekspertlar fikricha keyingi yillarda ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi sotiladigan tovarlar hajmidan oshib ketdi. Xizmat ko'rsatish doirasida barcha korxonalar tez o'sib xizmat talabini yuqori darajada qondirishga harakat qilmoqdalar.

Bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar ayniqsa, ekskursiya va sayohatlarning imkoniyati kattadir. Ijtimoiy tarbiya maskanlarining orasida doim dam olishni tashkil etishning alohida bir usuli sifatida paydo bo'lgan madaniyat va aholi dam olish markazlarining o'рни bo'lakchadir. Chin ma'noda jamiyat a'zolarining har tomonlama yetuklikka erishishini xohlovchi jamiyat jadal taraqqiy etadi.

Hozirgi paytda yoshlarning bo'sh vaqtini samarali, ijtimoiy foydali qilib uyushtirish maxsus tadqiqotlarga moillik muammolardan biri bo'lib, u olimlarimiz

¹ Karimov I.A. Istiqloq va ma'naviyat-T: O'zbekiston 1995. 66-67 betlar.

² Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari.-T: O'zbekiston, 1997. 112-130 betlar.

va mutaxassislarimiz tomonidan jiddiy e'tiborni kutib turibdi. Bu boradagi ekskursiya va sayohatlar, hordiq chiqarish uchun xizmat qiladigan barcha sohalar tajribasi maxsus o'rganishni, umumlashtirishni, tahlil va targ'ib qilishni talab qilmoqda. Madaniy dam olish jarayoni deyarli barcha madaniyat tadbirlarida sodir bo'ladi. Biroq, madaniyat va aholi dam olish markazi shunday tadbirlarni tashkil qiladiki, ularda yoshlarning mazmunli dam olishi, hordiq chiqarish asosiy vazifa qilib qo'yiladi.

Dam olish tadbirlarida yoshlar, birinchi navbatda, mazmunli dam olsalar, ikkinchi navbatda, o'zlari qiziqqan soha bo'yicha va har xil foydali ma'lumotlar olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Ma'lumki yurtimiz aholisining 65 %ini yoshlar tashkil etadi. Demokratik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi yoshlar mamlakati deyishga ilmiy asoslar bor. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda "Har qaysi davlat yoki millat o'z farzandlari qiyofasida unib o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida, shu xalqqa xos eng go'zal fazilatlarni namoyon etadigan, uning ezgu-orzu niyatlarini amalga oshirishda mardliqlik, fidoyilik ko'rsatishga qodir bo'lgan o'z tayanchi va suyanchini ko'rishi tabiiydir"¹.

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergan barcha imkoniyatlar zahirida komilikka yetishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy hayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo'nalganligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining ham o'rni beqiyosdir.

Biz hammamiz hordiq, dam olishni yaxshi ko'ramiz, dam olishning keng tarqalgan turlaridan biri - turizm va ekskursiyadir. Ular har bir odam istagan narsasini topishi mumkinligi bilan juda zo'r va qulaydir. Kimgadir tog'lar yoqadi, kimgadir daryolar, kimdir suv xavzasida cho'milishni istaydi, boshqalar esa - o'z kuchining chidamliyligini sinamoqchi bo'ladi. Tarang tortilgan asablar ham, qiziq bo'lsa ham, charchoqni olishda, hordiq chiqarishda yordam berishi mumkin. Bunga butun dunyoda, ayniqsa Yevropa davlatlari hamda Rossiyada kuch

¹ Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish - ustuvor vazifalarimizdir. - T.: O'zbekiston, 2007. - B. 46.

to'plovchi ekstremal turizm xizmat qiladi. Bunday hordiq chiqarish turi juda keng tarqalib qulayliklarga ega bo'lmoqda. Bunday imkoniyatlardan o'z o'rnida yetarlicha foydalanib qolishimiz zarurdir.

Bugungi yoshlar ertaga jamiyatimizning taqdirini belgilovchi avloddir. Biz bugun yoshlarga qanday tarbiya bersak, bizning kelajagimiz ham o'shanday bo'ladi. Yoshlarni kelajakka munosib tayyorlash, ularga yaxshi ta'lim berish, ularni mehr-oqibatli, ilmparvar sahovatli, mehnatsevar, vatanparvar, odobli, axloqli qilib voyaga yetkazish jamiyatimizning asosiy vazifasi bo'lib qolmog'i lozim.

Bolalar tarbiyasi bilan oila, bolalar bog'chasi, maktab va boshqa bilim yurtlari shug'ullanishi barchaga ma'lum. Biroq ularning, ayniqsa, bilim yurtlarining tasarrufidan tashqarida yoshlarning o'qishdan, ishdan tashqari bo'sh vaqti qolmoqda. Bo'sh vaqtda esa bolalar xohlagan narsalari bilan shug'ullanmoqda. Bekor qolgan bolalarning muayyan qismi salbiy oqibatlarga olib keluvchi «faoliyatlar» bilan ham mashg'ul bo'lishmoqda.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar ayniqsa madaniyat va aholi dam olish markazlarining imkoniyati kattadir. O'quv yurtlari, asosan, bolalarga bilim-ta'lim berish bilan shug'ullansa, madaniy-ma'rifiy muassasalar ularning bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishga ko'mak beradi. Biroq, joylardagi madaniyat muassasalari aholining barcha qatlamlari uchun umumiy tadbirlar tayyorlashmoqda. Ular yoshlarning ehtiyoji, qiziqishi va ularning ruhiyatiga mos tadbirlarni tayyorlashga alohida e'tibor berishmayapdi. Natijada madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlarni ma'naviy, axloqiy, ruhiy, badiiy tarbiyalash borasidagi faoliyati kerakli darajadan past bo'lmoqda.

Hozirgi paytda yoshlarning bo'sh vaqtini samarali, ijtimoiy foydali qilib uyushtirish maxsus tadqiqotlarga molik muammolardan biri bo'lib, u olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan jiddiy e'tiborni kutib turibdi. Bu boradagi madaniy-ma'rifiy muassasalar tajribasi maxsus o'rganishni, umumlashtirishni, tahlil va targ'ib qilishni talab qilmoqda.

Biz tadqiqotimizda yuqorida qayd qilingan muammolardan kelib chiqib, madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlar uchun maxsus tadbirlar tayyorlash masalalariga to'xtalamiz. Madaniy-ma'rifiy faoliyati muassasalari yoshlarning sevimli maskani sifatida ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-siyosiy, badiiy havaskorlik ishlarni va bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirishda muhim rol o'ynamoqda.

Ma'lumki, madaniyat muassasalari o'z faoliyatlarini yoshlarning bo'sh vaqtida olib boradi. U yoshlarni asosiy ishi, o'qishdan tashqari har xil mazmun va shakldagi "ikkinchi" faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. Bu ko'ngilli faoliyat yoshlarning hordiq chiqarishga, bilimini, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xullas, madaniyat muassasalari, yoshlar uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:

-Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish.

-Havaskorlik ijodini uyushtirish.

-Madaniy dam olishni tashkil qilish.

Madaniyat markazlarida yoshlar uchun tadbirlar uyushtirishdan oldin mahalliy yoshlarning: ma'naviy ehtiyojlari, qiziqishlari, bilim darajalari, kasbi, madaniy saviyalari, ijodiy imkoniyatlari, vaqt byudjeti va bo'sh vaqti, tashabbuskorliyligi va uyushqoqliyligi kabi ko'plab omillar hisobga olinmog'i darkor. Aks holda madaniyat va aholi dam olish markazlarida tayyorlanadigan tadbirlar yoshlar uchun qiziqarli bo'lmay qoladi. Mazkur omillarni hisobga olish, o'rganish, bilish uchun yoshlar o'rtasida yozma va og'zaki so'rovlar, suhbatlar, kuzatishlar o'tkazilishi lozim. So'rovlarda yoshlarga: qaysi mavzular, qanday shakllar (tadbirlar), qaysi ta'sirchan g'oyaviy-badiiy va texnik vositalar yoqishini o'rganmoq lozim.

Yoshlarni qiziqtirgan mavzularni muayyan mantiqiy tizimga solib, ularning mazmuniga mos shakllar tanlab, yoshlar uchun maxsus tadbirlar rejasini tuzish lozim.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari xodimlari yoshlarni qiziqtirgan mavzuni mantiqiy tizimga solganidan so'ng. Ularga qanday shaklla, tadbirlar yoqishini ham aniqlash kerak. Madaniyat va aholi dam olish markazlarining ishi,

shakllari esa ko‘p va rang-barangdir: ma’ruza, ma’naviy muloqot, doklad, axborot, suhbat, seminar, munozara, konferensiya, ijodiy uchrashuvlar, savol-javob kechalari, og‘zaki, jurnal, kecha, konsert, spektakl, ommaviy tomosha, xalq sayllari, bayramlar, karnavallar, raqs kechalari, festival, diskotekalar, ekskursiya, madaniy sayr, viktorina, ko‘rgazma, ko‘rik-tanlov va hokazolar.

Aytaylik, yoshlar ko‘proq dam olish kechalari, ijodiy bahs, uchrashuvlar, diskoteka, estrada konsertlari, teatrlashgan tomosha, xalq sayllari, sayohat kabi shakllarni tanlashadi. Madaniyat va aholi dam olish markazlari xodimlari ko‘proq ana shu shakllardan foydalanmog‘i kerak.

Yoshlarni qiziqtirgan shakllar aniqlangandan so‘ng, Madaniyat va aholi dam olish markazi xodimlari mahalliy joydagi yoshlar qo‘mitasi bilan birgalikda yillik tadbirlar rejasi tuziladi. Rejada tadbir o‘tkaziladigan sana, tadbir nomi, shakli, o‘tkazilish joyi va javobgar shaxslar ko‘rsatiladi.

Tadbirlar rejasi yoshlar ehtiyoji va mahalliy sharoitdan kelib chiqib boyitilishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Qanday bo‘lmasin mahalliy madaniyat uyi va yoshlar qo‘mitasi bilan rejalashtirilgan tadbirlar yoshlarni qiziqtirish, mavzuiga jalb etish lozim. Vaqt o‘tishi bilan markaz tadbirlari ham yoshlar sinovidan o‘tadi. Shundan kelib chiqib kelgusi yilgi rejada qaysi tadbirlarga ko‘proq e‘tibor berishni hayotning o‘zi ko‘rsatadi.

«Bo‘sh vaqt - ijtimoiy boylik» deyishadi. U insonning qobiliyatlarini takomillashtirishi, bilim olishi, ma’naviy kamol topishi, jismoniy rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Bo‘sh vaqtdan samarali foydalanish bu birinchidan, mehnat unumdorligini oshirish, ikkinchidan, kishilarning ishda sarf bo‘lgan kuchini tiklash, uchinchidan, sog‘liqni mustahkamlash, ruhiyatni tetiklashtirish demakdir.

Madaniy dam olish jarayoni deyarli barcha madaniyat muassasalari tadbirlarida sodir bo‘ladi. Biroq, madaniyat va aholi dam olish markazlari shunday tadbirlarni tashkil qiladiki, ularda yoshlarning mazmunli dam olishi, hordiq chiqarish asosiy vazifa qilib qo‘yiladi.

Dam olish tadbirlarida yoshlar, birinchi navbatda, mazmunli dam olsalar, ikkinchi navbatda, o'zlari qiziqqan soha bo'yicha va har xil foydali ma'lumotlar olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Respublika madaniy-ma'rifiy muassasalari, jumladan, madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari yoshlarning bo'sh vaqtini uyushtirishda, ularni har xil badiiy havaskorlik tugaraklari va uyushmalariga jalb etib, turli bayramlar, teatrlashgan tomoshalar, sayllar, dam olish kechalari, raqs kechalari kabi turli tadbirlar tashkil qilish borasida yaxshi tajriba to'plashgan.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlar bo'sh vaqtida qatnashadigan tadbirlar doirasi anchagina keng. Ular orasida muloqotli, ko'ngilochar - «Dam olish kechasi», «Shanba oqshomida», «Kulgi kechasi», «Do'stlik kechasi», «Qizlar davrasida» kabilar. San'at bilan bog'liq bo'lgan - «She'riyat kechasi», «Doston kechasi», «Qo'shiq va raqs oqshomi», «Musiqqa ohangi», «Teatr ko'zgusi» kabilar; Bayramona dam olishga oid sayllar - «Bog' sayli», «Tog' sayli», «Lola sayli» kabilar;

Xalq o'yinlari, musobaqalarga boy «Sog'liq - tuman boylik», «Azaliy o'yinlar» kabi tadbirlar keng sho'hrat qozongan.

Madaniyat va istirohat bog'larida uyushtiriladigan tadbirlar foydalanilgan vositalar turli tavsiya harakterida bo'lishi mumkin. Ayniqsa, ma'rifiy-huquqiy, musiqali-raqsli va badiiy-adabiy tavsifdagi tadbirlarni tashkil qilish yaxshi natija beradi. Ma'rifiy-hordiqli tadbirlardagi yangi axborotlar, ma'lumotlar, bilimlarni olish, hordiq chiqarish jarayoni bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Odatda bunday dasturlar ikki qismdan tashkil topadi: birinchi bo'limda yoshlarni qiziqtiradigan mavzu tanlanib, bunda axborotlar badiiy shaklda tomoshabinlarga havola qilinadi. Ko'pincha bu qismga odamlarni o'ylantiradigan va hayajonga soladigan muammolar ham olinadi. Dasturning ikkinchi qismida esa maroqli dam olish uchun o'nlab turli qiziqarli o'yinlar, topishmoqlar, viktorinalar, qo'shiqlar va hokazolar foydalaniladi. Musiqali, raqsli tadbirlar, asosan, musiqa, ashula va albatta raqslardan tashkil topadi.

Bunday tadbirlarda bu san'at turlarining eng yaxshi namunalari targ'ib qilinadi. Unda eng yaxshi raqs uchun musiqa bilimdonlari va sevimli qo'shiq ijrosi uchun omma o'rtasida tanlovlar o'gkazilishi mumkin. Musiqali-raqsli tadbirlarni ikki turi bor, ularning biri kichik auditoriya uchun mo'ljallanib, undan musiqa fonotekasidagi texnik vositalaridan foydalaniladi, ikkinchisiga esa kichik estrada ansambli taklif qilinib o'tkaziladi. Shuningdek, musiqa-raqs dasturlari o'zbek va chet el musiqasi, raqs san'atiga bag'ishlanib, unga mashhur kompozitor-bastakorlar, ashulachilar va raqs ustalarini taklif qilish mumkin.

Musiqali-raqsli tadbirlarning asosiy vazifalari san'atni targ'ib etish, yoshlarni musiqa va raqs ijodiga oshno qilish, ularga ma'naviy ozuqa berish.

Badiiy-adabiy tadbirlar adabiyot va san'at janrlaridan tashkil topgan dasturlardir. Bunday tadbirlarda badiiy-emotsional vositalar: badiiy so'z, she'r, monolog, qo'shiq, ashula, raqs kabilar muayyan mazmunga bog'lanib teatrlashtiriladi. Adabiy-badiiy tadbirlar foydalanadigan vositalarga boy bo'lgani uchun, ular odatda ijtimoiy-falsafiy muammolarga ham bag'ishlanib, yoshlarni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Bunday tadbirlar tashkil qilishda tashkilotchilar bilim doirasi, dunyoqarashi, qobiliyatlari va tashabbuskorligi muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yoshlarning ma'naviy kamolotiga e'tibor berish, kelajak avlodni tarbiyalash maqsadida xalq an'analari va qardosh xalqlar tajribasi asosida joylarda yoshlar talab va ehtiyojlarini hisobga olib maxsus sayl o'tkazilsa yaxshi bo'lar edi. Yoshlar saylini - 24 aprel Yoshlarning xalqaro birdamlik kuni, yoki 10 noyabr – Butun jahon yoshlar kuni yoki mahalliy sharoitga qarab boshqa kun uyushtirilsa bo'ladi. Bayram boshlanishidan oldin maktablar, tarbiya muassasalari, o'quv yurtlari, mehnat jamoalarida maxsus tayyorgarlik ko'riladi.

Mahalliy yoshlar qo'mitalari turli tadbirlar, jumladan, yosh rassom, yosh qo'shiqchi, yosh shoir, yosh raqossa tanlovlarini rejalashtirsa bo'ladi. Bayramning ochilish qismida yoshlar qo'mitasining raisi, kotiblari, mahalliy hokimiyat rahbarlari, yoshlar hay'ati, faoliyati haqida so'zlaydilar, ularga o'z istaklarini

bildirishadi. So'ng katta sayl boshlanadi. Unda har bir o'quv yurti o'z ijodi, san'atini namoyish qiladi.

Yoshlar o'rtasida qiziqarli o'yinlar va sport musobaqalari o'tkaziladi. Chunonchi, «Balli, yigitlar» va «Balli, qizlar» kabi tanlovlar ham tashkil qilinadi.

Bayramning oxirgi qismida ko'rik-tanlov g'oliblari taqdirlanadi, ularga bag'ishlanib ko'y va qo'shiqlar ijro etiladi. Bo'sh vaqtda yoshlar uchun nafaqat madaniyat xodimlari, balki yoshlarning o'zi ham madaniy dam olish tadbirlarni tashkil qilsa bo'ladi.

Buning uchun madaniyat muassasalarida yoshlar to'planadigan, suhbatlashadigan, ijodiy ehtiyojlarni qondiradigan maxsus sharoitlar yaratmog'i lozim.

Bu borada «Yoshlar xonalari», «Yoshlar madaniyat markazi», «Yoshlar ijodiy guruhlari» kabi tajribalardan yaxshi foydalansa bo'ladi. Ayniqsa, madaniyat va aholi dam olish markazlari qoshida keng qamrovli faoliyat olib boruvchi «Yoshlar klubi» tashkil qilish ijobiy natija berishi mumkin. «Yoshlar klubining a'zolari o'zlarining ma'naviy ehtiyoji, talabi, qiziqishi asosida turli shakldagi maroqli va mazmunli tadbirlarni uyushtirishi mumkin. Shuningdek, ular nafaqat o'zlarining, balki mahalliy yoshlarning madaniy dam olishiga yordam berishi diqqatga sazovardir.

“Yoshlar madaniyat markazlari”ni tashkil qilish borasida quyidagi metodik maslahatlarni tavsiya etsa bo'ladi: “Yoshlar madaniyat markazlari” maxsus reja va dasturlar tuzib, ish olib boradi, markaz a'zolari dam olish kechasi tashkil qilib, unda har gal yangi jamoa a'zolari, yosh ishchilar, talabalar, yuqori sinf o'quvchilari va boshqalarni taklif qilsa bo'ladi. “Yoshlar madaniyat markazi”ga, albatta, rais, tashkilotchi va bo'limga javobgar shaxslar saylanishi kerak. Markaz raisi - umumiy rahbarlik qilib, yig'ilish o'tkaziladigan joy va vaqtni rejalashtiradi. Raisga yordamchi - maxsus tashkilotchi ham belgilanadi. Eng qiziqarli ishni badiiy qismga javobgar shaxs olib borishi mumkin. U har bir yig'ilishning badiiy programmasini tuzadi. U uyushma a'zolarining ijodiy qobilyatlaridan kelib chiqib, she'r, hikoya, ashula, askiya, latifa, topishmoqli o'yinlarni kim va qachon aytishini

belgilaydi. Bunday rahbar ishning diqqatiga sazovor tomoni shundaki, u uyushma a'zolarining u yoki bu sohadagi ijodiy qobiliyatini ochadi. Uyushma a'zolari rioya qilishi shart bo'lgan "Nizom" qabul qilinishi bu intizom ishlarini yaxshilashga asos bo'ladi. Intizomga javobgar shaxs - bu ishlarni nazorat qilishi bilan birga, yig'ilish bo'ladigan joyni tartibga keltiradi.

"Yoshlar madaniyat markazlari"ning foydali tomonlari shundaki, u eng avvalo, yoshlarni yaxshi hordiq chiqarishga, muloqot, suhbat natijasida ma'naviy boyishga, ijodiy qobiliyatlarini namoyish qilish va rivojlantirishga ko'mak beradi.

"Yoshlar madaniyat markazlari" faoliyatini uyushtirish va ularni ijtimoiy foyda keltiradigan darajada tashkil qilishga yordam berish bu mahalliy madaniyat muassasalarining jiddiy vazifasi bo'lmog'i lozim.

Yoshlarning ravnaqi uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan bo'sh vaqtdan samarali foydalanishda madaniy-hordiqiy tadbirlarning ahamiyati benihoyat kattadir.

Yoshlar uchun maxsus tadbirlar tayyorlashda madaniy-ma'rifiy muassasalar va yoshlar qo'mitasi hamkorlikda faoliyat olib borgandagina yaxshi natijalarga erishiladi.

Tashkilotchilar yoshlar uchun tadbirlar uyushtirayotganida an'analar, tajribalardan foydalanish bilan bir qatorda yangilik, ijodkorlik, tashabbuskorlikka alohida e'tibor bermoqlari zarur. Yoshlar ijod va yangilik shaydosi ekanligini unutmaslik kerak.

Shuni qayd qilish kerakki, turli joyda yoshlarni vaqti, ehtiyoji, qiziqishi har xil bo'lishi mumkin. Bir hududda shuhrat topgan tadbir, boshqa joyda qiziqish uyg'otmasligi mumkin. Shuning uchun har joyning o'z tadbirini topishga intilish kerak.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chuqur ma'noli, mazmunli va shaklan go'zal va qiziqarli tadbirlar ko'pchilikka yoqar ekan. Joylarda yoshlarning madaniy hordiq chiqarishini uyushtirishda tadbirning mohiyati, mazmuni va ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, yoshlar uchun tadbirlar tashkil qilishda mahalliy sharoit, madaniyat muassasalarining moddiy, ma'naviy,

badiiy va texnik imkoniyatlaridan hamda badiiy havaskorlik jamoalarining ijodidan samarali foydalanmoq lozim. Anashundagina ko‘zlangan natijaga erishsa bo‘ladi. Yoshlarning ma'naviy kamolotiga e'tibor berish, kelajak avlodni tarbiyalash maqsadida xalq an'analari va qardosh xalqlar tajribasi asosida joylarda yoshlar talab va ehtiyojlarini hisobga olib maxsus sayl o‘tkazilsa yaxshi bo‘lar edi. Shu boisdan madaniy hordiq chiqarish uchun bugungi kunda barcha imkoniyatlardan foydalanish joizdir.

III bob bo'yicha xulosa

Madaniy-ma'rifiy muassasalar tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda bu dargohga keluvchilarning ko'ngilligiga tayanadi. Chunki bu tashkilotlarga insonlar ixtiyoriy ravishda keladilar. Maktablarga o'quv yurtlariga kishilar o'z hayotiy ehtiyojlari bilim olish, kasb o'rganish, biron bir mutaxassislikni egallash uchun boradilar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarga aholining turli qatlami o'zining ma'naviy talab va istaklarini bayon etish havaskorlik ijodini rivojlantirish, madaniy dam olish, hordiq chiqarish, xalqaro ahvolda mamlakatning ichki va tashqi siyosatida sodir bo'layotgan voqealar haqida axborotlar olish, do'stlar, o'rtoqlari bilan suhbatlashish kabi hayotiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun tashrif buyuradilar. Shuning uchun ham bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarni olib borish, tarbiyaviy jarayonni boshqarish, kishilarga tarbiyaviy ta'sir etish ishlari ancha murakkabdir. Respublika madaniy-ma'rifiy muassasalari (madaniyat va aholi dam olish markazlari, kutubxonalar, muzeylar, istirohat bog'lari kabilar) aholining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda o'ziga xos xususiyatlar asosida turli usullar, shakllar va vositalar yordamida faoliyat olib boradilar.

Madaniyat va aholi dam olish markaz muassasalari, mahalliy joylarda aholining bo'sh vaqtini samarali o'tkazish, madaniy faoliyat bilan shug'ullanish, ijodkorlikni oshirish, bilim saviyasini boyitish va ma'naviy kamol topishiga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.

Mehnatkashlarning madaniy dam olishi, hordiq chiqarishi, bir-birlari bilan munosabatda bo'lishi, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi, o'z qiziqqan sohasi bilan shug'ullanishi, bu bevosita madaniy-ma'rifiy markazlar bilan bog'liq bo'lganligi bois madaniy hordiq chiqarish uchun uyishtiriladigan tadbirlarning saviyasi ham o'shanga mos bo'lmog'i lozim.

XULOSA

Insonlarni tarbiyalashda ko‘plab madaniy-ma'rifiy muassasalar, ya'ni madaniyat va aholi dam olish markazi, madaniyat saroylari, muzeylar, kutubxonalar, madaniyat va istirohat bog‘larining o‘ziga xos imkoniyatlari mavjud. Madaniy-ma'rifiy muassasalarning imkoniyatlaridan foydalanmasdan joylarda insonlarni tarbiyalab bo‘lmaydi, chunki bu muassasalar xalq orasida ma'naviy, ijodiy faoliyat olib boruvchi o‘ziga xos markaz hisoblanadi.

Inson ma'naviy tarbiyasidagi muammolar ma'naviy qashshoqlik, fikr torligi, hudbinlik, insofsizlik, adolatsizlik, iymon-e'tiqodsizlik, nopoklik, mehr-oqibatsizlik kabi illatlarni rad qilish, insonlarni yuksak madaniyat va milliy ma'naviy qadriyatlarga tayangan siyosatni qaror toptirish yo‘li bilan bartaraf etish, madaniy ma'rifiy muassasalarning ham bosh vazifasiga aylanishi kerak.

Madaniy - ma'rifiy muassasalar faoliyati ham ushbu kunda milliy mafkura konsepsiyasini yaratish va targ‘ib qilishga qaratilmog‘i lozim. Xalqimizga xos bo‘lgan muqaddas tushuncha va tuyg‘ularni yoshlar ongiga singdirish kerak.

Biz tadqiqot jarayonidagi kuzatishlarimizdan kelib chiqib shunday xulosaga keldikki bugungi kunda yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari va maroqli hordiq chiqarishi uchun xizmat qiladigan soha bu san'at va madaniyat sohalari hisoblanishi va bu sohalarning esa faqat o‘z manfaatlarini o‘ylab yolg‘on yashiq ko‘rsatuvlar, videofelimlar, konsert dasturlarini uyishtirayotganliklarining guvohi bo‘ldik. «Madaniyat va san'at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, g‘oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot asarlarning yetakchi o‘rinni egallab olishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyatga ega».

Internet, ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti axborot, jumladan, badiiy san'at asarlarini ayirboshlash yo‘lidagi barcha to‘siqlarni olib tashladi. Uning iste'molchilari orasida esa yoshlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Afsuski, yoshlar tanisha oladigan g‘arb san'ati namunalari har doim ham yuksak badiiy va g‘oyaviy-axloqiy talablarga javob beravermaydi. Mazmunli asarlar bilan bir qatorda bizga g‘oyasizlik, vahshiylik, badiiy saviyasi past kino va

videofilmlar, qo‘shiqlar, nashr namunalari, musiqalar kirib kelmoqda. Ayrim radioeshittirish, teleko‘rsatuvlarda yoshlar uchun maxsus dasturlar o‘rin olgan va ularda tashqi ko‘rinishdan ko‘ngilochar, soxta qadriyatlar targ‘ib qilinib, g‘ayriinsoniy sifatlarga ko‘tarilmoqda.

Yoshlarga yot estetik qarashlarni singdirish uchun ularning bo‘sh vaqtlarini behayo raqslar, lazer disklari va audio-videomagnitofon yozuvlari bilan to‘ldirishga intiladilar. Shu sababli ularning yoshlarga ta‘sirini hisobga olmaslik katta xato bo‘ladi.

Xo‘sh, bunday «estetik madaniyat»ning g‘oyaviy-ma‘naviy saviyasi qanday? Bu savolga javobni biz «Amerika» jurnalidan topamiz: «Bu djaz ham, sving ham emas, xalq qo‘shiqlari va blyuz, hatto rok-n-roll ham emas. Yangi rok - bu butunlay boshqa va butunlay o‘ziga xos hodisa. Ommabop musiqada shu paytgacha hissiyot, tuyg‘ular ma‘lum edi. Ularda bir ko‘rishdan sevib qolish umuman yaxshi his-tuyg‘ular haqida kuylanar edi. Yangi musiqa bo‘lsa insoniy munosabatlarni kengroq qamrab oladi: avrash, zo‘ravonlik bilan qo‘rqitish, yotsirash, giyohvandlik, jinsiy ehtiyojlar va muhabbat erkinligini qondirish singari mavzularni ham o‘z ichiga oladi». O‘zbekiston yoshlari chet el estradasining haqiqiy ustalarini sevishadi va qadrlashadi. Lekin yoshlarimizning ayrimlari orasida repertuari, g‘oyaviy yo‘nalishi bo‘yicha ijtimoiy, ma‘naviy va estetik e‘tiqodlardan yiroq bo‘lgan guruhlar va ijrochilar ham ommalashgan.

Bizda chet el taraqqiyparvar kino san'atining juda ko‘p filmlari muvaffaqiyat bilan namoyish qilinadi. Lekin asosan yoshlardan iborat tomoshabinlar «sayohat», «Asal oyi», «Motamning siri» va boshqa shunga o‘xshash past saviyadagi filmlar namoyishida ham paydo bo‘lmoqda. Bu filmlarning barchasida na haqiqat, na hayot, na insoniylik, na badiiyat, balki tomoshabinga sekin-asta sezdirmasdan bosqinchilik romantikasi, ochiq ahloqsizlik turmush tarzi tashviqot qilinadi.

Odatda, ko‘zga birdan tashlanuvchi va o‘ziga jalb etuvchi bunday filmlar yoshlarimizning ayrimlarini o‘ziga tortadi va ular orasida salbiy holatlar - axloqsizlik, boqimandalik, mehnatdan qochish va ijtimoiy loqaydlik, befarqlikning paydo bo‘lishini rag‘batlantiradi.

Shaxsiy, hayotiy tajribaning kamligi, san'atga faqat lazzatlanish vositasi deb qarash, yuzaki anglash ko'pincha ijobiy va salbiy hodisalarni chalkashtirib tasavvur qilishga, g'oyaviy yot, betayin harakatlarni haqiqiy badiiy qadriyatlardan ustun qo'yishga olib keladi. Bu tasavvurlar shaxslararo muloqotda takrorlanaversa, mustahkamlanadi, tengqurlar fikrlari bilan qo'llab quvvatlanadi. Fuqarolik ongi, milliy g'oyalarning sekin shakllanishiga, siyosiy g'o'rlik, an'anaviy cheklanganlik, befarqlik, loqaydlik, san'atdagi g'oyaviy yot asarlarga notanqidiy munosabatda bo'lishga, demak mafkuraviy immunitetni susaytirishga qulay zamin yaratadi. Yoshlar fikrini ezgulikka, insonparvarlikka yo'naltirishda, fikrlarida mantiqiylikni va ijodiy fikrlashni shakllantirishda kitobning xizmati katta. Aks holda, ma'naviy bo'shliq, ma'naviy qashshoqliq vujudga kelib, yod va salbiy g'oyalar kishilar hayotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Muayyan muammolarni bartaraf etish uchun yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish, ularni o'ziga ham, atrofdagilarga ham foydali bo'lgan ishlar bilan mashg'ul qilish lozim. Shu boisdan bunday oqsoqliklarning oldini olish ba'zi bir tavsiyalarni taklif etmoqchimiz.

- Yoshlarning madaniy hordig'ini to'g'ri tashkil etish uchun joylarda targ'ibot tashviqot ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va tarbiyaviy dasturlarni ishlab chiqish muhimdir.

- O'zbek yoshlarining g'arb yoshlariga taqlid qilish va ulardan ondoza olmasliklari uchun milliy to'garaklarni tashkil etish, ya'ni yoshlarning etetik didini baholash, kiyenish madaniyatiga qarab tanlovlar 'lon qilish va eng namunalisini yon atrofdagi do'stlarini qiziqtiradigan rag'batlantirishlarni yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Huquqiy-me‘yoriy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston” 1992 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. –T.: 1997-yil. 29 avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayorlash milliy dasturi”. –T.: 1997-yil. 29 avgust.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. –T.: 2001 yil. 30 avgust.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi qonuni –T.: 1998 yil. 29 avgust.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va qarorlari hamda

Vazirlar Mahkamasining qarorlari

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni. 2012 yil 24 iyul.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining. “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoni. 1998 yil 26 mart.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2013 yil 25 iyunda.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2007-yil 10 sentyabr.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. -T.: O‘zbekiston, 1996. -123.B.

2. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild. -T: O‘zbekiston, 1996.-246.B.
3. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo‘lidan. Asarlar, 4-jild. -T: O‘zbekiston. 1996.-214.B.
4. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar, 5-jild. -T.: O‘zbekiston. 1997. -178.B.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: “O‘zbekiston”, 1997, 73-74-betlar.
6. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. To‘plam. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. Tuzuvchilar Qurbonov.Sh., Saidov.X., Axliddinov.R. –T.: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. -348.B.
7. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-jild. –T.: O‘zbekiston 2000. –B.84-102.
8. Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. Asarlar, 12–jild.-T.: O‘zbekiston, 2004. -197.B.
9. Karimov I. A. Inson, uning huquq va erkinliklari–oliy qadriyat. 14-jild.-T.: O‘zbekiston 2006. -286.B.
- 10.Karimov I.A. Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so‘zlagan nutqi. Bishkek. 2007 16 avgus-T.: «Xalq so‘zi» gazetasi, 2007. 17 avgust.
- 11.Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat. 2008. -171.-b.34-35.
- 12.Karimov I.A. Barkamol avlod–kelajagimiz tayanchi-T.: Ma’naviyat. 2010.-192.-b.43.
13. Karimov I.A. O‘zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida. O‘zbekiston. 2011.-440.-b.134.
14. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. Asarlar, 6-jild. –T.: O‘zbekiston, 1998 y.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar.

15. Falsafa qisqacha izohli lug‘at. -T.: “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya. 2004 yil. –B. 193.
16. M. Bekmurodov. “O‘zbek mentaliteti”. –T.: “Into Capital Group” nashriyoti. 2011- y., -B. 8.
17. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy etiqod va marosimlari. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.-275 b.
18. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. - T.: O‘zbekiston 10 tom 2002 yil.
19. To‘ra Mirzayev, Asqar Musaqulov, Bahodir Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari –T.: “Sharq” nashriyoti 2005 yil.
10. Shuhrat G‘oyibnazarov. Ommaviy madaniyat. –T.: “O‘zbekiston”. 2012 yil. –B. 125.
11. Alisher Azizxo‘jaev. Chin O‘zbek ishi. –T.: “O‘zbekiston”. 2011 yil. 390-391-betlar.
12. Usmon Qoraboev. O‘zbek xalq o‘yinlari. –T.: “San‘at” nashriyoti. 2001 y.
13. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: “Yangi asr avlodi” 2009 yil. –B. 169.
14. *Бжезинский З.* Великая шахматная доска. Госполство Америки и геостратегические импративы. –M.: 1998, с.38.
15. *Азроянц Э.* Глобализация: катастрофа или путь к развитию? –M.: «Новый век», 2002, с.40.
16. United Nations Secretariat, Department of Economik and Socials Affairs, Population Division, Word Population Prospects: The 1998 Revision. Vol. 1: Compprehensive Table, November 24, 1998, pp. 100,118.
17. Кара-Мурза С. Манипуляция сщзнанием. –M.: «Алгоритм», 2006, с. 15.
18. Ги Дебор. Обўество спектакля. –M.: «ЛОГОС», 2000 г.
19. Кара-Мурза С.Г. Экспорт революции. Ющенко, Саакашвили... - M.: «Алгоритм», 2005, с. 86.

20. Тамбиа С. Национальное государство, демократия и этнонационалистический конфликт// Этничность и власть в полиэтнических государствах. –М.: «Наука», 1994, с. 58.
21. Suyunov A. “Ommaviy madaniyat” ko‘lankasi yoxud ma’naviy taxdidlar haqida.-T.: “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” 2010 y.,
22. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatlari. –T.: “Ma’naviyat”, 2006 y.,-B.91.
23. Musurmonova.O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi .-T.: 1996. – b.56.
24. Bolajon tayanch dasturi. –Toshkent.: 2010. 230-bet.
25. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari.-T.: 1997 y.
26. Q.Nazarov. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. -T.: 1998 y.
27. A.Aliyev. Ma'naviyat, qadriyat va badiyat.-T.: “Akademiya”.2000 y.
28. M.Imomnazarov, M.Eshmuxamedova. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. -T.:, 2001y.
29. T.Mahmudov. Mustaqillik va ma'naviyat. -T.: “Sharq” 2001y.
30. O.Musayev Mustaqil O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar. -T.: “Ijod dunyosi” 2004 y.

Internet saytlari

http:// www.ziyonet.uz O‘zbekiston ta’lim portali.

http:// www.gov.uz O‘zbekiston Respublikasi hukmat portali.

http:// www.wikipedia.org Jamoatchilik markazi portal

http:// www.ezgulik.uz Milliy g‘oya targ‘iboti ilmiy amaliy markazi portali.

http:// www.google.uz

Ilmiy to‘plamda chop ettirilgan maqolalar

EKOLOGIK MADANIYAT SIHAT-SALOMATLIK KAFOLATI

Karabayev Rahmatilla

“Ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etish”

Mutaxassisligi I-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: sots.f.d., professor. M.B.Bekmurodov

Bugungi kunda sayyoramizdagi ekologik vaziyatning tobora yomonlashib borayotganligi hech kimga sir emas. Bu holat har bir davlat va uning fuqarolarini ona tabiat oldida mas’uliyatni his etishga undaydi. Ana shu nuqtai nazardan mamlakatimizda tabiatni asrab-avaylash va uning muhofazasiga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ular ijrosini ta’minlash muhim masala sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunlar shular jumlasidandir.

Agar tarixga nazar soladigan bo‘lsak atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, tabiat ne‘matlaridan oqilona foydalanish juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Jumladan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto”ni bu boradagi ilk huquqiy manba deyish mumkin. Unga ko‘ra, inson ona tabiatni va uning ilohiy ne‘matlarini asrab-avaylashga burchlidir. Tuproq, suv, havo va boshqa tabiat ne‘matlarini asrab-avaylash xalqimizning milliy qadriyatlariga xos bo‘lgan ezgu xislatlaridan biridir. Hadisi Sharifda “Uch joyga — ariqlarga, yo‘llarga va soya-salqin yerlarga, ya’ni bog‘u rog‘larga axlat tashlab, la’natga qolishdan qo‘rqinglar” deyilgan.

Ma’lumki, ona tabiat ne‘matlari, toza havo, toza suv hamda atrof-muhitning musaffoligi inson hayotining manbai hisoblanadi. Shunday ekan har birimizning

sihat-salomatligimiz, sog‘lom hayot kechirishimiz ko‘p jihatdan tabiatga qanday munosabatda bo‘lishimizga bog‘liq.

Ayniqsa, homilador ayollar, shuningdek, ona va bola salomatligi havo musaffoligi, atrof-muhitning hamisha toza va ozoda bo‘lishini taqozo etadi. Tibbiyot mutaxassislarining ta’kidlashicha, turar joylarda, ko‘chalarda yig‘ilib qoladigan axlat uyumlari kasallik tarqatuvchi mikroblar o‘chog‘i sanaladi. Xususan, suvi ifloslashib ketgan ariqlarda vabo, uzoq muddat turib qolgan oshxona chiqindilarida o‘tkir-ichak kasalliklari, uy supirindisida ichburug‘ va kuydirgi, ochiq yotgan axlat uyumlarida sil mikroblari yetilar ekan. Tan olish kerakki, ba’zi paytlarda oshxona chiqindilari, aynigan oziq-ovqat va axlatni yashash joyiga yaqin bo‘lgan yerga, hattoki oqar suvga tashlab yuborish hollariga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa, shaharda ko‘p qavatli uylarda yashovchi ayrim kimsalar uyalmay-netmay axlat to‘ldirilgan yelim xaltalarni pastga uloqtirishlari hech bir madaniyatga to‘g‘ri kelmaydi.

Axir xalqimizning “Ozodalik — sog‘liq garovi”, “Toza havo — tanga davo” degan hikmatli so‘zlari bejiz aytilmagan. Atrof-muhitimiz musaffoligi va ozodaligini saqlash, eng avvalo, o‘zimizning va yaqin kishilarimizning sihat-salomatligini muhofaza qilish demakdir. Bugungi kunda yurtimizning har-bir fuqarosi tabiatni asrashga, tabiat bergan inom-ehson va nozu ne‘matlardan to‘g‘iri va oqilona faoydalanishga chorlash uchun joylarda targ‘ibot tashviqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan FHDO‘ bo‘limi qoshida “Ekologik madaniyat — salomatlik garovi” maktabi tashkil qilingan bo‘lib, nikohdan o‘tayotgan yosh kelin-kuyovlar va tegishli mutaxassislar ishtirokida turli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mahalla faollari bilan hamkorlikda turar-joylarning ozodaligi, atrof-muhitning obodonchiligiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, sog‘lom muhitda o‘sib ulg‘aygan farzandlarimizgina har tomonlama barkamol inson bo‘lib yetishadilar.

Hozirgi davrda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda asosiy e’tiborni yoshlarimizga qaratishimiz zarur. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar

tayyorlash Milliy dasturi", "Maktabdan tashqari ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom"larda bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamiz miqyosida vujudga kelayotgan og'ir ekologik holatlarni tirik organizmlarga salbiy ta'siri, atrof muxit muhofazasiga oid ekologik ta'lim tarbiyani, ekologik ong va madaniyatni o'quvchilar ongiga sayyoxlik va o'lkashunoslik ishlarini tashkil etish orqali singdirish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi yoshlarni tabiat bilan bevosita muloqotda bo'lishi, uning go'zalligini va salbiy hodisalarni xis etishga, tabiat qo'ynida faol dam olish, uni asrab avaylash nechog'lik inson uchun katta ahamiyat kasb etishini anglashga yordam beradi. Shunday ekan inson salomatligi o'zining qo'lida ekan tabiatdga bo'layotgan o'zgarishlarga har-bir yoshmi qarrimi birdek munosabatda bo'lmog'i va unga ongli ravshda yondoshmoqliklari lozim. Bugungi kunda insonlarda uchirayotgan turfa hil kasalliklar nimaning evaziga va qay yusinda kirib kelayotgan ekan? Bu kasalliklarga kim sababchi? degan savollarga javob topishimiz uchun biz javobni yerog'iroqdan axtarmasdan o'zimizdan qidirmog'imiz lozim.

Bu masalada biron-bir kimsani ayiblamasdan har-bir inson o'zidan shubxalanmog'I lozim deb o'ylayman, chunki kucha-kuyda yurganimizda duch kelgan joylarga qo'limizda biron-bir konfetning qog'ozimi yoki simichka puchog'imi va hakoza shunga uxshash musirlarni peyodalar yo'lagigami yoki odamlar ser-qatnov joylargami e'tibor bermasdan tashlab ketaveramiz. Masalan har kuni bir odamda uchiraydigan ahvolga nazar tashlaylik, kunlik yemishimiz yoki o'qish, ishga borish uchun ertalabdan shaylanamiz o'z-o'zidan transport vositasiga chiqamiz yani avtobusga, qo'lingizga birmarttalik yo'l chiptasini beradi, ho'p manzilimizga yetib borganimizdan so'ng adashmasam 70-80 % odamlar avtobusdan tushishlari bilan shunday tashlab ketaverishadi, bu mutlaqo noto'g'ri. Har-bir bekatda maxsus musirlarni tashlaydigan musir yashikchalar o'rnatilgan, ko'pchilik bunga laqoytlik bilan yondashib manashugina bir parcha qog'oz musirlik qilganda yoki shugina tabiatni bo'zganda zarari qancha bo'lardi degan o'y bilan yo'lida davom etaveradi.

Keling manashu oddiy holatga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, demak bir kishi ertalab ishga borishi bitta belit ishdan qaytguncha yana bitta belitni musir yashikka tashlamasdan do'ch kelgan joyga tashlaydigan bo'lsa, har-bir blitning o'lchami 5 smni tashkil etsa, demak bir kunda bir kishining beliti ya'ni qog'ozi 10 sm bo'ladi, o'n kunda 1 metr, bir oyda esa 3 metrni tashkil qiladimi o'rtacha olganimizda. Bir oyda bir odam 3 metr 10 ta odam 30 metr, 30 ta odam 90 metr qog'ozni bir oyda kucha-kuyga tashlayaptimi, bu qog'ozlar qayirga borib joylashayti o'z-o'zidan yo'l chekkasida ekilgan daraxtlarga o't-o'lanlarning oralariga borib qolib ketayaptimi mana bular vaqtlar o'tishi bilan yerning melerativ holatiga zarracha bo'lsa ham ta'sir o'tgazadimi, qog'ozlar borib tushmasdan oldin mazza qilib nafas olib turgan o'simliklar oldingiday nafas ololmaydimi, o'zidan chiqazayotgan tarkibida ma'lum miqdorda kassaligi uchiraydigan kislorodni bizga ishlab chiqazadi biz buni nafas olishimiz orqali organimizga qabul qilamiz mana biz sababini topolmayotgan yoki boshqa biror narsadan axtarayotgan kasalliklar qayerdan kelib chiqayotganing guvohi bo'ldik.

Shuning uchun har-bir kishi shu jamiyatning a'zosiman manashu jamiyatda o'z o'rniga egaman deb bilsa bu muammolarga ongli ravshda ma'suliyat bilan yondoshsa, salomatligimiz yaxshilanadi, tabiatimiz go'zallashadi, jamiyatimiz rivojlanadi, madaniyatimiz yuksaladi va hech qachon kasallik nimaligini bilmasdan yashayveramiz.

SOTSIOMETRIYA

(Guruhlarni va shaxslararo munosabatlarni o‘rganish metodi)

Mazkur metod taniqli olim J. Moreno tomonidan ishlab chiqilgan.

Sotsiometriya usuli guruhdagi shaxslararo munosabatlarni aniqlovchi eng samarali usullardan biridir.

Sotsiometriya bir qator savollarga berilgan javoblarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Bu usulni amalga oshirish davomida tekshiruvchiga nisbatan bir qator talablar borki, bu talablarga tekshiruvchi qat'iy rioya qilishi lozim.

1. Avvalo berilgan javoblar qattiq sir saqlanishini tekshiruvchilar bilishlari joizdir.
2. Javob berish chog‘ida har bir tekshiriluvchining mustaqil hamda erkin bo‘lishiga sharoit yaratish lozim.
3. Tekshirish davomida tekshiruvchi o‘zini ochiq yuz bilan quvnoq holda tutishi kerak.

Sotsiometriya metodida odatda 3 tadan 5 tagacha savol bo‘lishi mumkin.

Psixologiyada sotsiometriya metodi turli guruhlarda, jamoalarda, shaxslararo munosabatlar xususiyatlarini o‘rganishning keng qo‘llaniladigan, eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Sotsiometriya ma'lumotlari tahlili shaxsning guruhda tutgan o‘rni, unda shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari, guruh lideri (guruhning tan olingan sardori), guruh yo‘lduzlari, guruh a'zolarining egallagan mavqei, guruhda yakkalanib qolgan (izolyatsiyaga tushib qolgan) a'zo, guruhdagi kichik guruhchalar ularning tarkibi, o‘zaro munosabatlari, undagi psixologik muhit va shu kabi bir qator ma'lumotlarni aniqlash imkonini beradi.

Sotsiometrik tadqiqotini o‘tkazishda, avvalo shaxslararo munosabatlarning u yoki bu jihatini baholovchi muhim mezonni tanlab olish lozim. Buning uchun ma'lum bir real vaziyatga taaluqli bo‘lgan savollar tizimi tuzib chiqiladi. Bu savollar sotsiometrik mezon sifatida xizmat qiladi. Sinaluvchilar shu berilgan

savollarga binoan o'zi a'zo bo'lgan guruhdan o'ziga sherik tanlash bilan javob berishi kerak. Sotsiometrik mezon tadqiqot maqsadiga mos holda shaxslararo munosabatlarning ma'lum bir jihatiga qaratiladi.

Sotsiometrik mezonlar shartli ravishda quyidagi tarkiblardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Rolli: «Siz agar guruh sardori bo'lsangiz, biron bir jiddiy topshiriqni bajarish uchun ajratilgan guruh tarkibiga o'z kursdoshlaringizdan kimni kiritgan bo'lar edingiz?»

2. Funksiyali: (Funksional): «Sizning fikringizcha, kursdoshlaringizdan kim guruh sardori, yetakchi bo'la olishga loyiq deb hisoblaysiz?».

3. Amaliy: «Agar guruh tarqatib yuborilgudek bo'lsa, unda Siz yangi guruhga shu kursdoshlaringizdan (shu yerda ishtirok etayotganlaridan) kim bilan birga tushishni xoxlar edingiz?» «Siz navbatchilikni kim bilan birga o'tkazishni xoxlaysiz?».

4. Emotsional: «O'zingiz uchun og'ir damlarda shu sinfdan kimga yordam uchun murojaat qilgan bo'lar edingiz?». «Tug'ilgan kuningizga kursdoshlaringizdan kimni taklif qilgan bo'lar edingiz?». «O'z siringizni kursdoshlaringizdan qaysi biriga aytishni lozim topasiz?».

5. Kommunikativ: «O'z ta'ilingizni kursdoshlaringizdan kim bilan birga o'tkazishni xoxlaysiz?», «O'qishni tugatganingizdan keyin o'z kursdoshlaringizni qaysi biri bilan birga, bir joyda ishlashni xoxlaysiz?» va h.

Sotsiometrik mezonlarni tanlashda, savollarni tuzishda konkret vaziyatlar va guruh sinaluvchilarining xususiyatlari, ularning faoliyati xislatlari va shu kabilar nazarda tutilishi joiz.

Sotsiometrik tadqiqotlarni olib borish tartibi

Sinaluvchining sotsiometrik kartochkani to'ldirish qarori uning (1-shakl) ixtiyoriy, shaxsiy ishidir. Ba'zi bir talabalar tadqiqotda ishtirok etishdan bosh tortishlari mumkin. Bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun oldindai "sotsiometrik razminka" qilish, tadqiqot vazifalarini qisqa va tushunarli tarzda bayon etish, uning muhim ekanligini ularga tushuntirib berish va eng muhimi, ular

ishonchini qozonish, javoblari boshqalardan sir saqlanishini ta'minlanishiga kafolat berish, bunga ishtirokchilarni ishontira bilish kerak.

Lekin tadqiqot natijalari sinaluvchilarga aytilmaydi. Shuni esda tutish lozimki, guruhdagi norasmiy aloqalar tizimini hammaga aytish guruh tarkibida kutilmagan, noxush hodisalarga olib kelishi, munosabatlarda, o'zaro muloqotda nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Har bir ishtirokchi sotsiometrik kartochkalarni alohida to'ldirish uchun alohida berilishi kerak. Hech qanday aytib berishga va kartochkalarni o'zi bilan olib ketishga yo'l qo'ymaslik lozim. Eng muhim ko'rsatkich guruhning barcha a'zolarini tadqiqotga jalb eta olishdir.

To'ldirilgan kartochkalar keyinchalik miqdor jihatdan, jadvalli, grafikli ko'rinishda qayta ishlanadi.

Tadqiqotchi butun guruh a'zolari uchun sotsiometrik kartochkani oldindan tayyorlab qo'yishi maqsadga muvofiq. Bunda kartochkaning yuqori qismining o'ng tomonida guruh tarkibida ishtirok etayotgan sinaluvchining (shu kartochka egasining) ismi - sharifi yozib qo'yiladi, char tomonidan esa 1, 2 va 3 raqamlari ustun shaklida yozib qo'yiladi va ularning yonidan familiyalar yozish uchun joy qoldiriladi. Bu joyga sinaluvchi, ya'ni shu kartochkaning egasi o'zi tanlangan odamning (shu guruhda ishtirok etayotgan guruh a'zosining) familiyasini yozadi.

Sotsiometrik tadqiqot o'tkazishning biron bir mezonni tanlab olinganidan so'ng, masalan emotsional mezon bo'yicha: «O'z siringizni kursdoshlaringdan kimga aytgan bular edingiz?» yoki amaliy me'zon bo'yicha: «Agar guruhda har kim o'zi xoxlagan odam bilan birga (bir partada) o'tirish ixtiyori berilsa, unda siz kim bilan birga o'tirishni xoxlar edingiz?» kabi savollar bilan ularga murojaat qilinadi. Bu savolii oldindan ko'rinadigan biron - bir joyga (doskaga, plakatga va h.k.) yozib qo'yish mumkin. Sotsiometrik tadqiqot samaradorligini oshirish uchun uni guryhning barcha a'zolari ishtirok etayotgan vaqtda va ular o'zaro bir - birlarini yetarlicha bilib ulgurgandan so'ng o'tkazish lozim, shuningdek tadqiqotchi ham sinaluvchilarga tanish ishonchli odam («o'z odami») bo'lishi maqsadga muvofiq.

(Psixolog yoki boshqa biron - bir shu rypuhga yaqinligi bo'lgan odam bo'lgani ma'qul.

1-shakl

1. _____
2. _____
3. _____

Sinaluvchilar e'tiborini berilgan savolga topshiriqqa qaratib, tajriba qoidasiga binoan ulardan, o'zlariga sherik tanlash talab qilinadi. Masalan, «Tug'ilgan kuningga kursdoshlaringdan kimni taklif qilgan bo'lar eding?» - kabi savollar berilsa, talabalar 1 - shaklda (ya'ni, ularning har biriga tarqatilgan sotsiometrik kartochkadagi) 1 raqamning to'g'risiga o'z kursidagi sheriklaridan, birinchi navbatda, kimni tanlasa, shu tinglovchining familiyasini yozadi. Hamma birinchi familiyani yozib bo'lganidan so'ng, ularga yana «Mabodo shu tanlangan sheriging bilan birga o'tirish imkoni bo'lmasa unda ikkinchi navbatda kimni tanlagan bularding?» - deb murojaat qilinadi va ular o'zlariga boshqa sherikni tanlaydilar va hokazo.

Sotsiometrik kartochkalar to'ldirib bo'linganidan so'ng, ular yig'ib olinadi. Bunda kartochkalarining to'g'ri to'ldirilganligi (albatta uch kishining familiyasi yozilgan bo'lishi, kartochkaga mazkur guruh a'zolaridan tashqari yoki ayni vaqtda guruhda bo'lmagan, tadqiqotda ishtirok etmagan guruh a'zosining ismi familiyasi yozilgan bo'lmasligi)ni tekshirib olish lozim.

Ma'lumotlarni qayta ishlash

Javoblarni tahlil qilishda sotsiometrik matritsa (1jadval) tuziladi. Bunda guruhdagi shaxslararo munosabatlar va o'zaro sheriklik munosabatlari aks ettiriladi. Shuningdek, o'zaro bir - birini tanlashlar belgilanadi (bir - birlarini tanlash) va matritsa doira ichiga olib qo'yiladi.

Keltirilgan sotsiometrik matritsani quyidagi jadvalda to'ldirish uchun dastavval guruhning tadqiqotda ishtirok etgan a'zolarining ro'yxati alifbo bo'yicha yozib olinadi va unda nechta kishi ishtirok etgan bo'lsa familiyalardan so'ng jadvalda shuncha ustun qodiriladi va tartib bo'yicha ularga ham raqamlar qo'yib chiqiladi.

O‘Z-O‘ZINI BAHOLASH ANKETASI

F.I.Sh. _____
Tug‘ilgan sanasi _____
Lavozim _____

O‘zaro suhbatda insonlardagi menga yoqadigan sifatlar

O‘zaro suhbatda insonlardagi menga yoqmaydigan sifatlar

Kasbiy faoliyatimda odamlar bilan muomala jarayonida Menga yordam beradigan o‘z shaxsiy sifatlarim

Kasbiy faoliyatimda odamlar bilan muomala jarayonida Menga xalaqit beradigan o‘z shaxsiy sifatlarim

Muomala borasidagi bilim va qobiliyatlarimni takomillashtirish uchun Men quyidagi bilimlar, ko‘nikmalar, odatlarni o‘zlashtirishim lozim deb o‘ylayman

Odamlar bilan muomalaga kirishuvchanlik qobiliyati bo‘yicha o‘z -o‘zimni (1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar oralig‘ida) baholash lozim bo‘lsa, Men o‘zimga _____ baho bergan bo‘lar edim.

Sana: _____ 2008 yil

IJTIMOIY - SOTSIAL FAOLIYAT	Umumiy sifatlar:	Maxsus sifatlar: haqiqatga intilish
	vatanparvarlik, insonparvarlik, vijdonlilik, prinsipiallik	adolat qaror topishiga intilish, kasbiy gʻurur, kasbiy etika
TASHKILIY FAOLIYAT	Oʻzini idora qila olish, iroda, doimiy tayyorlik, maqsadga intilish, tirishqoqlik	Odamlar bilan muomalada tashkilotchilik qobiliyati
SHAKLLANTIRUVCHI FAOLIYAT	Xotira, tasavvur, tafakkur, umumiy va maxsus intellekt, intuitsiya	
KOMMUNIKATIV FAOLIYAT	Muomalaga kirishuvchanlik, emotsional barqarorlik, e'tiborlilik, insonlarni eshita olish qobiliyati, insonlar bilan gaplasha olish qobiliyati	
TEZKOR QIDIRUV FAOLIYATI	Kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, diqqatning kengligi, diqqatning barqarorligi, diqqat konsentratsiyasi, yuqori yoʻnalganlik	

1. Vatanparvarlik,
2. Insonparvarlik,
3. VIjdonlilik,
4. Prinsipiiallik
5. Adolat qaror topishiga intilish,
6. Kasbiy g'urur,
7. Kasbiy etika
8. O'zini idora qila olish,
9. Iroda,
10. Doimiy tayyorlik,
11. Maqsadga intilish,
12. Tirishqoqlik
13. Tashkilotchilik qobiliyati
14. Xotira, tasavvur, tafakkur,
15. Umumiy va maxsus intellekt,
16. Intuitsiya
17. Muomalaga kirishuvchanlik,
18. Emotsional barqarorlik,
19. E'tiborlilik,
20. Insonlarni eshita olish qobiliyati,
21. Insonlar bilan gaplasha olish qobiliyati
22. Kuzatuvchanlik,
23. Qiziquvchanlik,